

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDEGOGIKA UNIVERSITETI**

Abdullayeva Qumri Madjidovna

**TIKUVCHILIK BUYUMLARINI
LOYIHALASH VA
MODELLASHTIRISH
ASOSLARI**

*Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan pedagogika
oliy o'quv yurtlari kash ta'lif fakulteti talabalari uchun o'quv
qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg' armasi nashriyoti
TOSHKENT-2006

Abdullayeva Qumri Madjidovna. Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish asoslari. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006, 160 bet.

Mazkur qo'llanma Pedagogika oliv o'quv yurtlari kasb ta'limi fakultetlari talabalari uchun "Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish asoslari" fani masalalarining bayoniga bag'ishlangan. Undan talabalar ushbu fan asoslarini zamon talablariga muvoqiq o'rghanishda foydalanishlari mumkin.

Qo'llanmadan o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarining o'qituvchilari, shuningdek, shu sohaga qiziqqan keng kitobxonlar ommasi foydalanishi mumkin.

Mas'ul muharrir: p.f.n., dosent Muslimov N.A.

Muharrir: Azizova M.

Taqrizchilar: **Iskandarov A.S.**

Nizomiy nomli Toshkent Pedagogika universiteti, prof., p.f.n;

Nig'matova F.U.

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti dosenti, t.f.n.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining ko'plab sohalarida chet ellik mutaxassislar bilan birligida hamkorlik qilib kelinmoqda. Tikuvchilik sanoati ham bundan mustasno emas. Respublikamizda tikuvchilik sohasi bo'yicha qo'shma korxonalardan tashqari uzoq tarixga ega bo'lgan "Yulduz", "Parizod", "Tong" tikuvchilik korxonalari mavjud. Bunday korxonalar uchun malakali mutaxassislar yetkazib berish masalasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da o'z ifodasini topgan.

"Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan barkamol yetuk rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi" (I.A.Karimov).

Respublikamizdagi tikuvchilik korxonalar, qo'shma korxonalar va yakka buyurtma tikish korxonalarishi ishlab chiqaradigan mahsulotlar aholining kiyimga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida, kasb-hunar kollejlari, umumta'lim maktablarida, maktabdan tashqari muassasalarda o'quvchilarni tikuvchilik korxonalarida xizmat qilishga tayyorlash ishlariiga e'tibor berilmoqda. Mehnat ta'limi o'qituvchisining darsdagi, to'garakdag'i ishlariada olgan chuqur bilimlari mustaqil ishlashlarida, izlanishlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu o'quv qo'llanma ayollar, erkaklar va bolalar kiyimlarini loyihalash, modellashga oid masalalarning bayoni bo'lib, oliy o'quv yurtlari talabalari, maktab o'qituvchilari, maktabdan tashqari muassasalarning, to'garaklarning rahbarlariga mo'ljallangan. Bundan tashqari, qo'llanmada bayon etilgan gazlama yakka tartibda kiyim tikadigan keng kitobxonlar ommasini ham qiziqtirishi mumkin.

Qo'llanmadagi berilgan mavzular shu fanni o'rganayotgan kishilarning ijodiy tafakkurlarini rivojlantirish, ularning badiiy

didlarini o'stirishda maksimal yordam berishni ko'zda tutgan holda to'plangan va bayon etilgan.

Qo'llanma bir necha bobdan iborat. Bu boblarda kiyim haqida va uning tarixidan ma'lumot, kiyimlarga qo'yiladigan talablar, kiyimlarning sinflanishi, ayollar, bolalar va erkaklar kiyimini loyihalash bo'yicha asosiy ma'lumotlar batafsil yoritilgan. Odam gavdasi tuzilishi asoslari, turlari, gavdaning asosiy antropometrik nuqtalari va chiziqlari, gavdani modul bo'yicha chizish, kiyimni loyihalashda foydalilaniladigan asosiy o'chovlar va ularni gavdadan olish, kiyimni loyihalash usullari, unda ishlataladigan qoshimchalar haqida yetarli ma'lumotlar berilgan.

Shuningdek, kiyimlarni loyihalash, ya'ni asos chizmasini tuzish, to'r qismidan boshib, keyin konstruktiv nuqtalar va chiziqlar o'rmini aniqlashgacha bo'lgan jarayon bosqichma-bosqich yoritib berilgan. Bu qo'llanmada o'zbek milliy kiyimlariga ham to'xtab o'tilgan.

Texnik modellashtirish haqida ma'lumotlar talabalarga tushunarli qilib bayon qilingan. Qo'llanmada kiyim kompozisiyasining asoslari, kostyum hosil qilishning asosiy tamoyillari, xususiyatlari va kompozisiya vositalari yoritib berilgan.

Bu qo'llanmani boblarini yozishda G.K.Xasanbaeva, I.O.Krimova, G.V.Skachkova, L.V.Martoplyas, A.P.Rogova, L.P.Sershneva kitoblarida bayon etilgan asosiy qoidalardan foydalaniilgan.

O'quv qo'llanmada berilgan gazlamalardan amaliy ishda ijodiy foydalinish didni, tadbirkorlikni rivojlantirishga, kiyim madaniyati tushunchasini kengaytirishga, kasbiy bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi.

"TIKUV BUYUMLARINI LOYIHALASH VA MODELLASHTIRISH ASOSLARI" FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

O'zbekiston tikuvchilik sanoatida keng iste'molchilar ommasi ehtiyoji va didini qondiradigan xilma-xil kiyimlar ishlab chiqarilmoqda. Ommaviy ishlab chiqarish bilan bir qatorda yakka buyurtma tikish korxonaları, kichik va o'rta xususiy korxonalar aholining kiyimga bo'lgan ehtiyojini qondirmoqda. Bu sohani rivojlantirishda xizmat qiluvchi mutaxassislarini oliv o'quv yurtlarida, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarida tayyorlanadi. Ularga maxsus fan sifatida "Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellahtirish asoslari" fani o'rgatiladi. Kiyimning asosiy andozalarini tayyorlash, modellar yaratish, asosiy andozalardan model andozalarini chiqarish va unga bezaklar tankish shu fanning asosiy maqsadidir.

Loyihalash – bu murakkab ijodiy jarayon bo'lib, unda har qanday buyumning, jumladan, kiyimning ham loyihasini ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Kiyimni loyihalash deganda, kiyimni tashkil etadigan detallar va gazlamalar kompleksi, shuningdek, ularni o'zaro ulab-tikib, muayyan o'lchovdagi va shakldagi yaxlit buyum holiga keltirish usullari, vositalari tushuniladi. Loyihalash jarayonida buyumning hajmli detallarini tekislikdag'i tasvirini hosil qilishdan iborat bo'ladi. Detallarning razmeri, soni va shakli ular yig'ilganda xuddi shu razimer va ko'rinishini beradi.

Kiyimlarni loyihalashda gavdadan o'lchov olish qoidalari va o'lchovlar asosida buyum asos chizmasini chizish, so'ng chizmadan andoza chiqarib tayyorlash qoidalarini o'rgatiladi. Kiyimni loyihalash bilan turli muassasalar shug'ullanadi. Bular - modalar uyi, tikuvchilik korxonalarining tajriba sexlari, maxsus loyihalash idoralari, ilmiy-tekshirish institutlari va laboratoriyalardir.

Kiyimlarni modellahtirishda kiyim modelini ijod qilish va asosiy andozadan model andozasini tayyorlash yo'llari o'rgatiladi. Bunda asos chizmasiga eskiz bo'yicha model chiziqlari kiritilib, yangi model andozasi hosil qilinadi.

Kiyimlarni badiiy bezashda esa kiyimga turli bezaklarni kiyim turiga va vazifasiga qarab berib, ularni bezatish yo'llari o'rgatiladi. Bunda kiyimning assortimentiga, gazlamasiga, kiyimning kimga mo'ljallanganligiga qarab, bezak elementini tanlash ijodiy jarayon ekanligi yaqqol ko'rinadi.

I-BOB

KIYIM HAQIDA MA'LUMOT

1.1. Kostyumdagi ayrim terminlarga tushuncha

Kiyim inson tanasini atrof muhitning turli xil nomaqbul ta'sirlaridan, ya'ni issiq, sovuq, nam, chang va boshqa ta'sirlardan asraydigan o'simlik, xayvonot hamda sun'iy gazlamalardan tayyorlanadigan, shuningdek, bezak vazifasini o'taydigan narsaga aytildi. Kiyim orqali har qanday insonning qaysi millat yoki elatga mansubligini, qanday geografik va iqlimiylar sharoitda yashashini, turmush tarzi, yashab turgan jamiyatining fan-texnika taraqqiyotini, madaniyatini aniqlashimiz mumkin.

Kiyim odam tashqi qiyofasini o'zgartirishda katta rol o'ynaydi. U qiyofani 60% gacha o'zgartiradi. Kiyim kishining badiiy didini ifodalaydi, madaniy saviyasini belgilaydi, shaxsn xarakterlaydi. Kiyim kishiga nisbatan turli his-tuyg'ular uyg'otadi. Masalan: jiddiylik, vazminlik, jo'shqinlik, sovuqlik, oddiylik va boshqalar.

Hozirgi zamон kiyimlari jamiyatimiz talabiga mos kelishi kerak, ya'ni chiroqli zamонави modada, gigienik va qulay bo'lishi lozim.

K o s t y u m — kiyimlar yig'indisidir. Shu bilan birga bosh-oyoq kiyimlari va qo'shimcha buyumlar (sumka, soyabon, qo'lqop) ham kostyum tarkibiga kiradi. "Kostyum" so'zi fransuzcha costume — kiyinish ma'nosini anglatib - kiyimning mazkur xalq, tabaqa, davr uchun umumiy bo'lgan shaklini shu termin bilan ataladi. Kostyum turli mamlakatlar xalqlarining o'ziga xos milliy qiyofasini aks ettiradi. Masalan o'zbek milliy kostyumi —

erkaklar uchun:

1. Oq yaxtak.
2. Oq lozim.
3. Beqasam chopon.
4. Chust do'ppi.
5. Etik.

ayollar uchun esa:

1. Koketkali ko'yylak.
2. Nimcha.
3. Lozim.
4. Kashtali do'ppi.
5. Kavush, chuvak.

Kostyum ma'lum maqsadga mo'ljallangan bo'ladi. Masalan, uy kiyimi, ko'chalik kiyim, sport kiyimi, teatr va konserт kiyimlari va hokazolar. Kostyum bir necha turlarga bo'linadi:

1. Komplekt.

2. Ansamb

3. Garnitur.

K o m p l e k t – bu bir necha kiyimlar yig‘indisidir. U bir xil yoki har xil gazlamadan tayyorlanadigan, biror maqsadga mo‘ljallanadigan bo‘lib, qo‘sishmcha kiyimlar ham unga kiradi, ya’ni bosh, oyoq kiyimlar, sumka, soyabon, qo‘lqop va boshqalar. Komplektlar qanday maqsadga mo‘ljallanganligiga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi: sport uchun, yo‘l uchun, cho‘milish uchun va hokazo. Masalan, yo‘l kiyimlari komplekti: ustki kiyim (palto yoki kurtka), shim, bo‘yin o‘yindisi yopiq jemferdan, to‘qilgan bosh kiyimdan, past poshnali oyoq kiyimdan va yo‘l sumkasidan iborat.

Komplekt ochiq sistema hisoblanadi. Uning tarkibidagi biror kiyimni olish, qo‘sish yoki almashtirish bilan komplekt vazifasini o‘zgartirish mumkin.

A n s a m b l – bir necha kiyimlar yig‘indisi bo‘lib, u yuqori badiiy did bilan tayyorlanadi. Tarkibidagi kiyimlar hammasi bir xil uslubda tayyorlangan bo‘lib, ular bir-biriga rangi, gazlamasi va bezaklari jihatidan chambarchas bog‘langan bo‘lib bir butunlikni tashkil qiladi, bir mazmunni anglatadi. Kiyim so‘nggi moda yo‘nalishlarida, murakkab fasonda tayyorlanadi. Uni qo‘sishmcha kiyimlar va zebu ziynatlar to‘ldirib mustahkamlaydi. Shuning uchun ansambl yopiq sistema bo‘lib, undagi biror kiyimni olish, qo‘sish, almashtirish mumkin emas. Bu holda kiyim mazmuni buziladi. Ansambl eng so‘nggi moda elementlarini targ‘ib qiladi. Masalan: ularga nikoh kiyimlari, bitiruv kechasi va boshqa tantanali kiyimlar kiradi.

G a r n i t u r – bu kiyim to‘plami aynan bir xil gazlamadan tayyorlanadi va ma’lum bir maqsadga mo‘ljallanadi. Masalan: ich kiyim garnituri, zargarlik buyumlari garnituri va hokazo. Endi kiyim haqidagi ba’zi bir tushunchalar bilan tanishamiz.

L i b o s – bu kiyim ham bir necha kiyimlar to‘plami bo‘lib, ular bir-biriga gazlamasi, rangi, bezaklari jihatidan moslashgan. Bu kiyim ma’lum vazifaga mo‘ljallangan bo‘ladi. Masalan: uylik, ko‘chalik, kiyimlari va hokazo.

G a r d e r o b so‘zining dastlabki ma’nosи – “kiyimxona” bo‘lib, hozirda ham “kiyim shkafi”, “kiyim turadigan joy” ma’nosini bildiradi. Lekin bir kishining butun oila a’zolarining hamma kiyimlari yig‘indisi ham garderob deyiladi. Birga kiyiladigan buyumlarga qarab,

garderob, odatda, bahorgi, kuzgi, yozgi va qishki bo'ladi.

F a s o n – bir nomli kiyim guruhidagi shakl, bichiq va boshqa xususiyatlar farqiga aytildi. Fason – kiyim modelining o'ziga xos xususiyatlari yig'indisini bildiradi.

M o d e l so'zi – kiyimning ko'rinishi, shakli, gazlamai, bezagi yoki boshqa sifatlari yangicha bo'lgan namunasini bildiradi.

1.2. Kiyim tarixidan ma'lumot

Kiyim insonning ilk rivojlanish davridan boshlab doimo inson bilan birga rivojlanib keldi. Kiyimning dastlabki ko'rinishlari Ibtidoiy davr odamlarining qabila bo'lib yashagan vaqtiga to'g'ri kelgan. Bu davrda daraxt barglari, poxollar, hayvon terilarini tanaga beldan bog'lab yurishgan. Kiyim insonning ijtimoiy hayoti, mehnat faoliyati va ongingin rivojlanishi tufayli ham rivojlanib bordi. Kiyimning keyingi ko'rinishi turli o'simlik va hayvonot mahsulotlaridan to'qilgan oddiy gazlamalarni tanaga o'rabi yurishdan iborat edi. Qadimgi Gresiyada erkaklar kiyimi ikki qismdan -- xiton va gimatiyidan iborat bo'lgan. Xiton – bu ichki kiyim bo'lib, jun yoki zig'ir tolali gazlamadan tayyorlangan.



I-rasm. Erkaklarning gimatiy kiyimi

Gazlamalar bo'y ipi bo'y lab ikkiga bukilib, yelkada ikkita to'g'nog'ich – fibula bilan mahkamlangan. Xiton bilan ko'chada yurish uyat hisoblangan. Erkaklar biror yumush bilan ko'chaga chiqayotganda ustki kiyim – gimatiyini kiyib olishgan. Gimatiy to'g'ri

to‘rburchak shakldagi, 1,7x4 m o‘lchamdagи gazlama bo‘lagidan iborat bo‘lib, uni yelka ustida bog‘lab yoki yelkaga tashlab olinib, gavdaning tabiiy go‘zalligi va harakat bermalolligini ko‘rsatadigan hamda unga halaqit bermaydigan nafis taxlamalar tushirib drapirovka qilib qo‘yilardi (1-rasm).

Ayollar kiyimi ham erkaklar kiyimiga o‘xshab ikki qismdan iborat bo‘lib, ularning kiyimi yopiqroq va uzunroq bo‘lgan. Ichki kiyimi – xiton burmalangan gazlama bo‘lagi yelkada fibulalar (to‘g‘nog‘ichlar) bilan mahkamlangan. Xiton oq, sariq, qizil rangdagi jun va zig‘ir tolali gazlamalardan tayyorlangan. Xiton uy kiyimi hisoblanib, unda ko‘chaga chiqish odatlanilmagan. Ayollar ustki kiyimi peplos deb atalardi (2-rasm). Uning shakli va drapirovka qilinishi xitonga o‘xshab ketardi, faqat taxlamalari soni ko‘proq va uzunroq edi. Peplos 1,5x3,5 m o‘lchamdagи gazlama bo‘lagidan iborat bo‘lgan.

Qadimgi greklar va rimliklar bunday burmalangan kiyimlarni ustalik va yuqori did bilan bajarganlar. Hozirgi kunda bunday burmalangan kiyimlarni Hindistonning milliy kiyimlarida ko‘rish mumkin.



2-rasm. Ustki kiyim – peplos

Tabiatshunoslik, samo fanlarining kelib chiqishi kiyimga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Kiyim gazlamasi turlari paydo bo‘ladi (yupqa, qalin, shoyi, ip tolali gazlama). Keyinchalik kiyimda tananing

qismlariga alohida gazlamalarni o'rab tayyorlash, kiyim qismlarining uzunasi bo'ylab biriktirish mehnat qilish uchun ancha qulaylik tug'diradi.

Ayniqsa, ignaning kelib chiqishi kiyim qismlarini biriktirib tikishda uning takomillashishiga olib keldi. XIII asrga kelib kiyimda yoqalar, yeng, manjetlar, cho'ntaklar, taqilmalar shakllandi. Kiyimning tashqi ko'rinishida, gazlamasida, bichilishida o'zgarishlar tez rivojlandi. Kiyimning gavdaga yopishgan, etaklari hajmli, qavatli ko'rinishlari, gazlamalarning atlas, barxat, movut kabi turlari paydo bo'ldi. Yevropa mamlakatlarda feodalizm mustahkam qaror topgan o'rta asrlar davrida maxsus estetik ideal va shunga mos kostyum xarakteri tarkib topdi. Odamzot gavdasining go'zalligidan zavqlanish nomunosisib va gunoh ish hisoblanar, shuning uchun, gavdani qo'poldan-qo'pol, og'ir, keyinchalik esa cho'ziq shakllarga o'rab tashlar edilar. Tor, yuqori qismi qator-qator murakkab taxlamalardan iborat, orqa etagi juda uzun ko'ylak, baland konussimon bosh-kiyim va nihoyatda cho'ziq poyafzal bilan birga qo'shilib, qaddi-qomat ko'rinishini o'zgartirib yuborardi (3-rasm).



3-rasm. Feodalizm davri kiyimi

O'rta asrlarda kostyum gavdani turli vositalar (shnurlar, korsetlar) yordamida qattiq qisib, tabiiy shakldan uzoqlashtiradigan "g'ilof" tizimi rivoj topishini boshlab berdi.

Uyg'onish davrida (XVI-XVII asrlar) estetik dunyoqarashni qayta baholash yuz berdi, ya'ni gumanistik ideologiyalar shakllandi. Bu buyuk geografik kashfiyotlar, ilm va texnika yutuqlari davri, san'at davri edi. Bu Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Mikelanjelo kabi ulug' allomalar davri edi.

Bu davrda ayollar kiyimi juda noqulay – qattiq, harakatga halaqit beradigan xolatda edi. Ikki qavatli kiyim bir vaqtida kiyilib, beldan etak qismiga karkas yordamida konussimon shakl ko'rinishida bo'lgan (4-rasm). Yubka qismida hech qanday burmalar bo'lmay, karkasga tortib qo'yilgan. Ko'ylikning yuqori qismi juda tor bo'lib, pastga tomon burchak shaklida tugallangan edi. Bu davrda ayollar belni xi pcha qilib ko'rsatish maqsadida korset kiyishgan.

Erkaklar kiyimi esa si po va sodda ko'rinishida bo'lgan. Kashtali ko'ylik, keng kamzul, triko va kalta shar shakliga o'xshab ketuvchi pantalonlar kiyilgan (5-rasm).

XVIII asr (Barokko davri) larga kelib kiyimda xashamatdorlik juda avj oldi. Bu davr kiyim shakllarining nazokatliligi, murakkabligi bilan va g'aroyib jinjimadorligi bilan farq qiladi. Kostyumda gavdaning bel qismi, ko'krak, bo'ksa ko'zga tashlanib turadi (6-rasm). Kostyum yengil, nozik bo'lib, boshdan-oyoq gul tikilgan, tyuldan, gazsimon gazlamadan, to'qima to'rdan, "ko'pchitib" qo'ygandek bezatilgan.



4-rasm. Uyg'onish davri kiyimi



5-rasm. Uyg'onish davri kiyimi

Ayollar kiyimi juda tor bo'lib, uning ostidan korset kiyilgan.

Ko'ylak old qismi juda ochiq, yenglari tor, past qismi to'rlar bilan bezatilgan, ko'ylakning etak qismi krinolin hisobiga keng turgan. Ko'ylak bezagiga alohida e'tibor berilgan. Ustki ko'ylak ko'krak qismida bantlar mahkamlangan. Bantlar ketma-ketlikda joylashgan, ya'ni avval kattalari, bel tomon esa mayda bantlar mahkamlab qo'yilgan.

Bu davr erkaklar ichki kiyimlari kamiza, ustki kiyimi plash esa tabar deb yuritiladi. Tabarkarda yon chok bo'lman va bu kiyim juda e'zozlangan. Ayollar kiyimi ham ikki qavatlari kamiza va kotta qismlardan iborat bo'lgan.

Kotta ustki kiyim bo'lib, yuqori qismi juda tor va yon yoki orqada shnurli taqilmasi bo'lgan. yenglari ham juda tor va uzun bo'lib, yubka qismi esa bo'lakdardan iborat juda keng va uzun shleyflar bilan yakunlangan.




6-rasm. Barokko davri kiyimlari

Erkaklar kiyimida ham xashamatdorlik sezilib turardi. XIX asrdagi yevropacha kostyum tarixi 1789 yildagi fransuz burjua inqilobining bo'ronli voqealaridan boshlandi. Yangi davrga kapitalizmning, fan va texnikanинг gurkirab taraqqiy etishi, yangi-yangi gazlamalar, tikuv mashinasi paydo bo'lishi xarakterli edi.

Kostyumda qator-qator turli xil shakllar, siluetlar, karkaslardan (korset va krinolindan) xalos bo'lish va gavdani erkin ko'rsatishga ehtiyoj sekin-asta sezila boshlandi. Erkaklar tik yoqali oq ko'ylak, galstuk yoki sharf, frak kiya boshlaganlar (7-rasm).

Ayollar kiyimi oddiy va si po ko'rinishga ega edi. Kostyumning bel qismi yuqoriroqda bo'lib, yubka qismi esa shleyf, yumshoq taxlamalardan iborat bo'lgan. Tantanali kiyimlar juda ochiq va uzun shleyfli qilib tikilgan (8-rasm).



7-rasm. Erkaklar ustki kiyimi

8-rasm. Ayollar bayram kiyimi

XX asr (Ampir davri) shakl va gazlamalar tanlashda qat'ian xizmatboplikni, soddalikni, bemalollikni o'z prinsi pi deb e'lon qiladi. Kostyum korset, krinolinlardan gavdani xalos qiladi, ayol gavdasini ozod etadi, bashanglik haqidagi tasavvur o'zgaradi. Kostyumning asosiy intilishi odam harakatlariga maksimal darajada mos bo'lishdan, gavdani ezmashlik, uni o'ziga bo'ysundirmaslikdan, balki, individuallikni ro'yobga chiqarishdan iborat bo'ladi (9, 10-rasmlar).

XX asr dunyodagi bo'layotgan voqealar kiyimga o'z ta'sirini o'tkazadi. 20-yillarda kiyimni ixchamlashtirish, bo'yini kaltalashtirish, etaklarini toraytirishni, oddiy bichimligini kiyimlarda ko'rish mumkin. Shu davrning taqchilligi va sinflanishi, tenglashuvi asosan oddiy matolardan ixcham ko'rinishdagi kiyimlar tayyorlanishiga sabab bo'lgan. 30-40-yillardan so'ng kiyimni kiyilish o'rniga qarab uslub bo'yicha kiyiladigan bo'ldi, ya'ni klassik, sport, fantaziya uslubi va keyinchalik erkin uslub paydo bo'ldi.



9-rasm. Ampir davridagi
erkaklar kiyimi



10-rasm. Ampir davridagi
ayollar kiyimi

Klassik uslubda – rasmiy ko'rinishda ko'chhalik kiyimlar tushunilsa, sport uslubida faqat sport mashg'ulotlari uchungina emas, balki harakat qilish uchun, turli ishlar uchun, aktiv dam olish uchun qulay kiyimlar, fantaziya uslubda esa bayram, tantanali kiyimlar ko'zda tutilgan. 70-80-yillarda ko'proq erkin uslubdagi kiyimlar paydo bo'lib, ularda klassik, fantaziya uslublari o'z ko'rinishini beradi.

Kostyumning obrazli ifodaliligi endilikda tez-tez almashib turadi, ya'ni chiziqlar injiq va doimiy emas, gavda bilan kostyumning o'zaro bog'likligi harakatda o'z ifodasini topadi. Bunda kiyim bir qaraganda gavdaga yopishib, gohida unga salgina tegib, ba'zan esa gavdadan uzoqlashib turadigan bo'ladi. Kostyumi shakllantirishda xizmatboplikni asos qilib olgan dizayn, ya'ni sanoat buyumlarini badiiy loyihalash aktiv rol o'ynaydi.

1.3. Kiyimga qo'yiladigan talablar

Kiyimni loyihalash kiyimga qo'yiladigan talablardan boshlanadi. Har qanday tikuvchilik buyumlariga aniq belgilangan talablar qo'yiladi. Kiyimga 2 xil talab qo'yiladi: iste'molchining talabi va ishlab chiqarish talabi.

Iste'molchining talabi o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

1. Gigienik talab.
2. Ekspluatasion talab.
3. Estetik talab.

G i g i ye n i k talablar deganda, shuni tushuniladiki, kiyimdan foydalanganda kiyim odam sog'lig'iga zarar yetkazmasligi, erkin harakatlanish vaqtida kiyim halaqit bermasligi kerak, ya'ni yozda kiyiladigan kiyimlar yengil, havo o'tkazuvchan bo'lishi, quyosh nurini qaytaruvchan bo'lishi, namni shimuvcchan bo'lishi kerak. Bunda gazlama asosiy rol o'ynaydi. Kiyim tabiiy tolali gazlamalardan tikilishi talab qilinadi. Masalan: paxta, ipak, jun, zig'ir tolali gazlamalar juda yaxshi, gigienik hisoblanadi.

Qishki kiyimlar odam tanasidan chiqqan issiqlikni saqlovchi, yengil va qulay bo'lishi kerak. Shuning uchun qishki kiyimlar ko'pincha jun tolali gazlamalardan tikiladi. Kiyimga ishlov berishda iloji boricha yengil bo'lishiga, bichimi esa qulay bo'lishiga e'tibor berish kerak. Kuzgi va bahorgi kiyimlar esa haroratning pastligi va yog'ingarchilik ko'pligiga asoslanib ko'proq sintetik tolali gazlamalardan tikiladi.

E k s p l u a t a s i o n talablar deganda, kiyimning vazifasiga va foydalanish sharoitlariga mosligi, qulayligi, chidamliliqi, ishonchliligi, formasining barqarorligi tushuniladi. Kiyilish davrida kiyim turli mekanikaviy va biologik ta'sirlarga duch keladi, nam vaqtida buraladi. Kiyim ana shu ta'sirlarga chidamlı bo'lishi kerak.

Bunday ta'sirlardan kiyim sitiladigan, cho'ziladigan, rangini o'zgartiradigan yoki g'ijimlanadigan bo'lsa, u uzoqqa chidamaydi. Shuning uchun gazlamaning xususiyatlarini e'tiborga olgan holda kiyim modelini to'g'ri tanlash kerak, ya'ni cho'ziluvchan, sitiluvchan gazlamalardan kengroq, burmalangan kiyimlar tikilgani ma'qul. Undan tashqari, kiyimning yoqalari, yenglari, bortlari, cho'ntak og'izlari ko'p ishqalanadi. Bu yerlarga puxta texnik ishlov berish, ya'ni qotirma materiallardan foydalanish kerak. Aks holda kiyim o'z ko'rinishini yo'qotadi.

E s t y e t i k talablar deganda, kiyimning moda yo'nalishiga mosligi, yangi gazlamalardan tikilganligi, yangi bezaklar ishlatilganligi, iste'molchilarning estetik didlarini qondirishi tushuniladi.

Ishlab chiqarish talabi deganda buyumni korxonada ishlab chiqarish jarayonidagi yuzaga keladigan talabi tushuniladi. Tikuvchilik

buyumini tayyorlashda quyidagilarga ahamiyat beriladi:

1. Bir asos bo'yicha bir necha modellarni tayyorlash mumkin bo'lsin.
2. Kiyimga ketadigan matodan yuqori tejamkorlikda foydalilaniladigan bo'lsin.
3. Kiyimni tikishda ishlab chiqarish korxonasi o'zida bor mexanizasiyadan va shart-sharoitlardan to'liq foydalana olsin.
4. Ishlab chiqarish korxonasi tayyorlanayotgan buyum yuqori unumli bo'lishini e'tiborga olishi kerak, natijada mahsulot tannarxi arzon, samaradorligi yuqori bo'ladi.

1.4. Kiyimlarning sinflanishi

Tikuvchilik sanoatida qabul qilingan sinflanishga ko'ra kiyimlar 2 sinfga:

- maishiy kiyimlar;
- ishlab chiqarish kiyimlariga bo'linadi.

Maishiy kiyim o'z navbatida foydalanish sharoitiga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- ust kiyimlar (palto, kalta palto, plashlar, jaketlar, pidjak, kurtka va hokazo);
- yengil kiyimlar (ko'yylaklar, bluzkalar, erkaklar ko'ylagi, yubkalar, fartuk va hokazo);
- ich kiyimlar (pijamalar, erkaklar va ayollar ich kiyimlari, cho'milish kiyimlari va hokazo);
- bosh kiyimlar (kepka, furajka, beretka, shapka, shlyapa, panama va hokazo).

Ishlab chiqarish kiyimlari esa quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- Maxsus kiyimlar – odamni zararli muhitdan muhofaza qiladi va kishining ish qobiliyatini saqlashga yordam beradi. Ularga kurtka, kombenizon, shim, plashlar kiradi.
- Forma kiyimlari – temir yo'l ishchilar, harbiylar, aviasiya, daryo va dengiz xodimlari va boshqalar uchun tikeladi. Ularga shinel, palto, kitel, shim, kostyum, kuylak, ich kiyim va boshqalar kiradi.


Jins va yosh alomatlariga ko'ra kiyimlarni quyidagi kichik guruhlarga: erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlariga ajratiladi. Bolalar kiyimi yoshiga ko'ra o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

- chaqaloqlar kiyimi;
- yasli yoshidagi o'g'il va qiz bolalar kiyimi;
- mактабгача ўшдаги болалар киимі;
- мактаб юшкандай балалар киимі;
- о'смirlar kiyimi.

Kiyimlar yilning qaysi faslida kiyilishiga qarab: yozgi, qishki, bahorgi, kuzgi kiyim turlariga bo'linadi. Bu kiyimlar qaerga kiyilishiga qarab quyidagilarga:

- kundalik kiyim,
- uy kiyimi,
- tantanali kiyim,
- sport kiyimlariga ajratiladi.

Kiyimlar tikiladigan gazlamasining tolasiga qarab: jun, shoyi, ip gazlama, zig'ir tolali gazlamalardan, shuningdek, sun'iy, sintetik va aralash tolali gazlamalardan tikilgan kiyimlarga bo'linadi.



4-6517

II-BOB **ODAM GAVDASI HAQIDA MA'LUMOT**

2.1. Odam gavdasining tuzilishi va turlari

Tikuvchilik mutaxassisligida kiyim modelini ishlab chiqarish uchun odam gavdasining tuzilishi haqida tasavvurga ega bo'lishi zarur.

Anatomiya – inson organizmi: ayrim organlar va sistemalarning tuzilishi hamda formalari haqidagi fan. Anatomiya morfologiyaning bir qismi hisoblanadi.

Morfologiya – inson organizmining shaxsiy o'zgaruvchanligi, gavda o'lchamlari va mutanosibliklarining yoshga qarab o'zgarishi hamda organizm ayrim qismlarining o'zgaruvchanligi qonuniyatlari haqidagi fan bo'lib, inson tanasining tuzilishi haqidagi ta'limotdir.

Anatropologiya fani esa yuqoridagilarning hammasini o'z ichiga olib, odam gavdasi tuzilishi haqida to'liq ma'lumot beradi. Gavda odadta tana, bo'yin, bosh, qo'llar va oyoqlar degan bo'limlarga bo'lib o'rjaniladi. Gavda tuzilishida odamning suyak qismlari asosiy rol uynab, u tayanch bo'lib hisoblanadi va odam gavdasining shakliga ta'sir qiladi. Odam skeleti bosh, tana, qo'l va oyoq suyak qismlaridan tashkil topgan. Skeletning tayanchi bo'lib umurtqa pog'onasi hisoblanadi. U besh qismga bo'linadi (11-rasm):


1. Bo'yin umurtqasi 0-1.
2. Ko'krak umurtqasi 1-2.
3. Bel umurtqasi 2-3.
4. Dumg'aza suyagi 3-4.
5. Dum suyagi 4-5.

Bo'yin umurtqasining 7-suyagi turtib chiqib turadi. Bu suyak odam gavdasidan o'lchovlar olishda xizmat qiladi.


Umurtqa pog'onasining egrilik darajasi odamning qaddi-qomatini belgilaydi. Egrilik shakli odamning butun umri davomida o'zgarib turadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda umurtqa pog'onasi deyarli to'g'ni shaklga ega. Bolaning o'sish davrida umurtqa pog'onasining egriligi ma'lum bir shaklga kiradi. Umurtqa pog'onasining egriligiga qarab gavdani quyidagi turlarga ajratish mumkin (12-rasm):

- ozgina egilgan (12-rasm,a);
- o'rtalagi (12-rasm, b);
- kuchli bir tekisda ifodalangan egrilik (12-rasm, v);
- kuchli notekis ifodalangan egrilik (12-rasm, g).


11-rasm. Umurtqa pog'onasining bo'linishi



Odamning bo'yin asosidan to yelka bo'g'imlarigacha bo'lgan qismi yelka deb ataladi. yelkaning qiyalik darajasiga qarab past ($Eq=7,7\pm0,75$ sm – 13-rasm, a), normal ($Eq=6,2\pm0,75$ sm – 13-rasm, b) va baland ($Eq=4,7\pm0,7$ sm – 13-rasm, v), shuningdek, yelka keng (13-rasm, g), normal (13-rasm, d) va tor (13-rasm, e) bo'lishi mumkin.




12- rasm. Umurtqa pog'onasining egriligi




13-rasm. Yetka shakllari


Ayollarda tananing ko'krak qafasi qismining shakli ko'proq ko'krak bezlarining tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Ko'krak bezlarining rivojlanishiga qarab kam rivojlangan (14-rasm,a), o'ita rivojlangan (14-rasm, b) va kuchli rivojlangan (14-rasm,v) turlariga bo'linadi. Ko'krak bezlarining joylashishiga qarab yuqori joylashgan (15-rasm, a), normal joylashgan (15-rasm, b) va past joylashgan (15-rasm, v) turlari ham uchraydi.



14-rasm. Ko'krak bezlarining rivojlanishi



15-rasm. Ko'krak bezlarining joylashishi




16-rasm. Qorin qismining o'lchamlari

Qorin qismining o'lchamlariga qarab, tekis qorin (16-rasm, a), bir oz turtib chiqqan qorin (16-rasm, b) va yuqori yoki past joylashgan dumaloq-do'ppaygan shaklli (16-rasm, v) qorin turlariga bo'linadi. Qorinning shakli jinsga, yoshga va oriq-semizligiga bog'liq bo'ladi.

Oyoqlar skeleti tos kamari va oyoqlarning erkin suyaklaridan tashkil topgan. Oyoqlarning erkin suyaklari jumlasiga yonbosh (son) suyagi, katta va kichik boldir suyaklari hamda tovon suyaklari kiradi.

Oyoqlarning shakli son suyagi o'qi bilan boldir suyagi o'qining bir-biriga nisbatan qanday joylashganligiga qarab, normal (17-rasm, a), 0-simon (17-rasm, b) va X-simon bo'lishi mumkin.



17-rasm. Oyoqlarning shakli

Odam gavdasini belgilab beruvchi asosiy morfologik belgilar: umumiy belgilarni, mutanosiblikni, tana tuzilishlarini o'z ichiga oladi.

Umumiyligi bilan deganda tananing uzunligi (odamning bo'y), ko'krak aylanasi hamda vazn kabi eng yirik belgilar tushuniladi. Gavdaning o'rtacha uzunligi chaqaloqlarda 49-51 sm bo'ladi. Odamning bo'y ayollarda 15-17 yoshda, erkaklarda 20-22 yoshda marraga yetadi. Ayollarning bo'y 35-50 yoshgacha o'zgarmaydi, shu yoshdan o'tgach har besh yilda 0,5 sm qisqara boradi, erkaklarning bo'y 55 yoshgacha shu tarzda davom etadi, keyinchalik har besh yilda 0,7 smdan qisqara boshlaydi.

Ko'krakning aylanasi antropologiyada juda yaxshi o'r ganilgan. Yosh ulg'aygan sari ko'krak aylanasining o'lchami orta boradi, qarigandan keyingina bir oz kamayadi.

Bir yashar go'dakning ko'krak aylanasi 48-49 sm ga teng. 20-25 yoshlardagi odamlarda ko'krak aylanasi o'lchami "marra" siga yetadi va o'zgarmaydi. Ayollar 35 yoshlarda, erkaklar 40 yoshlarda jadal semira boshlaydilar, shu sababli ko'krak aylanasi o'lchami ortadi. Faqat 60 yoshlardagina ko'krak aylanasi o'lchami kamayadi, bunga organizmning qarishi bilan bog'liq fiziologik o'zgarishlar sabab bo'ladi.

O'sish davrida tananing vazni ortaveradi, 25-40 yoshlarda vazn barqarorlashadi. 40 yoshdan 55 yoshgacha tana vazni har besh yilda o'rta hisobda 1,0-1,5 kg ortadi, 60 yoshdan o'tgach, vazn birmuncha kamayadi.

Kiyimni loyihalash uchun mutanosiblikning katta ahamiyati bor. Mutanosiblik deganda, tananing turli qismlari o'lchamining bo'y (rost) ga nisbati tushuniladi, bu nisbat foizlar bilan ifodalanadi. V.V. Bunak katta yoshdagagi erkaklar va ayollar o'rtasida ko'p uchraydigan tana mutanosibliklarini uchta asosiy turga bo'ladi: d'olix om orf tip – bu tipga mansub kishilarning oyoqlari uzun, tanasi qisqa va ixcham bo'ladi, brax imorf tip – bu tipga mansub kishilarning oyoqlari nisbatan qisqa, tanasi uzun va serbar bo'ladi, mezomorf tip – oraliq tip hisoblanadi.


Tana mutanosibligi yoshga va jinsga qarab o'zgaradi. Tan a tuzi i shi muayyan belgilar majmuiga bog'liq bo'lib, kishining qaddiqomatini ifodalaydi.

V.V.Bunak odamning gavda tuzilishini bir necha turlarga bo'lib ko'rsatadi. Lekin 3 ta tur asosiy hisoblanadi, ya'ni ko'krakdor tur (unchalik semiz emas, muskullari ozgina, qorin tortishgan, bukchaygan), muskullari rivojlangan tur (teridagi yog' qatlami o'rtacha, muskullari o'rtacha yoki juda rivojlangan, orqasi tekis) va qorindor tur (semiz, muskullari o'rtacha yoki kam rivojlangan, qorni dum-dumaloq bo'lib chiqib turadi, bukchaygan yoki oddiygina).

2.2. Bolalar gavdasining tuzilishi

Bolalar tanasining shakli va o'lchamlari o'sish davrida doimo o'zgarib turadi. Ayniqsa, gavda mutanosibligida keskin farqlar sezilarli bo'ladi (18-rasm).

Yangi tug'ilgan chaqaloqning bosh uzunligi tana uzunligining 1/4 qismini tashkil qilsa, o'smir bolalarda esa 1/8 qismiga teng. Chaqaloqlarda bo'yin kalta, qorin chiqqan va uzun, oyoq qo'lga nisbatan kalta bo'ladi. Bolalarni o'sish davrida gavda qismlari bir tekissa rivojlanmaydi. Qo'l va oyoqlar tez o'sadi, o'smirlik davriga kelib oyoq 5 marta, qo'l 4 marta uzaygan bo'ladi. Tana qismi esa sekinoq o'sadi. O'smir yoshiga kelib tana 3 marta, bosh qism esa 2 marta kattalashgan bo'ladi. Bolalarda bo'yning o'sishi 5-7, 10-11, 13-16 yoshlarda juda sezilarli bo'ladi.




18-rasm. Bolalar gavdasining mutanosibligi

Yosh bolalarda muskullar kam rivojlangan, yuz terilari yumshoq, teri silliq, yonoqlari dumaloq shaklda bo'ladi.

2.3. Gavdaning antropometrik nuqtalari va chiziqlari

Ko'plab ishlab chiqariladigan kiyimlarni loyihalash va asosiy baza asoslarini ishlab chiqish uchun maishiy xizmat tizimidagi loyihachiga standart jussalar, ya'ni mamlakatning jami aholisiga xos jussalar o'lchanining mukammal xarakteristikasi kerak bo'ladi. Bu ma'lumotlarni antropometrik tekshirish, ya'ni insonning gavdasini va uning qismlarini o'lchash yo'li bilan hosil qilish mumkin. Bu ish antropometriya deb ataladi. Antropometrik tekshirishlar vaqtida gavdaning muayyan nuqtalari – antropometrik nuqtalar oraliq'i yoki yumshoq gazlamada aniq bilinib, ko'rinish turadigan chegaralar, teridagi o'ziga xos nuqtalar bo'yicha o'lchanadi. O'lchov belgilarini hosil qilish uchun quyidagi antropometrik nuqtalardan foydalilaniladi (19-rasm):

- a – boshning eng yuqori baland nuqtasi;
- b – bo'yindagi 7-bo'yin umurtqasining holati;
- v – bo'yin asosidagi nuqta;
- g – o'mrov nuqtasi (bo'yin asosidan o'tgan chiziqda old qismda bo'yin chuqurchasi nuqtasi);
- d – yelka nuqtasi;
- e – qo'ltiq chuqurligining ort burchagi nuqtasi;
- j – qo'ltiq chuqurligining old burchagi nuqtasi;
- z – ko'krakning yuqori nuqtasi (ko'krak bezlarining uchi);
- i – kurak nuqtasi;
- k – bel nuqtasi (belning eng ingichka yeridan gorizontal o'tganda umurtqa pog'onasining kesishgan nuqtasi);
- m – qorinning turtib chiqqan nuqtasi;
- l – dumbanining turtib chiqqan nuqtasi;
- n – tizza nuqtasi (tizzaning eng yuqoriga ko'tarilgan markaz nuqtasi);
- o – to'piq nuqtasi;
- p – tirsak nuqtasi (tirsak bukilganda chiqib turgan nuqtasi);



19-rasm. Gavdaning antropometrik nuqtalari

r — bilak nuqtasi (bilakning eng ingichka yeridan o'tgan chiziqda ko'tarilib turgan nuqtasi).

Gavdadan olinadigan barcha o'chovlar vertikal va gorizontal tekislikda o'chanadi. Shuning uchun gavdada gorizontal va vertikal konstruktiv chiziqlar mavjud.

Gorizontal konstruktiv chiziqlarga quyidagilar kiradi (20-rasm):


B₁ — bo'yin konstruktiv chizig'i — bo'yin o'yindisi va yoqani shakllantirishda ishtirok etadi;

E — yelka konstruktiv chizig'i — yelkali kiyimlarni loyihalashda ishtirok etadi;

K — ko'krak konstruktiv chizig'i — kiyim kengligi va razmerini aniqlashda ishtirok etadi;

B₁ — bel konstruktiv chizig'i — bel kiyimlarini loyihalash, hamda kiyimlarni bel qismida lif va etak qismiga bo'linadigan chizig'i hisoblanadi;

B_k — bo'ksa konstruktiv chizig'i — kiyimning bo'ksadagi kengligi va razmerini aniqlashda ishtirok etadi;



20-rasm. Gavdaning antropometrik chiziqlari

T – tizza konstruktiv chizig'i – kiyimning tizzadagi kengligini aniqlashda ishtirok etadi;

Tq – to'liq konstruktiv chizig'i – kiyimning pocha qismi kengligini aniqlashda ishtirok etadi;

Q – qo'l konstruktiv chizig'i – yengning yuqori va etak qismi kengliklarini aniqlashda ishtirok etadi.

Vertikal konstruktiv chiziqlarga quyidagilar kiradi:

1 – orqaning o'rta markazidan o'tadigan konstruktiv chiziq;

2 – bo'yin asosi kengligi konstruktiv chizig'i;

3 – yon konstruktiv chizig'i;

4 – oldinda o'rta markaziy konstruktiv chiziq.


Gavdani konstruktiv nuqtalari va chiziqlarini belgilash uchun odam gavdasini chizib o'rGANISH qulaydir.

2.4. Gavdani modul bo'yicha chizish (21-rasm)

Gavdani modul bo'yicha chizishda katak chiziqli qog'ozdan foydalanish qulay hisoblanadi. Oltita kataknini bir modul qilib belgilanadi (kataklar sonini ixtiyoriy olish mumkin). Qolgan qismlari esa shu modulga nisbatan mutanosib ravishda o'zgarib boradi.

Gavdaning hamma qismlarini kataklar soniga qarab chizish kerak:

1. Bosh uzunligi – M (modul) – 6 katak.
2. Bo'yin kengligi – M/4 – 1,5 katak.
3. Bo'yindan yelka chizig'igacha uzunlik – M/3 – 2 katak.
4. Elka kengligi – M – 6 katak.
5. Bel kengligi – M/2 – 3 katak.
6. Ko'krak va bo'ksa kengligi 2M/3 – 4 katak.
7. Tovon kengligi – M/4 - 1,5 katak.
8. Tizza kengligi – M/3 – 2 katak.
9. Oyoq panjasigi uzunligi – 2M/3 – 4 katak.
10. Oyoq panjasigi kengligi – M/2 – 3 katak.
11. Qo'l panjasigi uzunligi – 2M/3 – 4 katak.



21-rasm. Gavdani modul bo'yicha chizish

III-BOB

KIYIMLARNI LOYIHALASH ASOSLARI

3.1. Kiyimni loyihalashda ishlataladigan o'lcov turlari va ularni gavdadan olish yo'llari

Kiyimni tikishdan oldin uni loyihalash kerak. Kiyimni loyihalashda esa gavdadan aniq olingan o'lcovlar ishlataladi. Buning uchun santimetrlı lenta olib, kiyim tikmoqchi bo'lgan kishi gavdasini o'lhash kerak.

Bu ishni bajarayotganda odam tovonlarini juftlab, ikkala oyog'ida, gavdani tabiiy holatda bo'sh qo'yib, qo'llarini tushirib tinch turishi kerak. O'lchayotganda tor futbolka ustidan emas, balki gavdaga yopishib turmaydigan ich kiyim, masalan, kombinasiya ustidan o'lchanadi. O'lhashni boshlashdan oldin gavdada asosiy hisoblash nuqtalari – bel chizig'i va boshqalar belgilab olinadi. Buning uchun belga 70-90 sm uzunlikdagi rezinka belga gorizontal qilib ilgak yordamida biriktiriladi. O'lchayotganda santimetrlı lentani tortmay va bushashtirmay, old tomondan tutashtiriladi. Yelka, qo'l, yubka uzunligi va boshqa o'lchamlarni gavdaning o'ng tomonidan o'lhash kerak. Agar yelka, bo'ksa va hokazolar simmetrik bo'lmasa, ikkala tomon ham o'lchanib, natijalar alohida yoziladi.

Aylana o'lchamlari to'la o'lchanadi, lekin bu o'lchamning yarmi (elka, bilak, yelka qiyamasining kengligidan tashqari) yoziladi. Uzunlik o'lchamlari to'la yoziladi.


Razmer belgilari qisqartirib: aylana – A, yarim aylana – YaA, uzunlik – U, kenglik – K, balandlik – B deb yoziladi.

Gavdani o'lhashdan oldin hech narsani esdan chiqarmay to'g'ri o'lhash uchun o'lhash belgilari ro'yxati yozilgan qog'oz tayyorlab olishni maslahat beramiz.

Gavdani to'g'ri o'lhash usullari 22-rasmda ko'rsatilgan. Ularni razmer belgilarini shartli belgilanishi esa quyida yozilgan:

1. Bo'yin aylanasi (BnA). Santimetrlı lenta bo'yin nuqtasi va bo'yin asosidagi nuqta orqali o'mrov nuqtasigacha aylanib o'tadi.

2. Ko'krakning birinchi aylanasi (KA₁). Santimetrlı lenta gavda ort qismi bo'ylab, gorizontal qo'ltiq chuqurligining oldingi va ortki burchaklariga tegib, oldinda kukrak bezlari asosining ustidan o'tadi.



22-rasm. Gavdadan ulchov olish

3. Ko'krakning ikkinchi aylanasi (KA₁). Santimetrl lenta kuraklarning turtib chiqqan nuqtalari bo'ylab, qo'ltiq chuqurligining oldingi va ortki burchaklariga tegib, oldinda ko'krakning turtib chiqqan nuqtalari bo'ylab o'tadi.

3a. Ko'krakning uchinchi aylanasi (KA₂). Santimetrl lenta kurakning turtib chiqqan nuqtalari orqali tana atrofidan qat'ian gorizontal o'tadi.

4. Bel aylanasi (BIA). Santimetrl lenta bel chizig'i darajasida eng ingichka joydan tanani aylanib o'tadi.

5. Bo'ksa aylanasi (BkA). Santimetrl lenta tana atrofidan gorizontal aylanib, lekin qorinning turtib chiqqanini hisobga olib, dumbaning turtib chiqqan nuqtalari orqali o'tadi.

6. Bilak aylanasi (BA). Panja bilakka ulanadigan joyidan aylantirib o'lchanadi.

7. Son aylanasi (SA). Sonning eng yuqori qismidan dumba chiziqlaridan gorizontal ravishda aylantirib o'lchanadi.

8. Tizza aylanasi (TA). Oyoqni 90° bukilgan holatda tizza atrofidan aylantirib o'lchanadi.

9. Gavdaning ort qismining kengligi (OrK). Gavda ort qismi bo'ylab qo'ltiq chuqurligining ortki burchaklari orasi gorizontal o'lchanadi.

10. Ko'krak kengligi 1 (KK1). Ko'krak bezlarining asosida ustidan qo'lting chuqurligining oldingi burchaklari orasi gorizontal o'lchanadi. Bu nazorat qilish o'lchovidir.

11. Ko'krak kengligi 2 (KK2). Santimetrali lenta ko'krak bezlarining uchlardan qo'lting chuqurligining oldingi burchaklaridan hayolan pastga tomon o'tkazilgan vertikal chiziqlar orasidan o'tadi.

12. Ko'krak markazi (KM). Ko'krakni turtib chiqqan nuqtalarining orasi o'lchanadi.

13. Yelka kengligi (YelK). Bo'yin asosining nuqtasidan yelka nuqtasigacha o'lchanadi.

14. Yelka aylanasi (YelA). Qo'lning yuqori qismidan aylantirib, qo'lting chuqurliklarining burchaklariga taqab gorizontal o'lchanadi.

15. Yeng uzunligi (YeU). Santimetrali lenta yordamida yelka nuqtasidan qo'lini bir oz bukilgan tirsak nuqtasi orqali bilagacha o'lchanadi. Bir vaqtda yengning tirsakkacha uzunligini ham belgilab olish kerak.

16. Gavda ort qismining belgacha uzunligi (OrbU). Santimetrali lenta bo'yin asosidan kurak nuqtasi orqali belgacha umurtqa pog'onasigacha parallel ravishda o'tadi.

17. Yelka qiyamasi uzunligi (YeQU). Bel chizig'i umurtqa chizig'i bilan kesishgan nuqtasidan yelka nuqtasigacha o'lchanadi.

18. Gavdaning old qismi belgacha uzunligi (OlbU). Santimetrali lenta bo'yin asosi nuqtasidan ko'krak bezlarining uchlari orqali belgacha vertikal ravishda o'tadi.

19. Ko'krak balandligi (KB). Santimetrali lenta bo'yin asosi nuqtasidan ko'krak bezlarining uchlari gacha o'tadi.

20. Yeng o'mizi uzunligi (Yeo'U). Bo'yin asosi yonida loyihalanadigan yelka chokining eng yuqori nuqtasidan, qo'lting chuqurligining ort tomon burchaklari darajasida o'tadigan gorizontalgacha vertikal o'lchanadi.

21. Kiyim uzunligi (KU). yettinchi bo'yin umurtqasidan istalgan uzunlik darajasigacha umurtqa bo'ylab, belga yopishib turadigan kiyimlarda bel bukilishini hisobga olib o'lchanadi (kiyim uzunligi ikkita o'lchanmdan ham iborat bo'lishi mumkin $KU=OrbU+YuU$).

22. Yubka uzunligi (YuU). Beldan yon tomondan istalgan uzunlik

darajasigacha vertikal ravishda o'lchanadi.

23. Shim uzunligi (ShU). Beldan yon tomondan istalgan uzunlik darajasigacha vertikal ravishda o'lchanadi.

24. Bo'ksa balandligi (BkB). O'tirgan holatda bel darajasidan stulgacha yon tomon bo'ylab vertikal o'lchanadi.

O'lcham KYaA_{II} ga binoan kiyim razmeri (o'lchami) aniqlanadi. razmerlar orasidagi fark – 2 sm bo'ladi (42, 44, 46 va hokazo). Rost (bo'y) lar orasidagi farq – 6 sm bo'ladi (146, 152, 158, 164, 170).

Gavdadan olingen o'lchovlar asosida chizma chizishdan oldin bu o'lchovlarning to'g'ri olingenligini tekshirib olish kerak. Ko'krak yarim aylanasi – 2 orqa bo'lak kengligining yarmi, yeng o'mizi kengligi va old bo'lak kengligining yarmisi yig'indilariga teng bo'lishi kerak, ya'ni:

$$KYaA_{II} = OrK + Yeo'K + OIK$$

Orqa bo'lak kengligining yarmi gavdadan olingen o'lchovdan olinadi.

Eng o'mizi kengligi yelka aylanasini 1/3 qismiga teng:

$$Eo'K = YelA:3$$

Old bo'lak kengligining yarmi gavdadan olingen o'lchovdan olinadi.

Agar tenglik 1 sm va undan ko'pga farq qilib chiqsa, o'lchovlarni qaytadan olish kerak.

3.2. Kiyimlarni loyihalash usullari

Loyihachi faoliyatining eng qiyin va ma'suliyatli bosqichlari kiyim detallarining chizmasi yoyilmasini chizishdan iborat. Bu bosqichdan ko'zlangan asosiy maqsad – detallarning shakli va o'lchamini mumkin qadar aniqroq belgilash; shunday qilinsa, kiyimning detallari yig'ilgandan keyin hosil bo'lgan shakli rassom shakliga mos keladi.

Bu ishning murakkabligi shundaki, faqat ta'rifi, eskizi yoki namunasigina berilgan, lekin o'zi yo'q kiyimning chizmasini – detallari yoyilmasini chizishga to'g'ri keladi. Buning ustiga, kiyimning sirti murakkab, yoyib bo'lmaydigan sirt hisoblanadi. Shunga ko'ra uning yoyilmasi va hisobi, ya'ni uni chizish uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlarni hisoblab chiqarish va chizmani chizish ancha qiyin.

Kiyim detallarini hisoblash va chizma tayyorlashning quyidagi mavjud usullaridan foydalanish mumkin:

1. Mulyaj usuli.
2. Hisoblab loyihalash usuli.
3. O'Ichab-hisoblab loyihalash usuli.
4. Yagona loyihalash usuli.

M u l ya j usulining mohiyati shundan iboratki, maneken yoki kishi gavdasiga maket gazlama (gazlama, yengil-yumshoq kog'oz yoki to'rkanva) modelning formasiga moslab, to'g'nag'ichlar bilan qadab chiqiladi. To'g'nag'ichlar odam gavdasining konstruktiv chiziqlari bo'ylab (bo'yin, yelka, yeng o'yindisi, yon, bel, o'rtal chiziqlar) to'g'nag'ichlanadi. So'ngra rangli ipda to'g'nalgan joylardan tikib chiqiladi. Shunda ko'krak do'ngligini aniqlovchi ko'krak vitochkasi ikki tomonlama tikiladi. So'ngra to'g'nag'ichlar bo'shatilib, gazlama yoki kog'ozni stol ustiga yoyiladi. Bu hosil bo'lgan chizma gavdaning asos chizmasi hisoblanadi. Bu usuldan murakkab bichimli kiyimlarni loyihalashda va ko'pgina saxna kiyimlarini, tarixiy kiyimlarni loyihalashda qo'llaniladi.

H i s o b l a b - l o y i h a l a s h usuli. XIX asrning boshlarida Fransiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda loyihalashning hisoblash (bichish tizimi) usuli tarqala boshlandi. Bu usulni ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan bichuvchilar ixtiro qilganlar. Ular gavdadan ayrim o'lchovlarni olib, sodda hisoblash formulalari yordamida buyum detallari chizmasini gazlamaning o'zida bajaradilar, ya'ni alohida andoza tayyorlab o'tirmaydilar. Bu usul yakka tartibda buyum ishlab chiqarishda qo'llanilgan.

O' Ich a b - h i s o b l a b - l o y i h a l a s h usuli. Kiyimni yakka buyurtma yo'li bilan tikishda o'Ichab-hisoblab loyihalash usuli juda mos keladi, chunki bu usulda gavdani aniq o'lchangani tufayli gavdaning o'ziga xos hususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtida o'Ichab-hisoblab loyihalash usullari bo'yicha kiyim detallari chizmasini tuzish keng tarqalgandir. Bu usulda gavdadan kerakli o'lchovlar olinadi, hisoblash jadvali tuziladi. Jadval asosida buyumning asos chizmasi chiziladi. Bu usuldan maftablarda, o'quv muassasalarida, to'garaklarda qo'llaniladi. Bu usulning bir necha

o'nlab turlari mavjud. Chizma chizishni, andoza tayyorlashni o'rganayotgan kishilar uchun bu usul qulay hisoblanadi.

Ya g o n a l o y i h a l a s h usuli. Mamlakatimiz va o'zaro iqtisodiy yordam kengashi (O'TYoK) a'zolari bo'lgan mamlakatlar tikuvchilik sanoatlarida kiyimni loyihalash usullarini takomillashtirish ustida ishlab, loyihalashning yagona usulini ishlab chiqqanlar. Bu usul boshqa usullardan universalligi bilan ham farq qiladi, chunki har qanday bichimdagi va ko'rinishdagi kiyimlar loyihasini tuzishda baza loyihalar asos qilib olinadi. Bu usulni yaratish jarayonida aholining antropometrik o'lchovlari asosida standartlar ishlab chiqilgan. Bu standartlar ayollar, erkaklar va bolalar assortimentlari uchun alohida-alohida ishlab chiqilgan. Bu usuldan tikuvchilik korxonalari foydalanadi. Korxonadagi loyihachilar standatlarda berilgan o'lchovlardan foydalanib, buyum assortimentiga qarab, buyumning asos chizmasini loyihalaydilar, modellashtirib, buyum andozasini hosil qiladilar. Bu andozalardan foydalanib, tikilgan buyumlar aholining buyumga bo'lgan ehtiyojini 80-85% ga qondiradi. Bu usulda loyihalash jarayonida turli razmer (o'lcham) larga, rost (bo'y) larga, to'lalikka moslab andozalar tayyorlanadi.

Ko'krak yarim aylanasi II ga binoan kiyim razmeri aniqlanadi. Razmerlar orasidagi farq – 2 sm bo'ladi. Masalan, 40, 42, 44, 46 va hokazo. Ayollar va erkaklar uchun 6 tadan rost mavjud bo'lib, rostlar orasidagi farq – 6 sm bo'ladi.

Ayollar uchun:	Erkaklar uchun:
I 146	I 152
II 152	II 158
III 158	III 164
IV 164	IV 170
V 170	V 176
VI 176	VI 182

Ikkinchi ko'krak aylanasi (KYaA_{II}) bilan bo'ksa aylanasi (BkYaA) o'lchamlari orasidagi farq bo'yicha to'lalik guruhi aniqlanadi. Bu farq birinchi to'lalik guruhida 4 sm, ikkinchisida 8 sm, uchinchisida 12 sm ga teng.

Tayyor kiyim sotib olayotganda, albatta, o'z bo'yingizni va o'lcham belgilardan KYaA_{II} bilan BkYaA larni bilingiz kerak.

3.3. Kiyimni loyihalashda ishlatiladigan qo'shimchalar

Kiyim gavda yuzasining shaklini to'la takrorlamaydi va gavdaning u yoki bu joylariga turlicha yopishib turadi. Ma'lumki, ko'krak qismida, belda, bo'ksada kiyimning gavdaga qay darajada yopishib turishi, kiyim bichimini (siluetni) belgilaydi. Kiyim bichimi yelka kengligi va balandligi, modelning etak kengligi bilan ham xarakterlanadi. Kiyim qay darajada gavdaga yopishib turishiga qaramay, uning ichki o'lchamlari odam gavdasining o'lchamlaridan katta bo'ladi. Shuning uchun kiyim loyihasi asosining chizmasini tuzish uchun gavda o'lchamlarining o'zi yetarli bo'lmaydi. Kiyim ichki o'lchamlarining gavda o'lchamlaridan farqining miqdori qo'shimcha deyiladi va "Q" harfi bilan belgilanadi.

Qo'shimchalar nimaga mo'ljallanganiga qarab zarur bo'lgan minimal (texnik) "Qtex" va konstruktiv-dekorativ – "Qkd" qo'shimchalarga bo'linadilar.

Qtex – qo'shimcha bemalol harakat qilishni, bemalol nafas olishni ta'minlaydi, gazlama tana yuzasi bilan kiyimning ichki yuzasi orasida havo qatlami hosil qilishi imkonini beradi. Bunday havo qatlaming issiqlik almashuvini tartibga solishda katta ahamiyati bor.

Texnik qo'shimcha o'z navbatida 4 ga bo'linadi:

- minimal qo'shimcha;
- kiyim qavati uchun;
- erkin harakatlanish uchun;
- texnologik.

Minimal qo'shimchada odamning qon aylanishi, nafas olishi, ovqat hazm bo'lishi hisobga olinadi.

Kiyim qavati uchun qo'shimchada asosan ustki kiyimlar uchun ichidan necha qavat kiyilishini hisobga olgan holda bo'shliq beriladi.

Erkin harakatlanish uchun qo'shimchada asosan kiyimni qaerda kiyilishini hisobga olgan holda olinadi, ya'ni kiyimning vazifasiga, assortimentiga qaraladi. Masalan, sahnada ashula aytadigan xonandaning kiyimiga nisbatan, qurilishda kiyiladigan ish kiyimida bir necha marta ko'p qo'shimcha bo'ladi, chunki u yerda odam ko'p harakatlanadi.

Texnologik qo'shimchada kiyimni tayyorlash jarayonida uning gazlamasi turiga, qalinligiga qarab ishlov berilishiga, ya'ni

qotirmalar, issiq qatlamlar bilan ishlov berish hisobga olinadi.

Konstruktiv-dekorativ qo'shimchalar o'z navbatida ikkiga bo'linadi:

- konstruktiv qo'shimcha;
- dekorativ qo'shimcha.

Konstruktiv qo'shimchalarda kiyimning bichimi hisobga olinadi.

Masalan, kiyimning bichimi to'g'ri, gavdaga sal yopishgan, gavdaga yopishgan va hokazo bo'ladi. Bu yerda to'g'ri bichimli kiyimlarga eng ko'p qo'shimcha beriladi.

Dekorativ qo'shimchalarda kiyim bezaklari uchun beriladigan qo'shimchalar hisobga olinadi. Masalan, burmalar, taxlamalar, bufflar, vafli va hokazolar uchun qo'shimcha beriladi.

Konstruktiv-dekorativ qo'shimchalar kiyimda doimiy bo'lmaydi. Ularning qiymati kiyim turiga, uning bichimiga, shakli va boshqalarga qarab, ya'ni moda talabiga binoan o'zgaradi.

Kiyim loyihasi asosining chizmasini hisoblash qulay bo'lishi uchun:

$$\text{Qumumiyl} = \text{Qtex} + \text{Qkd}$$

Qumumiyl – bu umumiy qo'shimcha kiyimni gavdada bemalol turish qo'shimchasi deb ataladi va u quyidagilarga bo'linadi:

Qk – ko'krak chizig'i bo'ylab gavdada bemalol turish qo'shimchasi;

BIQ – bel chizig'i bo'ylab gavdada bemalol turish qo'shimchasi;

BkQ – bo'ksa chizig'i bo'ylab gavdada bemalol turish qo'shimchasi.

Bu qo'shimchalarning qiymati kiyim bichimiga bog'liq bo'ladi. Masalan, gavdaga yopishib turadigan bichimli kiyimlar uchun gavdada bemalol turish qo'shimchasining qiymati minimal bo'ladi.

1-jadvalda kiyimni gavdaga turli darajada yopishib turishiga qarab mo'ljallangan qo'shimcha qiymatlarning yig'indisi berilgan.

Jadvaldan ko'rilib turibdiki, bir xil bichim uchun qo'shimcha minimal va maksimal bo'lar ekan. Bu holda qo'shimchaning qiymati gazlama qalinligi va tarkibiga qarab olinadi. Masalan, qo'shimcha miqdori yupqagazlamadan (ipak, shifon va hokazolar) tikiladigan ko'yaklarda minimal; nisbatan o'rta qalinlikdagi (ko'yakli jun gazlamalar, trikotaj va boshqalar) gazlamalardan tikiladigan ko'yaklar uchun o'rtacha; qalin va zinch to'qilgan (movut, triko va hokazo) gazlamalardan tikiladigan ko'yaklar uchun maksimal darajada olinadi.

Gavdada hemaloj turish qo'shimlari, sm

I-jadval

Kiyim turлari	Kiyuminning gavdaga yopishib turish darзjasи (siliнet)						trapesiya	Shakli katta hajmli	Texnik modellash prosessida erishilanadi.	
	Juda yopishib turadigan	Yopishib turadigan	O rachha yopishib turadigan	Bemalol turadigan						
Qk	B ₁ Q	BkQ	Qk	B ₁ Q	BkQ	Qk	B ₁ Q	BkQ	B ₁ Q	
Ko'yлak							Modelga binoan konstruktivaniqlanadi 8 dan ortiq 7 dan ortiq			
							Modelga binoan konstruktivaniqlanadi 7 dan ortiq 5 dan ortiq			
							5-7 4-5			
							5 dan ertiq 3 dan ortiq			
							Modelga binoan konstruktivaniqlanadi			
							7 dan ortiq 4 dan ortiq			
							Modeiga binoan konstruktivaniqlanadi.			
							7-8 6-7			
							3-5 2-3			
							5-7 3-4			
							5-7 4-5			
							1,5-2,5 1-1,5			
							3-4,5 2-3			
							4-5 3-4			
							1-2 0-0,5			
							2-3 0,5-1			
							3-3,5 2-2,5			
							Jaket			

Old va ort bo'laklar bilan yaxlit bichiladigan va reglan ko'ylaklarning loyihasini ishlab chiqishda Qk – qo'shimcha 1-2 sm ko'paytiriladi. Qanday bichim bo'lmasin yubkaning (shimning) bei chizig'i bo'ylab gavdada bemalol turish qo'shimchasi 1 sm ga, bo'ksa chizig'i uchun 2 sm ga teng olinadi.

Kiyim gavdada yaxshi turishi va kiyganda qulay bo'lishi uchun qo'shimchalar faqat ko'krak, bel, bo'ksa qismlaridagina emas, balki boshqa konstruktiv joylarda ham bo'lishi kerak.

Kiyim gavdada bemalol turishiga mo'ljallangan yelka aylanasisiga qo'shimcha – YeaQ ning qiymati 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Eng turi	Qo'shimcha miqdori, sm	
	Ko'ylak	Jaket
Qo'lga yopishib turadigan	3-4	4-5,5
Tor	4-6	5,5-7,5
O'rtacha	6-7	7,5-9,5
Kengaytirilgan	8-10	9,5-11,5
Keng	10-12	11,5-13,5
Juda keng	12-14	13,5-15,5

Ko'krak chizig'i bo'ylab gavdada bemalol turish qo'shimchasi – Qk quyidagicha hisoblanadi.

Masalan, 1-jadvaldan $Qk = 5$ sm

2-jadvaldan $YeaQ = 6$ sm.

$$Qk = OrkQ + Yeo'kQ + OlkQ$$

$OrkQ$ – orqa bo'lak kengligi bo'ylab gavdada bemalol turish qo'shimchasi;

$Yeo'kQ$ – yeng o'mizi kengligi bo'ylab gavdada bemalol turish qo'shimchasi;

$OlkQ$ – old bo'lak kengligi bo'ylab gavdada bemalol turish qo'shimchasi.

$$Yeo'kQ = 0,5YeaQ = 0,5 \times 6 = 3 \text{ sm}$$

$$Qk - Yeo'kQ = 5 - 3 = 2 \text{ sm}$$

U holda $OrkQ = 1$ sm, $OlkQ = 1$ sm kelib chiqadi.

IV-BOB **AYOLLARNING KIYIMLARINI LOYIHALASH ASOSLARI**

4.1. Ayollar kiyimlarining tavsifi

Ayollar kiyimlari assortimentiga: ko'ylaklar, ko'ylak-xalat, ko'ylak-palto, ko'ylak-kostyum, sarafan, tunika, bluzka, bluzka-jemper, bluzka-batnik, jilet, jaket, ko'ylak-kombinezon, kombinezon, shimli kostyum, shim, yubka, yubka-shimlar va hokazolar kiradi.

Ko'ylaklar kiyilishiga qarab yelkali kiyimlar turiga kiradi. Ular yaxlit, bel qismidan, bo'ksa va ko'krak qismlaridan qirqma bo'lishi, yengli yoki yengsiz, yoqali yoki yoqasiz xolatda uchrashi mumkin. Ko'ylaklar kashtalar, burmalar, to'rlar, tugmalar, tasmalar, taxlamalar va boshqa xil bezaklar bilan bezatilishi mumkin. Ularni turli xil: ip tolali, shoyi, jun, zig'ir tolali hamda sun'iy va sintetik tolali gazlamalardan tikish mumkin. Ko'ylaklarga gazlama tanlashda kiyimning nimaga mo'ljallanganligiga hamda fasliga qarab e'tibor berish kerak, ya'ni kiyimni uylik, kundalik, bashang kiyim ekanligini unutmaslik lozim.

Uylik kiyimlar arzon, ip tolali gazlamalardan tikilgani ma'qil bo'lib, ular keng, qulay bo'lishi, bezaklari me'yorida ishlatilishi kerak.

Kundalik kiyimlar yoz oylarida yengil, yupqa gazlamalardan, yorqin rangda, yengli yoki yengsiz qilib tikilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Qish oylarida esa yumshoq, zinch to'qilgan jun tolali, sidirg'a yoki katak, yo'lli, mayda gulli gazlamalardan turli xil fasonlarda uzun yengli, yoqali yoki bo'yin o'yindisini yopiq qilib yoqasiz tikish mumkin.

Bashang kiyimlar chiroqli, zarli, gulli yoki sidirg'a gazlamalardan tayyorlanishi mumkin. Bunday kiyimlar juda murakkab fasonlarda bo'lishi, hamda ularga chiroqli bezaklar: kashtalar, burmalar, mayda taxlamalar, sun'iy gullar, belbog'lar ishlatib tikish mumkin. Ko'ylak fasonlarini tanlashda gazlamaning xususiyatlariiga, odam gavdasining tuzilishiga hamda kiyimning vazifasiga qaraladi.

Yubka, shim, yubka-shim bellii kiyimlar turiga kirib, ular fasoni

bo'yicha turlicha bo'ladi. Ular qanday maqsadda kiyilishiga qarab, ularni kostyum bilan va kostyumsiz kiyiladigan turiga ajratish mumkin. Yubkalar to'g'ri, etagi kengaygan - bo'lakli, klyoshli qilib tikilishi mumkin. Ular zich to'qilgan, qalin, jun gazlamalardan, yengli tabiiy va sun'iy tolali, sidirg'a yoki gulli gazlamalardan tayyorlash mumkin. Yubka, shim fasonlarini tanlashda gazlamalarning xususiyatiga, kiyimning vazifasiga, mavsumiga va albatta odam gavdasiga e'tibor berish kerak.

4.2. Ayollar tungi ko'ylagini loyihalash

Tungi ko'yak loyihasining asosi gavdaning o'lcham belgilari aniqlanib, konstruktiv joylarining qo'shimchalari tanlab olingandan keyingina hisoblab tuziladi.

Tungi ko'yak chizmasini loyihalash uchun quyidagi o'lchovlar kerak bo'ladi.


$$\begin{array}{ll} \text{BnYaA} = 18 \text{ sm} & \text{YeU} = 8-10 \text{ sm} \\ \text{KYaA}_{\text{II}} = 48 \text{ cm} & \text{KU} = 100 \text{ sm} \\ \text{OrbU} = 42 \text{ sm} & \text{YelA} = 30 \text{ sm} \end{array}$$

Qo'shimchalar hamma razmerlar uchun:

$$Qk = 3-4 \text{ sm} \quad Qel = 5-7 \text{ sm}$$

To'g'ri burchak chizib, unga Bn nuqta qo'yiladi.

1. BnE = KU = 100 sm (kiyim uzunligi).
2. $BnBn_1 = KYaA_{\text{II}}:2 + Qk = 48:2 + 4 = 28 \text{ sm}$ (kiyim kengligi).
3. $BnBn_1 EE_1 = \text{to}'g'ri \text{ to}'rtburchak chiziladi.$
4. $BnBl = OrbU = 42 \text{ sm}$ (bel uzunligi).
5. $BnBn_2 = BnYaA:3 + 2 = 18:3 + 2 = 8 \text{ sm}$ (yoqa o'miz kengligi).
6. $BnBn_3 = 3 \text{ sm}$ (ort bo'lak yoqa o'miz chuqurligi, hamma razmer uchun doimiy qiymat).
7. $BnBn_4 = BnYaA:3 + (4-10) = 18:3 + 8 = 14 \text{ sm}$ (old bo'lak yoqa o'miz chuqurligi).



23-rasm. Tungi ko'ylak chizmasi

8. Ravon egri chiziqlar bilan yoqa o'mizining shakli chizib olinadi: ort bo'lak uchun Bn_2Bn_3 , old bo'lak uchun Bn_2Bn_4 .
9. $Bn_1K = EIA : 2 + Qel = 30 : 2 + 7 = 22$ sm (eng o'mizi chuqurligi).
10. $Bn_1, Bn_5 = KK_1 = YeU = 8 - 10$ (yeng uzunligi).
11. $KK_2 = KK_1$ (yordamchi nuqta).
12. $K_1K_3 = 1,5 - 2$ sm (doimiy qiymat).
13. $K_3K_4 = K_3K_2 : 2$ (chizmadan o'lchananadi).
14. $K_4K_5 = 1,5$ sm (doimiy qiymat).
15. $E_1E_2 = 10 - 12$ sm (kiyimning etak tomonga kengaya borishi).
16. $E_2E_3 = 1,5 - 2$ sm (yon chokning etak tomondagi holati).
17. K_3, K_5, K_2 nuqtalar orqali yon qirqim shaklini chiziladi.
18. Kiyim etagi ravon chiziq bilan chiziladi.
19. Bl nuqtadan unga gorizontal chiziq o'tkazib, chiziqlar kesishgan joyga Bl_1 nuqta qo'yiladi.
20. $Bl_1Bl_2 = 0,5 - 1$ sm.
21. Etak chizig'iga parallel qilib bel chizig'i chiziladi.

4.3. Ayollar ovropacha ko‘ylagini loyihalash

Ko‘ylak asosini hisoblash va uni tuzish uch bosqichdan iborat bo‘ladi.

1. Asosning to‘r qismi hisoblanadi va chiziladi.
2. Konstruktiv nuqtalar va chiziqlarning joylari hisoblanadi, ya’ni ort va old bo‘laklar chiziladi.
3. Asosning vitochkasi va yon qirqimlarining tipaviy holatlari belgilanadi.

Chizma asosini chizish uchun quyidagi o‘lchovlar kerak bo‘ladi:

BnYaA = 18 sm	OrbU = 42 sm
KYaA _I = 44,5 sm	Yeo‘U = 21 sm
KYaA _{II} = 48 sm	YeQU = 41,5 sm
BIYaA = 38 sm	KM = 9,5 sm
BkYaA = 52 sm	KB = 27 sm
YelK = 13 sm	OlbU = 44 sm
YeU = 35—58 sm	YuU = 70 sm
YelA = 30—25—17 sm	
OrK = 17,5 sm	
OlK = 20 sm	

Hamma razmerlar uchun kerakli qo‘sishchalar:

Qk = 4 sm: shundan Qorqa = 1,5 sm;

Qoldi = 1 sm;

Qyeng o‘miz = 1,5 sm.

QBl = 4 sm, QBk = 2 sm, Qel = 5 sm, Qyeo‘u=2 sm

Endi olingan o‘lchovlarni to‘g‘riligini tekshirib chiqamiz:

$$\begin{aligned} KYaA_{II} &= OrK + Yeo‘K + OlK \\ 48 &= 17,5 + 30,5 + 20 = 47,5 \end{aligned}$$

Demak, tenglikdagi farq 1 smdan kichik, ya’ni 0,5 ga teng, jadval tuzishni davom ettirish mumkin.

4.3.1. Ko‘ylak asosining to‘r qismi

To‘r qismi ko‘ylak loyihasining bo‘yi va eni bo‘ylab asosiy o‘lchamlarini belgilab beradi.

To‘g‘ri burchak chizib, unga Bn nuqta qo‘yiladi (24-rasm).

BnE – ort bo‘lak simmetrik chizig‘i.

1. $BnE = KU = OrbU + YuU = 42 + 70 = 112$ sm (ko‘ylak uzunligi).

2. $BnBn_1 = KYaA_{II} + Qk = 48 + 4 = 52$ sm (ko‘ylak kengligi).


3. $BnBn_1EE_1 =$ to‘g‘ri to‘rtburchak chiziladi.

4. $BnBl = OrbU + I = 42 + 1 = 43$ sm (bel uzunligi).

5. $BlBk = OrbU : 2 - (1+3) = 42 : 2 - 1 = 20$ sm (bo‘ksa chizig‘i).

6. $BnK = Yeo‘U + Qyeo‘u = 21 + 2 = 23$ sm (ko‘krak chizig‘i).

7. Ko‘krak, bel, bo‘ksa chizig‘idan gorizontal o‘tkaziladi, kesishgan joylariga K_1 , Bl_1 , Bk_1 nuqtalar belgilab qo‘yiladi.



24-rasm. Ko‘ylakning to‘r qismi

8. $B_1 B_n = OlbU + 1 = 44 + 1 = 45$ sm (bel uzunligi).

9. B_n nuqtadan chap tomonga uzun bo'limgan gorizontal chizig'i o'tkaziladi.

10. $KK_2 = OrK + Qorqa = 17,5 + 1,5 = 19$ sm (ort bo'lak kengligi)

11. $K_1 K_3 = OlK + Qoldi = 20 + 1 = 21$ sm (old bo'lak kengligi).

12. $K_2 K_3 = YelA : 3 + Qyeo' + 0,5 = 30 : 3 + 1,5 + 0,5 = 12$ sm (yeng o'mizi kengligi), 0,5 hamma razmerlar uchun.

13. $K_2 K_4 = K_2 K_3 : 2 = 12 : 2 = 6$ sm (yon chiziq).

14. K_2, K_3 nuqtalardan yuqoriga bo'yin chizig'i bilan kesishguncha, K_4 nuqtadan esa pastga etak qism bilan kesishguncha vertikal chiziqlar o'tkaziladi, kesishgan joylariga mos ravishda B_n, B_n, E_2 nuqtalar belgilab qo'yiladi.

4.3.2. Ort bo'lak chizmasi (25-rasm)

15. $BnBn_4 = BnYaA : 3 + 1$ (hamma razmer uchun) = $18 : 3 + 1 = 7$ sm (bo'yin o'mizi kengligi).

16. $BnBn_5 = BnBn_4 : 3 = 7 : 3 = 2,5$ sm (bo'yin o'mizi chuqurligi).

17. Bn_4, Bn_5 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

18. $Blm = 1,0 - 2,5$ sm (ort bo'lak o'rta chizig'i, ko'ylak orqasi ikki bo'lakdan iborat bo'lganda).

19. $Ks = BnK : 2 + 2 = 23 : 2 + 2 = 13,5$ sm (kurak nuqtasining turtib chiqishini e'tiborga olinishi, ko'ylak ort bo'lagi ikki qismdan iborat bo'lsa).

20. S va m nuqtalar tutashtiriladi va m nuqtadan pastga tomon bo'ksa va etak qismi bilan kesishguncha chiziq o'tkaziladi, mos ravishda Bk_2, E_3 nuqtalar bilan belgilanadi.

21. Km chiziqqa bel chizig'i perpendikulyar tarzda o'tkaziladi va yon chiziq bilan kesishgan nuqtalar T_2 bilan belgilanadi.

22. $mE = YeQU + 1 = 41,5 + 1 = 42,5$ sm (yelka nuqtasining holatini aniqlash).

23. Bn_4, Ye nuqtalar tutashtiriladi.

24. $Bn_4 Ye_1 = YelK + vitochka kengligi = 13 + (1,5 - 3) = 15$ sm (yelka uzunligi).


25. $Bn_4 v = Bn_4 Ye_1 : 3 = 15 : 3 = 5$ sm (vitochkaning boshlanish nuqtasi).

26. v nuqtadan pastga bo'ksa chizig'i bilan kesishguncha vertikal chiziq o'tkaziladi.

27. $v_1 = 8-10 \text{ sm}$ (vitochka uzunligi).
28. $v_1^1 = 0,5 \text{ sm}$ (yelka chizig'ini to'g'riligini belgilash).
29. $v_2 = 1,5-3$ (vitochka kengligi).
30. $v_1 v_2 = v_1 v^1 = 8,5-10,5 \text{ sm}$ (vitochka tomonlari).
31. $Bn_4 v^1$ va $v_2 Ye_1$ nuqtalar birlashtiriladi.
32. $K_2 L = K_2 Ye:3$ (yordamchi nuqta).
33. $K_2 O = 0,2xK_2 K_3 + 0,5 = 0,2x12+0,5 = 3 \text{ sm}$ (bissektrissa).
34. Ye_1, L, O, K_4 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
35. Vitochka miqdori = $mBl_1 - (B1YaA + QBl) = 50,5 - (38 + 4) = 8,5 \text{ sm}$.
36. $T_m = 1/5$ vitochka miqdori = $1/5x8,5 = 1,7 \text{ sm}$ (yon tomon vitochkasi).
37. $bb_1 = (BkYaA + QBk - Bk_2 Bk_1):2 = (52 + 2 - 50):2 = 2 \text{ sm}$ (bo'ksadagi kengayish). $Bk_2 Bk_1$ – chizmadan o'lchab olinadi.
38. $E_2 E_4 = bb_1 = 2 \text{ sm}$ (etak qismidagi kengayish, to'g'ri bichimli ko'ylik uchun. Agar etagiga kengaygan bo'lsa, bu qiymat 2-5 smga teng bo'ladi).
39. K_4, m_1 nuqtalar chizg'ich bilan, m_1, b_1 nuqtalar esa turtib chiqqan egri chiziq bilan, b_1, E_4 nuqtalar chizg'ich bilan birlashtiriladi.
40. Etak chizig'i o'rta chiziqa to'g'ri burchak shaklida chiziladi.
41. $(1/5 \text{ vitochka miqdori} + 1):2 = (1/5x8,5 + 1):2 = 1,4$ (bel qismidagi vitochka, bu qiymatni vertikal chiziqdan ikki tomonga qo'yiladi).

4.3.3. Old bo'lak chizmasi (25-rasm)

42. $Bn_2 Bn_6 = Bn Bn_4 = 7 \text{ sm}$ (bo'yin o'mizi kengligi).
43. $Bn_2 Bn_7 = Bn YaA:2-1 = 18:2-1 = 8 \text{ sm}$ (bo'yin o'mizi chuqurligi).
44. Bn_6, Bn_7 nuqtalar tutashtirilib, ularning o'rta qismi topiladi, perpendikulyar o'tkazilib, 1,5 sm qiymati qo'yiladi.
45. $Bn_6, 1,5 \text{ sm}, Bn_7$ nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
46. $K_1 K_5 = KM + 0,5 = 9,5 + 0,5 = 10 \text{ sm}$ (ko'krak markazi).
47. Bn_6, K_5 nuqtalar chizg'ich bilan tutashtiriladi.
48. $Bn_6 K_{51} = 27 \text{ sm}$ (ko'krak balandligi K_{51} nuqta ko'krak chizig'ida yetishi, undan pastda yoki yuqorida bo'lishi mumkin).



25-rasm. Ayollar ovropacha ko'ylagining chizmasi

49. $Bn_6Bn_8 = (KYaA_{11} - KYaA_1) \times 2 + 2 = (48 - 44,5) \times 2 + 2 = 9$ sm
(ko'krak vitochkasi miqdori)

50. Bn_8 nuqta K_{51} nuqta bilan chizg'ich yordamida tutashtiriladi.

51. $Bn_8K_{51} = Bn_6K_{51}$ (vitochka tomonlari).

52. $Bl_1Ye_2 = OlbU + 1 = 44 + 1 = 45$ sm (yelka nuqtasi, bu nuqta Bl Ye_2 va Bn Ye qiyatlarning keseshgan nuqtasidir).

53. $Bn_8Ye_2^8 = YelK = 13$ sm (yelka nuqtasi).

54. Ye_2 va Bn_8 nuqtalar chizg'ich bilan tutashtiriladi.

55. Yelka chizig'i bilan old bo'lak kengligi chizig'i kesishgan nuqtalarni Ye_3 bilan belgilanadi

56. $K_3L_1 = K_3E_3 : 4$ (chizmadan olinadi).

57. E_2 , L_1 nuqtalar chizg'ich bilan tutashtiriladi va 2 ga bo'linib, ichkariga perpendikulyar o'tkaziladi, unga $0,5 - 1$ sm qiymat qo'yiladi.

58. $K_2O_1 = 0,2xK_2K_3 = 0,2x12 = 2,4$ sm (bissektrissa).

59. E_2 , $0,5-1$ sm, L_1 , O_1 , K_4 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

60. $T_2m_2 = T_2m_1 = 1,7$ sm (yon tomon vitochkasi).

61. $bb_2 = bb_1 = 2$ sm (bo'ksadagi kengayish).

62. $E_2E_5 = bb_2 = 2$ sm (etak qismi kengayishi).

63. m_2 , b_2 , E_5 nuqtalar xuddi ort bo'lak yon tomoniga o'xshab tutashtiriladi va uzunliklari tenglashtiriladi, hosil bo'lgan nuqta E_1 nuqta bilan chizg'ich yordamida birlashtiriladi.

64. K_5 nuqtadan bo'ksa chizig'igacha vertikal chiziq o'tkaziladi.

65. $(2/5 \text{ vitochka miqdori}-1):2 = (2/5 \times 8,5-1):2 = 1,2$ sm (bel qismidagi vitochka, qiymatni vertikal chiziqdan ikki tomonga qo'yiladi).

4.4. O'tkazma yengni loyihalash (26-rasm)

To'g'ri burchak chizib unga A nuqta qo'yiladi.

1. $AE = YeU = 58$ sm (yeng uzunligi).

2. $AA_1 = YelA + Qel = 30 + 5 = 35$ sm (yeng kengligi).

3. $AA_1EE_1 =$ to'g'ri to'rtburchak chiziladi.

4. Yeng boshi balandligining o'rtacha uzunligini topish uchun asos chizmasidan (25-rasm) Ye_1 va Ye_2 nuqtalar tutashtirilib, uni 2 ga bo'linadi, hosil bo'lgan x nuqta K_4 nuqta bilan birlashtiriladi.

5. $AO = K_4x - (1,5 - 2,5) = 17 - (1,5 - 2,5) = 15$ sm (yeng boshi balandligi).

5. $AT = TU = 35$ sm (tirsakkacha bo'lgan uzunlik).

6. $Aa = AA_1 : 2 = 35 : 2 = 17,5$ sm (eng o'rta chizig'i).

7. $aa_1 = aA_1 : 2$ (yordamchi nuqta).

8. $aa_2 = Aa : 2$ (yordamchi nuqta).

9. a, a_1 , a_2 nuqtalardan pastga vertikal chiziq o'tkaziladi.

10. O, O_1 nuqtalar a nuqta bilan tutashtiriladi, O_2 , O_3 nuqtalar hosil bo'ladi.

11. O_2O_1 chiziqning o'rtasidan pastga perpendikulyar tushirib 2,5 sm qo'yiladi.


12. aO₂ chiziqning o'rtasidan yuqoriga perpendikulyar o'tkazib, 1,5 sm qiymat qo'yiladi.

13. aO₃ chiziqning o'rtasidan yuqoriga perpendikulyar o'tkazib, 2 sm qiymat qo'yiladi.

14. O₃ nuqtadan yuqoriga 1,5 sm qiymat qo'yiladi.

15. O₃O chiziq 3 ga bo'linib, pastki bir qismida perpendikulyar o'tkaziladi va 0,7-1 sm qiymat qo'yiladi.

16. O, 0,7-1 sm, 1,5 sm, 2 sm, a, 1,5 sm, O₂, 2,5 sm va O nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi, ya'ni yeng boshi egri chizig'i hosil bo'ladi.



26-rasm. O'tkazma yeng chizmasi

17. $E_4E_5 = 1$ sm (old etak qismining ko'tarilishi).
18. $E_3E_6 = 1$ sm (orqa etak qismining tushishi).
19. E, E_6, E_2, E_5, E_1 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

4.4.1. Uzun tor yengning chizmasi (26-rasm)

20. $E_7E_8 = BA + (4-6) = 17 + (4-6) = 22$ sm (etak qismi kengligi).

21. $E_2E_7 = E_2E_8 = E_7E_8 : 2 = 22 : 2 = 11$ sm (etak qismi kengligining yarmi, E_1 va E_2 nuqtalar mos ravishda O_1 va O nuqtalar bilan tutashtiriladi).

22. OE_8 chiziq bilan TT_1 chiziq kesishgan nuqtani v bilan belgilanadi.

23. $v_1v_2 = OE_8 - O_1E_7$ / (vitochka miqdori, chizmadan olinadi).

24. $vv = vv_2 = v_1v_2 : 2$ (vitochkani taqsimlash).

25. $v_1v_3 = v_2v_3$ (vitochka tomonlari).

4.5. Ayollar bluzkasi

Ayollar bluzkasi yelkali kiyimlar turiga kirib, bluzkani loyihalash xuddi ko'yakni loyihalash usulidek bajariladi, lekin buyum uzunligida farqi bo'ladi. Agar bluzkani yubka ustidan chiqarib kiyilsa, uning beldan uzunligi 10-15 sm yoki bo'ksadan bir oz uzunroq bo'lishi, bluzkani yubkaning ichiga kirgizib kiyiladigan bo'lsa, bo'ksa chizig'idan 5-7 sm uzoqlikda bluzka uzunligi olinadi.




27-rasm. Ayollar bluzkalari

Bluzka yuqorigacha taqiladigan yoki bortlari qaytarilgan bo'lishi mumkin (27-rasm).

Bluzkani bel vitochkalarisiz to'g'ri, ya'ni ko'krak chizig'i bilan bo'ksa chizig'ini birlashtirib to'g'ri va vitochkali qilib loyihalash mumkin. Bluzkani loyihalashda uning taqilmasiga e'tibor berish kerak. Bluzka taqilmasida adip pi yaxlit bo'lsa, avval uning o'tim haqi 2-3 sm, so'ngra adip haqi $2,5 \times 2 + 1,5 = 6,5$ sm qo'yiladi (28-rasm, a).

Bluzka taqilmasida adip alohida bo'lsa, o'tim haqi 2-3 sm, so'ngra bort adipini tikish uchun chok haqi 0,5 sm qo'shiladi, ya'ni $2,5 + 0,5 = 3$ sm (28-rasm, b). Bluzka taqilmasida yaxlit plankali ishlatsila, u holda o'tim haqi 2 barobar ko'p olinadi, ya'ni $2,5 \times 2 + 2 = 7$ sm (28-rasm, v).



28-rasm. Bluzkalarda taqilma turlari

4.6. Yaxlit yengli ko'yylaklarni loyihalash asoslari

Yaxlit yengli ko'yylaklarni loyihalashning o'ziga xos xususiyati shundaki, asos chizmasida yengni yeng o'miziga o'tkaziladigan chiziqlar bo'lmaydi, ko'krak chiziqlari yeng o'mizida bir oz tushgan va ort bo'lak yelka chizig'i bir oz ko'tarilgan bo'ladi. Bunday kiyimlarga: yaxlit kalta yengli, yaxlit uzun yengli old va ort bo'laklar bilan bichilgan lif(kiyimning beldan yuqori yengsiz qismi)lar, yenglar bo'yin

o'mizidan boshlanadigan liflar , ya'ni reglan yengli kiyimlar kiradi.

4.6.1. Yaxlit kalta yengli lifni loyihalash (29-rasm)

Bu ko'yakni loyihalash uchun bizga o'tkazma yengli ko'yakning asos chizmasi kerak bo'ladi.

Ort bo'lak chizmasi (30-rasm, a):


1. Asosiy chizmaning ort bo'lagini qog'ozga tushirib chiziladi.
2. Ko'krak chizig'i, ort kengligi chizig'i, bel chizig'i, yon chiziqlar tushirilib Bn_4 , Ye K_4 , Ye, K_2 nuqtalar belgilanadi.
3. Bn_4 nuqtadan yuqoriga' (Bn_{41}) va vitochka tomonlari uchlaridan 0,5 sm, Ye, nuqta esa 1 sm yuqoriga ko'tariladi.
4. Bn_{41} , 0,5 sm, Ye_{11} nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi va davom ettiriladi.
5. $Ye_{11} Ye_{12} = 4-6$ sm (yeng uzunligi).
6. $K_4 K_{41} = 1-1,5$ sm (yon chiziqning ko'tarilishi).
7. $Ye K_2 : 3$ (yordamchi nuqtalar).
8. $K_{21} K_{22} = 3-3,5$ sm (eng o'mizining kengayishi).
9. Ye_{12}, K_{22}, K_{41} nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
10. Yelka chizig'i yaxshi turishi uchun ayrim hollarda Ye_{12} nuqtadan pastga 1-1,5 sm tushirish mumkin.



29-rasm. Yaxlit kalta yengli bluzka

4.6.2. Old bo'lak chizmasi (30 rasm, b)

Asosiy chizmaning old bo'lagini qog'ozga tushirib olinadi.




30-rasm. Yaxlit kalta yengli lif chizmasi

1. Ko'krak chizig'i, old kengligi chizig'i, bel, yon chiziqlar tushirilib Ye_3 , K_3 , Ye_2 , K_4 nuqtalar belgilanadi va Ye_2 nuqtadan chap tomonga davom ettiriladi.

2. Ye_2 - Ye_{21} = 4-6 sm (yeng uzunligi).
3. K_4 - K_{41} = 1-1,5 sm (yon chiziqning ko'tarilishi).
4. Ye_3 - K_3 ; 4 (yordamchi nuqta).
5. K_{31} - K_{32} = 1,5-2 sm.
6. Ye_{21} , K_{32} , K_{41} nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
7. Yelka chizig'i yaxshi turishi uchun ayrim hollarda Ye_{21} nuqtadan pastga 1-1,5 sm tushirish mumkin.

4.6.3. Uzun yenglari old va ort bo'laklari bilan yaxlit bichiladigan ko'yylaklarni loyihalash

Yenglari old va ort bo'laklari bilan yaxlit bichiladigan ko'yylakni loyihalash uchun o'tkazma yengli xuddi shunday bichimli ko'yylak loyihasi asosini o'zgartirib chiziladi. Ko'yylakning ko'krak qismi bo'shroq turishi bunday turdag'i ko'yylaklarga xarakterlidir (31-rasm).



31-rasm. Yaxlit uzun yengli lif chizmasi

4.6.4. Ort bo'lak chizmasi (31-rasm, a)

1. Asosiy chizmaning ort bo'lagini qog'ozga tushirib olinadi.
2. Ko'krak chizig'i, ort kengligi chizig'i, bel chizig'i, yon chizig'i tushurilib, Bn_4 , Ye , K_4 , Bl_2 , Bl nuqtalar belgilab chiqiladi.
3. $Bl_2 Bl_3 = 2-3$ sm (yon tomondan tushishi).
4. $Bl_1 Bl_4 = 1$ sm (ort o'rta chizig'idan tushishi).
5. Bl_1 , Bl_3 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.
6. $Ye Ye_1 = 3-4$ sm (yelka nuqtasining ko'tarilishi).
7. Bn_4 , Ye_1 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi va davom ettiriladi.
8. $Bn_4 E = Ye K + Ye U + 1 = 13 + 58 + 1 = 73$ sm (yelka va yeng uzunliklari).
9. E nuqtadan perpendikulyar tushiriladi.
10. $EE_1 = (BA + QB) : 2 = (17 + 5) : 2 = 11$ sm (etak qismi kengligi).
11. E_1 , Bl_3 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi va o'rta nuqtasi aniqlanib, yuqoriga perpendikulyar chiqariladi.
12. $OO_1 = 5-10$ sm (yeng osti egriligi).

13. E_1, O_1, Bl_3 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
14. Yengning etak qismi bir oz turtib chiqqan egri chiziq bilan chiziladi.

4.6.5. Old bo'lak chizmasi (31-rasm, b)

15. Asosiy chizmaning old bo'lagini qog'ozga tushirib olinadi.
16. Ko'krak chizig'i, old kengligi chizig'i, bel, yon chiziqlari tushirilib, $Bn_6, Ye_3, K_4, Bl_2, Bl_1$ nuqtalar belgilab chiqiladi.
17. $Bl_2 Bl_3 = 2-3$ sm (yon tomonning tushishi).
18. $Bl_1 Bl_{11} = KYaA_{11} - KYaA_1 = 3$ sm (old bo'lak o'rtasining tushishi).
19. Bl_3, Bl_{11} nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.
20. $Ye_3 Ye_4 = 3-5$ sm (yelka nuqtasining ko'tarilishi).
21. Bn_6, Ye_4 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi va davom ettiriladi.
22. $Bn_6 E_2 = YeU + YelK = 58 + 13 = 71$ sm (yelka va yeng uzunliklari).
23. E_2 nuqtadan perpendikulyar tushiriladi.
24. $E_2 E_3 = EE_1 = 11$ sm (etak qismi kengligi).
25. Yengning qolgan qismlari huddi ort bo'lakdagiday yakunlanadi.
26. Yengning etak qismi ichkari kiritilgan egri chiziq bilan chiziladi.

4.7. Reglan yengli kiyimlarni loyihalash

Reglan yengli kiyimlar XIX asrning oxiriga kelib Yevropa kiyimlarida ko'rina boshladi. Angliyaning generali Lord Reglan o'z armiyasi askarlarining kiyimlarida shu yengni qo'llagani uchun yeng uning nomi bilan ataladigan bo'ldi. Avval erkaklar kiyimida ko'p uchraydigan yeng keyinchalik ayollar kiyimiga ham tez kirib keldi.

Reglan bichimning o'ziga xos jihat shuki, uning yeng o'mizi va yeng boshining ko'rinishi (shakli) boshqa kiyimlarnikiga o'xshamaydi: yeng boshi va yeng o'mizining yuqori uchining oldi va orqasi yoqa o'miziga taqalgan bo'ladi. Reglan bichimning hamma variantlarida o'miz chizig'inining shakli o'zgarib turadi.

Reglan bichimining quyidagi variantlari mavjud:


1. Tipik reglan – yeng o'mizi old va orqa yoqa o'mizining eng yuqorigi nuqtasidan 1,5-4 sm pastroq boshlanadi. Reglan chizig'i o'miz boshlangan nuqtasidan qo'ltiq chuqurligi burchaklarigacha ravon egri chiziq tarzida davom etadi (32-rasm, a).

2. N o l reglan – oldi va ort yeng o'mizlari yoqa o'mizining eng baland Bn_4 , Bn_5 nuqtalaridan boshlanadi (32-rasm, b).

3. P o g o n reglan – odatdagи reglandan farqi shuki, yeng o'mizi chizig'i yelka chizig'idan 4-8 sm masofada unga nisbatan parallel yo'nalgan bo'ladi va qo'lning gavdaga tutashgan (yelka) bo'g'inida ravon (oval) egrи chiziq ko'rinishida bo'ladi va qo'lting chuqurligi burchaklariga borib taqaladi (32-rasm, v).

4. Ya r i m reglan – yeng o'mizi chizig'i yelka chizig'inинг qoq o'rtaсиda to'xtaydi (32-rasm, g).

Reglan bichimli kiyimlarning chizmalarini tayyorlashda yengni o'tkazib tikiladigan kiyim detallarining chizmalariga asoslanadi.



32-rasm. Reglan bichimning turlari

4.7.1. Ort bo'lak chizmasi (33-rasm, a)

1. O'tkazma yengli ko'yak asos chizmasining orqa bo'lagini qog'ozga tushirib olinadi.

2. Ko'krak chizig'i, ort kengligi chizig'i, bel, yon chiziqlari tushirilib, Bn_4 , Bn_5 , Ye_1 , K_4 , K_2 nuqtalar belgilab chiqiladi.


3. Bn_4 nuqtadan yuqoriga (Bn_{41}) va vitochka tomonlari uchlaridan 0,5-0,7 sm yuqoriga ko'tariladi.

4. $Ye_1 Ye_{11} = 1-1,5$ sm (yelka nuqtasining ko'tarilishi).

5. $Bn_{41}, 0,5-0,7$ sm, Ye_{11} nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.

6. $K_2 K_{21} = K_4 K_{41} = 1-3$ sm (yeng o'mizining tushishi).

7. $Bn_5 R = Bn_5 B_{41}:2$ (Reglan yeng o'mizi chizig'inинг boshlanish nuqtasi).



33-rasm. Reglan yengli lif chizmasi

8. R va K_{41} nuqtalar tutashtiriladi va bu chiziq bilan ort kengligi chizig'ining kesishgan nuqtasiga K_5 qo'yiladi.

9. RK₅ chiziq ikkiga bo'linadi va o'rtasidan yuqoriga perpendikulyarda 1-1,5 sm qo'yiladi.

10. K_5K_{41} chiziq ham ikkiga bo'linib, pastga perpendikulyarda 2-2,5 sm qo'yiladi.

11. R, 1-1,5 sm, K_5 , 2-2,5 sm, K_{41} nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

4.7.2. Old bo'lak chizmasi (33-rasm, b)

1. Asosiy chizmaning old bo'lagini qog'ozga tushirib olinadi.
2. Ko'krak chizig'i, old kengligi chizig'i, bel, yon chiziqlar tushirilib, Bn_6 , Bn_7 , Ye_2 , K_3 , L_1 , K_4 , K_{51} , Bn_8 nuqtalar belgilab chiqiladi.
3. $K_3K_{31} = K_4K_{41} = 1-3$ sm (yeng o'mizining tushishi).
4. $Bn_6Bn_{61} = Bn_6Bn_7 : 3$ (Reglan yeng o'mizi chizig'ining boshlanish nuqtasi).

5. B_{n_6} nuqtani K_{41} nuqta bilan chizg'ichda tutashtiriladi.
6. O'ng tomon vitochka chizig'i bilan $K_{41}B_{n_6}$ chizig'inинг kesishgan nuqtasi v bilan belgilanadi.
7. $K_{51}v = K_{51}v_1$ (vitochka tomonlari tenglashtiriladi).
8. v_1 nuqta L_1 nuqta bilan, L_1 ni K_{41} nuqta bilan chizg'ich yordamida tutashtiriladi.
9. $v_1 L_1$ chiziq ikkiga bo'linadi va yuqoriga perpendikulyarda 0,5 sm qo'yiladi.
10. $L_1 K_{41}$ chiziq ikkiga bo'linadi va pastga perpendikulyarda 2-2,5 sm qo'yiladi.
11. Yeng o'mizini ravon egri chiziq bilan v_1 , 0,5 sm, L_1 , 2-2,5 sm, K_{41} nuqtalardan o'tib birlashtiriladi.

4.7.3. Ort yeng chizmasi (33-rasm, a)

1. 25-rasm asosiy chizmada $K_4x = 19$ sm, yeng boshi balandligi o'lchanadi. $K_4x - (2 - 2,5) = 19 - (2 \div 2,5) = 17$ sm.
2. $r = 17$ sm (Ye_{11} nuqtadan past tomonga yoy chiziladi).
3. $K_{21}O = 1$ sm (yordamchi nuqta).
4. O'nuqtani yoy bilan tutashtiriladi va chap tomonga davom ettiriladi.
5. RK_s radiusda chap tomonga yoy chiziladi.
6. $K_5K_6 = 1-2$ sm.
7. K_5K_{41} egri chizig'i kalka qog'ozga ko'chiriladi, uni ag'darib K_5 nuqta K_6 nuqtaga, K_{41} nuqta yoyning davomiga tushirib chiziladi va K_{42} nuqta bilan belgilanadi, hosil bo'lgan K_6K_{42} egri chiziq yengning pasti qismi egriligi hisoblanadi.
8. Yeng egriligi R , 1-1,5 cm, K_6 , K_{42} nuqtalar orqali ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
9. $K_{42}K_{43} = (YelA+Qyel):2+1 = [30+(5 \div 12)]:2+1 = 36:2+1 = 19$ sm (Yeng kengligi).
10. K_{43} nuqta Ye_{11} nuqta bilan birlashtiriladi va davom ettiriladi.
11. $K_{43}Ye_{11}$ chiziq 2 ga bo'linadi, yuqoriga perpendikulyar chiqarib 0,3-1 sm qo'yiladi.
12. $Ye_{11}E = YeU = 58$ sm (yeng uzunligi).
13. E nuqtadan $Ye_{11}E$ chiziqqa perpendikulyar o'tkaziladi.

14. $EE_1 = K_{42}K_{43} - (3 \div 6) = 14 \text{ sm}$ (etak qismi kengligi).

15. EE_1 chiziq o'rtasidan pastga o'tkazilgan perpendikulyarda 1 sm qo'yilib, E va E_1 nuqtalar turtib chiqqan egri chiziq bilan tutashtiriladi.

16. E_1 va K_{42} nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.

4.7.4. Old yeng chizmasi (33-rasm, b)

1. $r = 17 \text{ sm}$ (Ye₂ nuqtadan past tomonga yoy chiziladi).

2. $K_{31}O_1 = 1 \text{ sm}$ (yordamchi nuqta).

3. O_1 nuqtani yoy bilan tutashtiriladi va o'ng tomonga davom ettiriladi.

4. $v_1 L_1$ radiusda o'ng tomonga yoy chiziladi.

5. $L_1 L_2 = 0,7-1,5 \text{ sm}$.

6. $L_1 K_{41}$ egri chiziq kalka qog'ozga ko'chiriladi, uni ag'darib L_1 nuqta L_2 nuqtaga, K_{41} nuqta yoyning davomiga tushirib chiziladi va K_{42} nuqta bilan belgilanadi, hosil bo'lган $L_2 K_{42}$ egri chiziq yengning pastki qismi egriligi hisoblanadi.

7. Yeng egriligi v_1 , 0,5 sm, $L_2 K_{42}$ nuqtalar orqali ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

8. $K_{42}K_{43} = (YelA+Qyel):2-1 = [30+(5-12)]:2-1 = 36:2-1 = 17 \text{ sm}$ (yeng kengligi).

9. K_{43} nuqta Ye₂ nuqta bilan birlashtiriladi va davom ettiriladi.

10. $K_{43}Ye_2$ chiziq o'rtasidan yuqoriga perpendikulyar o'tkazilib, unda 0,3-1 sm qiymat qo'yiladi.

11. $Ye_2E = YeU = 58 \text{ sm}$ (yeng uzunligi).

12. E nuqtadan Ye₂E chiziqa perpendikulyar o'tkaziladi.

13. $EE_1 = K_{42}K_{43} - (3 \div 6) = 12 \text{ sm}$ (etak qismi kengligi).

14. EE_1 chiziq o'rtasidan yuqoriga o'tkazilgan perpendikulyarda 0,5 sm qo'yib, E va E_1 nuqtalar turtib chiqqan egri chiziq bilan tutashtiriladi.

15. E_1 va K_{42} nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.

16. Old va ort bo'lak yenglaridagi $E_1 K_{42}$ chiziqlar teng bo'lishi kerak. (Ayrim hollarda ort bo'lakda $E_1 K_{42}$ chiziq 1-1,5 sm ortiqcha bo'lishi mumkin, bu qiymat tikish davrida tirsak uchun yedirilib yuboriladi).

4.8. Yoqalarni loyihalash

Kiyimning tashqi ko‘rinishida yoqalar muhim rol o‘ynaydi va ko‘pincha moda yo‘nalishini o‘zida aks ettiradi. Yoqalarning turli xil shakllari bo‘ladi. Bulardan eng xarakterlilar: tik yoqa, ko‘tarmali-qaytarma yoqa, yassi yoqalar. Bo‘yin o‘miziga o‘tkazilishiga va loyihalanishiga ko‘ra yoqalarning o‘tkazma va old bo‘lak bilan yaxlit yoqa turlari ko‘p uchraydi. Yoqalarni bo‘yinga yopishib turish darajasiga qarab: bo‘yinga yopishib turadigan va bo‘yindan ancha uzoqda yetuvchi yoqalar turiga bo‘linadi.

Taqilmasi yuqorigacha bo‘lgan kiyim yoqalari yoki qaytarma bortli yoqa turlari ham uchraydi.


Yoqani loyihalashda shuni e’tiborga olish kerakki, yoqani bo‘yin o‘miziga o‘tkaziladigan chiziq qancha to‘g‘ri bo‘lsa, yoqanining tikligi shuncha bo‘ladi.

4.8.1. O‘tkazma yoqalar chizmasi

Taqilmasi yuqorigacha bo‘lgan ko‘tarmali qaytarma yoqa chizmasi (34-rasm, a)

$$BnYaA = 18 \text{ sm}$$

1. To‘g‘ri burchak chizib unga A nuqta qo‘yiladi.
2. $AA_1 = BnYaA + 0,5 = 18 + 0,5 = 18,5 \text{ sm}$ (yoqa uzunligi).
3. $Aa = 2-4 \text{ sm}$ (yoqani bo‘yin o‘miziga o‘tkaziladigan nuqta).
4. $aA_1 : 3$ (yordamchi nuqtalar, ularni I va II bilan belgilanadi).
5. I nuqtadan yuqoriga perpendikulyarda $0,5 - 1,0 \text{ sm}$ qo‘yiladi.
6. II A₁ chiziq o‘rtasidan pastga perpendikulyarda $0,2 - 0,4 \text{ sm}$ qo‘yiladi.
7. A₁, 0,2 - 0,4 sm, II, 0,5 - 1,0 sm, a nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi (bo‘yin o‘miziga o‘tkaziladigan chiziq).
8. A₁ a chiziqqa A₁V₁ perpendikulyar o‘tkaziladi.
9. $AV = A_1V_1 = 8-10 \text{ sm}$ (yoqa kengligi)
10. V₁, V₂ nuqtalar birlashtiriladi va 3-6 smga davom ettiriladi. V₂ nuqta bilan belgilanadi.
11. VV₁ chiziq o‘rtasidan yuqoriga o‘tkazilgan perpendikulyarda 1-1,5 sm qo‘yiladi.
12. V₁, 1-1,5 sm, V₂ ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
13. V₂, A₁ nuqtalar chizg‘ich yordamida birlashtiriladi.



34-Rasm. O'tkazma yoqalar chizmasi

4.8.2. Yarim qaytarma yoqa chizmasi (34-rasm, b)

1. To'g'ri burchak chizilib, A nuqta bilan belgilanadi.
2. $AA_1 = BnYaA + 0,5 = 18 \text{ sm}$ (yoqa uzunligi).
3. $Aa = 5-7 \text{ sm}$ (yoqani bo'yin o'miziga ularadigan nuqta).
4. $aA_1 : 3$ (yordamchi nuqtalar, ularni I va II bilan belgilanadi).
5. I nuqtadan yuqoriga perpendikulyarda $0,7 - 1,0 \text{ sm}$ qo'yiladi.
6. II A_1 chiziq o'rtasidan pastga perpendikulyarda $0,4 - 0,5 \text{ sm}$ qo'yiladi.
7. A_1 , $0,4 - 0,5 \text{ sm}$, II, $0,7 - 1,0 \text{ sm}$, a nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi (bo'yin o'miziga o'tkaziladigan chiziq).
8. A_1 a chiziqqa A nuqtadan yuqoriga perpendikulyar o'tkaziladi.
9. $aV = A_1 V_1 = 8-10 \text{ sm}$ (yoqa kengligi)
10. V, V_1 nuqtalar birlashtiriladi va 2-4 sm ga davom ettiriladi. V_2 nuqta bilan belgilanadi.
11. VV_1 chiziq o'rtasidan yuqoriga o'tkazilgan perpendikulyarda $2-2,5 \text{ sm}$ qo'yiladi.
12. $V, 2-2,5 \text{ sm}$, V_2 ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
13. V_2, A_1 nuqtalar chizg'ich yordamida birlashtiriladi.

4.8.3. Tik yoqa (34-rasm, v)

1. To‘g‘ri burchak chizilib, A nuqta bilan belgilanadi.
2. $AA_1 = BnYaA + 0,5 = 18,5 \text{ sm}$ (yoqa uzunligi).
3. Aa = model bo‘yicha = 4 sm (yoqa kengligi).
4. $AA_1 aa_1$ = to‘rt burchak qilib birlashtiriladi.
5. $A_1 O = AA_1 : 3 = 18,5 : 3 = 6,1 \text{ sm}$ (yordamchi nuqta).
6. $A_1 A_2 = 1,5 \text{ sm}$ (bo‘yin chuqurchasi nuqtasi).
7. $OA_2 A_3 = 90^\circ$ burchak yasaladi.
8. $A_2 A_3 = 4 \text{ sm}$ (yoqa kengligi).
9. A, O, A₂ nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
10. aA₃ chiziq AO A₂ chiziqqa parallel chiziladi.
11. A₁A₂ = 5 sm gacha bo‘lishi mumkin, u holda yoqa bo‘yinga yaxshigina yopishib turadi.

4.8.4. Tik qaytarma yoqa (34-rasm, g)

1. To‘g‘ri burchak chizilib, A nuqta bilan belgilanadi.
2. $AA_1 = BnYaA + 0,5 = 18 \text{ sm}$ (yoqa uzunligi).
3. A₁ nuqtadan AA₁ chiziqqa o‘tkazilgan perpendikulyarda 2-4 sm qo‘yiladi, A₁A₂ = 2-4 sm.
4. A nuqta A₂ nuqta bilan chizg‘ich yordamida birlashtiriladi va 2-2,5 sm ga davom ettiriladi.
5. A₂A₃ = 2-2,5 sm (o‘tim haqi).
6. AA₂ chiziq o‘rtasidan pastga o‘tkazilgan perpendikulyarda 1 sm qo‘yiladi.
7. A₃A₄ = 0,5 sm (yordamchi nuqta).
8. A, 1 sm, A₂, A₄ nuqtalar ravon egri chiziq bilan birlashtiriladi.
9. Aa = 3-4 sm (tik yoqa kengligi).
10. AA₂ chiziqqa A₂a₁ perpendikulyar o‘tkazilib, unga 3-3,5 sm qiymat qo‘yiladi.
11. a, a₁ nuqtalar chizg‘ich yordamida birlashtiriladi, o‘rtasini aniqlanib, pastga o‘tkazilgan perpendikulyarda 1 sm qo‘yiladi.
12. a, 1 sm, a₁ nuqtalar ravon egri chiziq bilan, a₁, 0,5 sm esa ravon aylana chiziq bilan birlashtiriladi.
13. a₁ nuqtadan Aa yoqaning o‘ta chizig‘iga perpendikulyar chiziq o‘tkaziladi va ularning kesishgan nuqtasiga v nuqta qo‘yiladi.

14. $av = vv_1$ (yordamchi nuqta).
15. v_1, a_1 nuqtalar chizg'ich yordamida birlashtiriladi, o'rtasidan yuqoriga o'tkazilgan perpendikulyarda 1 sm qo'yiladi.
16. $v_1, 1 \text{ sm}, a_1$ nuqtalar ravon egri chiziq bilan birlashtiriladi.
17. $v_1 v_2 = 4-5 \text{ sm}$ (yoqa kengligi).
18. A_1 nuqtadan o'tgan vertikal chiziq bilan v_2 nuqtadan chiqqan gorizontal chiziqlarning kesishgan nuqtasiga v_3 qo'yiladi.
19. $v_3 v_4 = 1-5 \text{ sm}$ (yoqa uchi).
20. $a_1 v_5 = 9-14 \text{ sm}$ (yoqa uchi).
21. $v_2 v_3$ chiziq 3 ga bo'linib, bir qismi v_5 nuqta bilan ravon egri chiziqda birlashtiriladi.

4.8.5. Yassi yotadigan yoqa chizmasi (34-rasm, d)

Yassi yotadigan yoqa chizmasini chizish uchun old va ort bo'laklar bo'yin o'yindisi aniq belgilangan bo'lishi kerak. Buning uchun old va ort bo'laklarni shunday joylashtirish kerakki, bunda old va ort bo'laklarning bo'yin assosi nuqtalari (Bn_4, Bn_6) ustma-ust tushsin, yelka nuqtalari (Ye_1, Ye_2) esa bir-biriga 0,5-0,7 sm kirib tursin.


1. $Bn_5 V = 6-7 \text{ sm}$ (yoqa kengligi).
2. Agar yoqada ozgina tiklik kerak bo'lsa, u holda yoqa o'yindisini bo'yin o'mizidan bir oz uzoqlashtirish kerak, ya'ni $Bn_5 V_1 = 1-1,5 \text{ sm}, V, V_1 = 6-7 \text{ sm}$.
3. Yoqaning boshqa qismidagi kengliklari shu qiymatda olinadi.
4. Yoqaning old qismidagi chiziqlariga ixtiyoriy shakllar beriladi.

4.9. Yaxlit yoqalar chizmasi

Yaxlit yoqalarning ostki qismi old bo'lak bilan birgalikda, ustki yoqa esa bort adipi bilan birgalikda bichiladi. Yaxlit yoqalar ham o'tkazma yoqalarga o'xshab: tik yoqa, yarim qaytarma va qaytarmali yoqa bo'lishi mumkin. Yaxlit yoqalar old bo'lak asos chizmasida, yaxlit tik yoqa esa old va ort bo'lak asos chizmalarida loyihalanadi.

4.9.1. Yaxlit tik yoqaning ort bo'lakdagi chizmasi (35-rasm)

1. Ort bo'lak andozasi qog'ozga tushirib chizib olinadi va unda Bn_4, Bn_5 nuqtalar belgilab olinadi.



35-rasm. Yaxlit tik yoqa chizmasi


2. Ort bo'lakning o'rta chizig'i yuqoriga davom ettiriladi. $Bn_5Bn_{51} = 3 - 4 \text{ sm}$ (yoqa tikligi).
3. Bn_4 nuqtadan yuqoriga vertikal chiziq o'tkaziladi. $Bn_4Bn_{41} = Bn_5Bn_{51} - 1 = (3-4)-1 = 2-3 \text{ sm}$.
4. Bn_{41} nuqtadan chap tomonga 1 sm qo'yiladi va Bn_{42} nuqta bilan belgilanadi.
5. $Bn_4Bn_{43} = 1 \text{ sm}$ (yordamchi nuqta).
6. Bn_{42} nuqta va Bn_{43} nuqtalar egri chiziq bilan tutashtirilib, yelka vitochkasiga davom ettiriladi.

4.9.2. Old bo'lakdagi yoqa chizmasi (35-rasm, b)

7. Yelka vitochkasi ko'chirilgan old bo'lak andozasini qog'ozga tushirib chizib olinadi va unda Bn_6 , Bn_7 nuqtalar belgilab olinadi.
8. $Bn_6Bn_{61} = 2-3 \text{ sm}$ (gorizontal chiziqdagi yordamchi nuqta belilanadi). Bn_{61} nuqtadan yuqoriga perpendikulyar o'tkaziladi.
9. $Bn_{61}Bn_{62} = (Bn_6Bn_{61}:2) = (2-3):2 = 1-1,5 \text{ sm}$.
10. Bn_{62} nuqta bilan Bn_6 nuqtalar egri chiziq bilan tutashtiriladi.
11. Bn_{52} nuqta bilan Bn_7 nuqta ham egri chiziq bilan tutashtiriladi (agar taqilma o'timsiz bo'lsa).
12. $Bn_7Bn_{71} = 2-3 \text{ sm}$ (o'tim haqi, agar taqilma o'timli bo'lsa).

4.9.3. Yaxlit ko'tarmalı qaytarma yoqa (36-rasm)

- Yelka vitochkasi yeng o'miziga ko'chirilgan old bo'lak andozasi qog'ozga tushirib chizib olinadi va unda Bn_6 , Bn_7 nuqtalar belgilanadi.
- $Bn_6, Bn_8 = 15-20$ sm (1-chi petlya o'rni).
- Bn_8, Bn_6 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi va yuqoriga davom ettiriladi.
- $Bn_6, Bn_9 = 2,5$ sm (o'tim haqi).
- $Bn_9, Bn_{91} = 2-5$ sm (yoqaning uchi).
- O'tim chizig'i yoqanining uchi 2,5 sm nuqtalar orqali ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi va 1-chi petlya o'midan past tomoniga tekis chiziladi.
- $Bn_6, Bn_{61} = BnYaA:3+1 = 18:3+1 = 7$ sm.



36-rasm. Yaxlit ko'tarmalı-qaytarma yoqa chizmasi

- Bn_6, Bn_{61} chiziqqa Bn_{61} nuqtadan perpendikulyar o'tkazilib, chap tomoniga 1,5 sm (ayrim hollarda ko'tarmasi ko'p bo'lishi uchun 2-3 sm) qo'yiladi va Bn_{63} nuqta bilan belgilanadi.
- Bn_{63} bilan Bn_6 nuqta bir oz egri chiziq bilan tutashtiriladi.
- $Bn_{61}, Bn_{62} = 8$ sm (yoqa kengligi).
- Bn_{62} nuqtadan Bn_{61}, Bn_8 chiziqqa paralel o'tkazilib, yuqoriga davom ettiriladi va unda 2 sm qo'yiladi.
- Bn_{63} va 2 sm nuqtalar tutashtiriladi va yuqoriga davom ettiriladi.
- $Bn_{61}, Bn_3 = 6-12$ sm (yoqa kengligi).
- Yoqanining uchi 36-rasmdagidek chiziladi.

4.10. Yubkalarni loyihalash asoslari

Belli kiyimlarga yubkalar, shimplar, shortik, lozim, yubka-shimplar kiradi. Yubkalar bichimiga ko'ra: to'g'ri bichimli, etagiga kengaygan bo'lishi mumkin. To'g'ri bichimli yubkalar o'z navbatida: to'g'ri bichim, etagiga toraygan, etagiga bir oz kengaygan shakllariga ega bo'ladi. Bunday yubkalar shaklini beldagi burmalar, gir aylangan taxlamalar, koketkali yubkalar hisobiga hosil qilish mumkin. Etagiga kengaygan yubkalarga: bo'lakli va quyosh, yarim quyosh yubkalar kiradi. Yubkalami bezak baxyaqator, tasma, tugmacha, kashtalar va hokazolar bilan bezash mumkin. Yubka taqilmasiga "molniya" tasma, ilgak, tugmalar bilan ishlov berish mumkin.

4.11. To'g'ri bichimli yubka chizmasi

Turli fasondagi yubkalarning loyihasini yaratish uchun ikki chokli to'g'ri bichimli yubka loyihasining asosi ishlataladi. Bu yubkani loyihalash uchun gavdadan olingan quyidagi o'lchoyolar kerak bo'ladi.

$$BIY_A = 38 \text{ sm}$$

$$QBI = 1 \text{ sm}$$

$$BkY_A = 53 \text{ sm}$$

$$QBk = 2 \text{ sm}$$

$$YuU = 72 \text{ sm}$$

$$OrBU = 42 \text{ sm}$$

4.11.1. Yubkaning to'r qismi (37-rasm)

1. Qog'ozning chap tomon burchagiga Bl nuqta qo'yilib, undan pastga vertikal chiziq o'tkaziladi.
2. BlE = YuU = 72 sm (yubka uzunligi).
3. BIBk = OrBU:2 - (3 ÷ 4) = 42:2 - (3 ÷ 4) = 18 sm (bo'ksagacha bo'lgan oraliq).
4. Bl, Bk, E nuqtalaridan gorizontallar o'tkaziladi.
5. BkBk₁ = BkY_A+QBk = 53+2 = 55 sm (yubkaning bo'ksa chizig'idagi kengligi)
6. Bk₁-nuqtasidan vertikal o'tkaziladi; Bl₁, E₁, Bk₁ nuqtalar belgilanadi.
7. BkBk₂ = (BkY_A+QBk):2-1 = (53+2):2-1 = 26,5 sm (yon chokinining o'rni).
8. Bk₂ nuqtadan yuqoriga va pastga vertikal o'tkaziladi, vertikalning bel va etak chiziqlari bilan kesishgan nuqtalari Bl₂, E₂ bilan belgilanadi.


4.11.2. Yubkaning old va ort bo'laklari

9. $BkBk_3 = 0,4$ $BkBk_1 = 0,4 \times 26,5 = 10,6$ sm (Orqa bo'lak vitochkasining o'mni).

10. Bk_3 nuqtadan yuqoriga vertikal o'tkaziladi va bel chizig'i bilan kesishgan joyga Bl_3 nuqta qo'yiladi.

11. $Bk_1Bk_4 = 0,4$ $Bk_1Bk_2 = 0,4 \times 28,5 = 11,4$ sm (Old vitochkaning o'mi).

12. Bk_4 nuqtadan vertikal o'tkaziladi va bel chizig'i bilan kesishgan joyga Bl_4 nuqta qo'yiladi.



37-rasm. To'g'ri bichimli yubka chizmasi

13. Summa V = $(BkYaA + QBk) - (BlYaA + QBl) = (53+2) - (38+1)$
= 16 sm (vitochkalarning umumiy qiymati).

14. Vitochkalarning taqsimlanishi:

a) $Bl_5Bl_6 = 0,5 \times$ summa V = 8 sm (yon tomon vitochkasi);

b) $Bl_7Bl_8 = 0,3 \times$ summa V = 4,8 sm (orqa bo'lak vitochkasi);

v) $Bl_9Bl_{10} = 0,2 \times$ summa V = 3,2 sm (old bo'lak vitochkasi).

Bu qiymatlar yarmini vitochkalar-ning o'rta chizig'idan bir tomonga, qolgan yarmini ikkinchi tomonga o'lchab qo'yiladi.

15. Beldagi nuqtalar ort bo'lak va old bo'lak vitochkalarining pastki uchlari bilan to'g'ri chiziqlar orqali birlashtiriladi.

16. $Bl_5 Bl_{51} = Bl_6 Bl_{61} = 0,5-1 \text{ sm}$ (bel chizig'i).

Bl_{51} nuqta Bl nuqta bilan, Bl_{61} nuqta Bl_1 nuqtalar bilan birlashtiriladi, bel vitochkalari shu chiziqqacha davom ettiriladi.


4.12. Yubka-shimni loyihalash

Yubka-shimni old va ort bo'laklari o'rtaida ro'para taxlama bilan yoki etagiga kengaytirib tikilsa, harakat uchun qulay bo'ladi va chiroyli ko'rindi. Yubka-shim uzunligini asosan tizzadan yoki tizzadan 2 sm pastroqdan olinadi.

Yubka-shim chizmasini chizish uchun to'g'ri bichimli yubka chizmasidan foydalaniлади. Shuning uchun chizma chizishda yubka o'лчовлари ishlataliladi, hamda qo'shimcha o'лчов bo'ksa balandligi olinadi.

$$BkB = 27 \text{ sm}$$

To'g'ri bichimli yubkaning old va ort bo'laklarini qog'ozga tushirib chizib olinadi. Yubka bel, bo'ksa qismidagi nuqtalar xuddi shunday belgilanadi.



38-rasm. Yubka-shim chizmasi

4.12.1. Ort bo'lak chizmasi (38-rasm)

1. $BIB_5 = 12-16$ sm (taxlama miqdori).

2. $B_1B_2Q = BK_B - 1$ sm = 26 sm (qadam chizig'i oralig'i).

Q nuqtadan o'ng va chap tomonga gorizontal chiziq o'tkazilib, ort va old bo'lak o'rtalari bilan kesishgan nuqtalar Q_1, Q_3 , taxlamalar miqdori bilan kesishgan nuqtalar Q_2, Q_4 bilan belgilanadi.

3. $Q_2Q_5 = 0,2(BK_YA_A + QB_K) + 1 = 0,2(53+2) + 1 = 12$ sm (qadam chizig'ining kengayishi).

4. Ort o'rtalari chizig'i yuqoriga davom ettiriladi va unga B_1B_2 , qiymat qo'yiladi. $B_1B_2 = 0,1BK_YA_A - 2 = 0,1 \times 53 - 2 = 3,3$ sm.

5. $Q_2Q_6 = Q_2B_1 : 3$ (yordamchi nuqtalar).

6. $Q_2Q_7 = BK_YA_A : 10 = 53 : 10 = 5,3$ sm ($Q_5Q_2Q_6$ burchak bissektrissasi).

7. Q_5, Q_7, Q_6 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

8. Q_5 nuqtadan qadam chizig'iga perpendikulyar o'tkaziladi va etak qismi bilan kesishgan nuqta E_5 bilan belgilanadi.

9. $E_5E_6 = 1,5$ sm (etak qismining kengayishi).

10. $E_2E_7 = 2$ sm (yon tomonning kengayishi).

11. Q_5, E_6 va BK_2, E_7 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.

4.12.2. Old bo'lak chizmasi (38-rasm)

12. $B_1B_2B_6 = 12-16$ sm (taxlama miqdori).

13. $Q_4Q_8 = 0,2(BK_YA_A + QB_K) - 1 = 0,2(53+2) - 1 = 10$ sm (qadam chizig'ining kengayishi).

14. $Q_4Q_9 = Q_4B_1 : 3$ (yordamchi nuqta).

15. $Q_4Q_{10} = BK_YA_A : 10 - 1 = 53 : 10 - 1 = 4,3$ (Q₉Q₄Q₈ burchak bissektrissasi).

16. Q_9, Q_{10}, Q_8 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

17. $B_1B_6B_8 = 1$ sm (o'rtalari chiziqning qisqarishi).

18. Q_8 nuqtadan qadam chizig'iga perpendikulyar o'tkaziladi va etak qismi bilan kesishgan nuqta E_8 bilan belgilanadi.

19. $E_8E_9 = 1,5$ sm (etak qismining kengayishi).

20. $E_2E_{10} = 2$ sm (yon tomonining kengayishi).

21. Q_8, E_9 va BK_2, E_{10} nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.

4.13. Bo'lakli yubkalarni loyihalash


Yubka bo'laklarining soni har xil bulishi mumkin, lekin juft son (4, 6, 8, 12) bo'lgani ma'qul; taqilmasi chap yonda yoki old va ort bo'laklar o'rtasida bo'lishi mumkin. Taqilma tikish uchun eni 3-4 sm, bo'yi 25 sm qo'shimcha taqilma haqi chiqariladi. Misol tariqasida olti bo'lakli yubkani loyihalashni ko'rib chiqamiz. Qolgan bo'lakli yubkalarni loyihalash huddi shu tarzda bo'ladi, faqat bel va bo'ksadagi qiymatlar bo'lak soniga qarab bo'linadi.

4.13.1. Olti bo'lakli yubkani loyihalash (39-rasm)

Bu yubkani loyihalash uchun gavdadan olingan quyidagi o'lchovlar kerak bo'ladi:

$$\begin{array}{ll} BlA = 76 \text{ sm} & QBl = 2 \text{ sm} \\ BkA = 106 \text{ sm} & QBk = 4 \text{ sm} \\ YuU = 70 \text{ sm.} & \end{array}$$

1. Qog'ozning yuqori o'rta qismida Bl nuqtani belgilab, undan pastga vertikal chiziq o'tkaziladi.
2. BIE = YuU = 70 sm (yubka uzunligi).
3. BIBk = 18-20 sm (bo'ksa chizig'i).
4. Bl, Bk, E nuqtalardan gorizontal chiziq o'tkaziladi.
5. $Bl_1 Bl_2 = (BIA + QBl) : 6 = (76 + 2) : 6 = 13 \text{ sm}$ (beldagi kenglik).
6. $Bl Bl_1 = Bl Bl_2 = Bl_1 Bl_2 : 2 = 13 : 2 = 6,5 \text{ sm}$ (beldagi kenglikning yarmi).



39-rasm. Olti bo'lakli yubka chizmasi

7. $BIBI_3 = 0,3 - 0,6 \text{ sm}$ (bel chizig'ining tushishi).
8. Bl_1, Bl_3, Bl_2 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
9. $Bk_1Bk_2 = (BkA + QBk) : 6 = (106 + 4) : 6 = 18 \text{ sm}$ (bo'ksadagi kenglik).
10. $BkBk_1 = BkBk_2 = Bk_1Bk_2 : 2 = 18 : 2 = 9 \text{ sm}$ (bo'ksadagi kenglikning yarmi).
11. Bl_1, Bk nuqtalar va Bl_2, Bk_2 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi va etak gorizontal chiziq'i bilan kesishguncha davom ettiriladi. Mos ravishda E_1, E_2 nuqtalar bilan belgilanadi.
12. $Bl_1E_3 = Bl_2E_4 = Bl_3E$ (o'rta chiziqni chizmadan o'lchab, yon tomon uzunliklari belgilab olinadi).
13. E_3, E, E_4 ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
14. Etak qismini modelga qarab kengaytirish mumkin.


4.14. Quyosh yubkalarni loyihalash

Bunday yubkalar etak qismidagi kengayishi bo'yicha eng katta miqdorni egallagan va bo'ksa chiziq'ida esa bo'ksa kengligi chegaralanmagan bo'ladi. Bunday yubkalarni loyihalash uchun quyidagi o'lchovlar kerak bo'ladi.

$$BlYaA = 38 \text{ sm}$$

$$YuU = 70 \text{ sm}$$

$$QBl = 1 \text{ sm}$$



40-rasm. Quyosh yubkalar chizmasi

4.14.1. “Yarim quyosh” yubkani loyihalash (40-rasm, a)

1. To'g'ri burchak chizilib, uning burchagiga O nuqta qo'yiladi.
2. $R_1 = (B1YaA + QB1) : 3 \times 2 - 2 = 24 \text{ sm}$ (bel chizig'igacha bo'lgan oraliq).
3. $R_2 = R_1 + YuU = 24 + 70 = 94 \text{ sm}$ (etak chizigigacha bo'lgan oraliq).
4. Bichish jarayonidayubkaning bo'y i pi gazlamaning bo'y i piga nisbatan 45° bo'lishini e'tiborga olgan holda, buning natijasida gazlamaning cho'zilishi yuzaga kelib, yubka etak qismining uzayishi sodir bo'ladi. Shuning uchun, $E_2 E_3 = 1,5-3 \text{ sm}$ (etak qismining ko'tarilishi, bu qiymat gazlamaning hossasiga bog'liq).
5. E_1, E_2, E nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

4.14.2. “Quyosh” yubkani loyihalash (40-rasm, b)

1. To'g'ri chiziqdagi O nuqta belgilanib, O nuqtadan pastga perpendikulyar o'tkaziladi.
2. $R_1 = (B1YaA + QB1) : 3 - 1 = 39 : 3 - 1 = 12 \text{ sm}$ (bel chizig'igacha bo'lgan oraliq).
3. $R_2 = R_1 + YuU = 12 + 70 = 82 \text{ sm}$ (etak qismigacha bo'lgan oraliq). Yubkaning etak qismi huddi “yarim quyosh” yubkanikiga o'xshab chiziladi.

4.15. Shim asosini loyihalash

Yoshshlarni sevib kiyadigan kiyimlaridan biri shim hisoblanadi. Shimlar kostyuming bir qismi yoki alohida kiyim bo'lib xizmat qiladi.

Shim – ish, sport bilan shug'ullanish va dam olish uchun qulay kiyimdir. Shimning modellari juda xilma-xildir. Vazifasiga ko'ra shimlar kundalik – ishda va uyda kiyiladigan, ko'chalik, sport va maxsus ishlarga mo'ljallangan bo'ladi. Shimning uzunligi, kengligi modaga asosan o'zgarib turadi. Shimlar butun uzunasi bo'ylab keng yoki ma'lum joylari (bo'ksa, tizza pochasi) kengaygan bo'lishi mumkin. Masalan: son qismi kengayib, pocha toraygan shimlar banan shimlar deyiladi. Aksincha, ya'ni son qismi tor, pocha qismi keng bo'lsa, kengaygan shimlar, baravar kengaysa sharvarlar deyiladi. Boldirgacha uzunlikdagi shim golf, tizzagacha bo'lsa bermudi, songacha uzunlikda bo'lsa shortik deyiladi. (41-rasm).

Shimlar belbog'siz, enli, ensiz belbog'li, kamar taqish uchun turli shakldagi kamar tutkichlar, yon chokli yoki yon choksiz, pochasi manjetli yoki manjetsiz qilib tikilgan bo'lishi mumkin. Shimda



41-rasm. Shim modellari

chokdag'i yoki qoplama cho'ntaklar ko'p uchraydi.

Shimning asosiy detallari old va ort bo'laklari vitochkali yoki mayda taxlamali, tizza atrofida kesmali, turli shakldagi koketkali bo'lishi mumkin.

Shim asosan jun va lavsan aralash jun tolali gazlamalardan, zinch to'kilgan vilvet, selon, jinsi gazlamalardan tikeladi.

Ayollar shimi erkaklarnikidan taqilmasi, gazlamaning rangi va bezaklari bilan ajralib turadi.

Shim asosini loyihalash uchun quyidagi gavdadan olingan o'lchovlar kerak bo'ladi.

$$BIYaA = 38 \text{ sm}$$

$$BkYaA = 52 \text{ sm}$$

$$ShU = 100 \text{ sm}$$

$$ShTU = 51 \text{ sm}$$

$$BkB = 27 \text{ sm}$$

$$SA = 54 \text{ sm}$$

Pk = 22-26 sm (modaga qarab o'zgarib turadi).

$$QBl = 1 \text{ sm}$$

QBk = 1 sm (kengrok turishi uchun QBk = 2 sm bo'ladi).

4.15.1. Old bo'lak chizmasi (42-rasm)

1. To'g'ri burchak chizib, burchakni Bl nuqta bilan belgilanadi.
2. BIP = ShU+1 = 100+1 = 101 sm (shim uzunligi).

3. $B_1Q = B_kB - 1 =$
 $27 - 1 = 26 \text{ sm}$ yoki
 $B_1Q = B_kYaA : 2 =$
 $52 : 2 = 26 \text{ sm}$ (qadam
 chizig'i oralig'i).

4. $QB_k = BIQ : 3 =$
 $26 : 3 = 8,6 \text{ sm}$ (bo'ksa
 chizig'i oralig'i).

5. $BIT = ShTU =$
 51 sm (tizza chizig'i
 oralig'i) yoki B_kP
 chiziqning o'rtaidan
 yuqoriga $4-5 \text{ sm}$
 ko'tarilib T nuqtani
 topish mumkin.

6. B_1, B_k, Q, T, P
 nuqtalaridan o'ng
 tomonga gorizontal
 chiziqlar o'tkaziladi.


7. $QQ_1 =$
 $(B_kYaA + QB_k) : 2 =$
 $(52 + 1) : 2 = 26,5 \text{ sm}$
 (old bo'lak kengligi).

8. $Q_1Q_2 =$
 $(B_kYaA + QB_k) : 10 =$
 $(52 + 1) : 10 = 5,3 \text{ sm}$
 (qadam chizig'inining
 kengayishi).

9. Q_1 nuqtadan
 yuqoriga bel chizig'i
 bilan kesishguncha vertikal chiziq o'tkaziladi va kesishgan nuqtalarni
 B_1, B_k bilan belgilanadi.

10. $Q_1Q_3 = Q_1Q_2 : 2 = 5,3 : 2 = 2,6 \text{ sm}$ ($B_kQ_1Q_2$ burchak
 bissektrissasi).

11. $B_1B_2 = 0-2 \text{ sm}$ (qorinning turtib chiqishiga qarab olinadi).



42-rasm. Shim chizmasi

12. B_{l_2} , B_{k_1} , Q_3 , Q_2 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi).

13. $QQ_4 = QQ_2 : 2 = (\text{shimning o'rta chizig'i})$.

14. Q_4 nuqtadan yuqoriga va pastga vertikal chiziq o'tkazilib, bel, bo'ksa, tizza va pocha chiziqlari bilan kesishgan nuqtalarga mos ravishda B_{l_3} , B_{k_2} , T_1 , P_1 harflar qo'yiladi.

15. $P_2 P_3 = P_{k-2} = (22-26)-2 = 20-24 \text{ sm (pocha kengligi)}$.

16. $P_1 P_2 = P_1 P_3 = P_2 P_3 : 2 = (20-24) : 2 = 10-12 \text{ sm (pocha kengligining yarmi)}$.

17. $B_{l_2} B_{l_4} = (B_{lY}A + QB_1) : 2 + (3-5) = 39 : 2 + (3-5) = 22,5 \text{ sm (beldagi kenglik)}.$ 3-5 sm – vitochka yoki taxlama miqdori, agar taxlama ko'p bo'lsa, bu qiymat o'zgarishi mumkin.

18. $B_{l_4} B_{l_5} = 1,5-2 \text{ sm (bel nuqtasi, vertikal chiziqa qo'yiladi)}$.

19. B_{l_5} , B_{l_2} nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.

20. O'rta chiziqqa vitochkaning miqdori ikkala tomonga bir xil qiymatda qo'yiladi.

21. $B_{l_3}v = 8-10 \text{ sm (vitochka uzunligi)}$.

22. Vitochka tomonlari tenglashtiriladi.

23. B_k , B_{l_5} nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

24. Tizzadagi kenglik ko'p hollarda pocha kengligiga teng, yoki undan torroq bo'lishi mumkin.

$T_1 T_2 = P_1 P_2 = 10-12 \text{ sm yoki}$

$T_1 T_2 = P_1 P_2 - (1-2) = (10-12) - (1-2) = 9-11 \text{ sm}$.

25. T_2 nuqtani Q nuqta bilan, T_3 nuqtani Q_2 nuqta bilan chizg'ich yordamida birlashtiriladi va $T_2 Q$ chiziqnini 3 ta teng bo'lakka bo'linadi, perpendikulyarda 0,6 va 1 sm qo'yiladi. $T_3 Q_2$ chiziq ikkiga bo'linib perpendikulyarda 0,8 sm qo'yiladi. Q , 0,6 sm, 1sm, T_2 va Q_2 , 0,8 sm, T_3 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

26. T_2, P_2 va T_3, P_3 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.

4.15.2. Ort bo'lak chizmasi (42-rasm)

1. Old bo'lak chizmasini qog'ozga tushirib chizib olinadi va unda bel, bo'ksa, qadam, tizza, pocha chiziqlaridagi nuqtalar belgilab olinadi.

2. $Q_1 Q_5 = 1 \text{ sm (yordamchi nuqta)}$.

3. $B_{l_1}b = B_{l_1}B_{l_3} : 2$ (chizmadan olinadi).

4. b, Q_5 nuqtalar chizg‘ich bilan tutashtiriladi va yuqoriga davom ettiriladi.

5. $bB_{l_6} = BkYaA:10-(1-1,5) = 52:10-(1-1,5) = 4,2 \text{ sm}$ (bel nuqtasi).

6. $B_{l_6}Q_5$ chiziqning bo‘ksa chiziq bilan kesishgan nuqtasini B_k , bilan belgilaymiz.

7. $B_kB_{l_4} = bB_{l_6} = 4,2 \text{ sm}$ (bo‘ksa chiziqning holati).

8. $Q_5Q_6 = 0,2x(BkYaA+QBk) = 0,2x(52+1) = 10,6 \text{ sm}$ (qadam chizig‘ining kengayishi).

9. $Q_5Q_7 = Q_1Q_3 = 2,6 \text{ sm}$ ($B_kQ_5Q_6$ burchak bissektrissasi).

10. $T_2T_4 = T_3T_5 = 2-2,5 \text{ sm}$ (tizza chizig‘ining kengayishi).

11. T_5 nuqtani Q_6 nuqta bilan chizg‘ichda tutashtiriladi.

12. $Q_8T_5 = T_3Q_2-(0,5-0,8)$ (old bo‘lak chizmasidan o‘lchab olinadi).

13. Bk_4, Q_7, Q_8 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

14. $Bk_4Bk_5 = (BkYaA+QBk)-QQ_1 = (52+1)-26,5 = 26,5 \text{ sm}$ (bo‘ksa chizig‘idagi kenglik).

15. Belning yon yuqori nuqtasi ikkita radiusning kesishishidan topiladi:

$R_1 = B_{l_6}B_{l_1} = (BkYaA+QB1):2+3 = (38+1):2+3 = 22,5 \text{ sm}$ (bel chizig‘idagi kenglik)

$R_2 = Bk_5B_{l_1} = BkB_{l_5}$ (chizmadan olinadi).

16. $B_{l_7}B_{l_6}$ nuqtalar chizg‘ich bilan tutashtiriladi.

17. $B_{l_7}v_1 = B_{l_7}B_{l_6}:2$ (vitochka o‘rni, chizmadan o‘lchanadi).

18. v_1 nuqtadan $B_{l_7}B_{l_6}$ chiziqqa perpendikulyar o‘tkaziladi.

19. $v_1v_2 = 9-10 \text{ sm}$ (vitochka uzunligi).

20. 3 sm vitochka miqdori v_1v_2 chiziqdan o‘ng va chap tomoniga ikkiga bo‘lib qo‘yiladi.

21. Beldagi vitochka uzunliklari 0,5 smga yana uzaytiriladi.

22. $P_2P_4 = P_3P_5 = 2 \text{ sm}$ (pocha chizig‘idagi kenglik).

23. P_4, T_4 nuqta bilan, P_5, T_5 nuqta bilan chizg‘ich yordamida tutashtiriladi.

24. Yon chiziqning qolgan qismi old bo‘lakka parallel qilib, ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

V-BOB

TEXNIK MODELLASH JARAYONI HAQIDA MA'LUMOT

Modellash – bu turli shakl va bichimdagi kiyim modelining konstruksiyasini ishlab chiqaradigan murakkab ijodiy jarayondir. Turli shakl va bichimdagi modalar konstruksiyasini yaratilayotgan byuymning asosiy konstruksiya bazasidan olish mumkin. Bu jarayon amaliy modellash yoki texnik modellash deb ataladi.

Texnik modellashda asos chizmasiga yangi model chiziqlarini kiritiladi.

Modelning fasoni modellar jurnalidan olinadi yoki ijrochining rasm chizib ko'rsatgan taklifiga ko'ra tanlanadi.

Kiyimning yangi modelga xos xususiyatlari: vitochkalar, koketkalar, bo'rtma choklarning holati; bo'ksa, bel, etak, bort, taqilma chiziqlari; cho'ntaklar, yoqalar shakli kirib ularni tegishli buyumning asos chizmasiga ko'chiriladi.

Model chiziqlarining hammasini asos chizmasida xuddi model rasmidagidek joylashtirish kerak. Bunda inson gavda tuzilishining xususiyati, uning mutanosibligi albatta hisobga olinishi kerak.

Fason chiziqlarini bichimi mos keladigan asos chizmasiga tushiriladi. Masalan, modelning yenglari old va ort bo'laklar bilan yaxlit bichiladigan bo'lsa, bunda texnik modellash yenglari old va ort bo'laklar bilan yaxlit bichiladigan asos chizmasida bo'lishi kerak va hokazo.

Ishlash uchun hamma asosiy detallar asosini qog'oz yoki kartonga andoza, ya'ni shablon tarzida tayyorlab olinadi. Bu andozalarga zarur bo'lgan simmetriya chiziqlari – ko'krak, bel, bo'ksa chiziqlar tushiriladi.

Fasonga binoan detalning yangi shaklini tayyorlangan andozani shartli bo'laklarga bo'lib, keyin u bo'laklarni surib asos chizmasidagi vitochkalarni berkitish va ularni yangi holatga ko'chirish yo'li bilan hosil qilinadi.

Ayollar kiyimlarining yangi modellarini ishlab chiqishda asosiy e'tibor ko'krak vitochkasini ko'chirishga, old bo'lak, ort bo'lak, yubka, yeng detallarini kengaytirishga yoki toraytirishga, shu detallarning uzunligini va mutanosibligini o'zgartirishga qaratiladi.

5.1. Ayollar ko‘ylagini texnik modellash

Ko‘krak vitochkasini ko‘chirish qoidasi. Ko‘ylak fasoniga binoan ko‘krak vitochkasi detalning istalgan qirqimida bo‘lishi mumkin. Bu vitochkani old bo‘lak o‘rtasi, yeng o‘mizi qirqimi, yoqa o‘mizi qirqimi, yon qirqimi va bel chiziqlariga ko‘chirish mumkin.

Vitochkani fasonga muvofiq, yangi holatga ko‘chirish uchun avval vitochkaning ko‘chirilish chizig‘i asos chizmasida o‘tkazilishi kerak. Bu chiziq doim ko‘krak vitochkaning uchidan, ya’ni ko‘krak markazi bilan vitochka ko‘chiriladigan qirqimdagи nuqtadan o‘tishi kerak.

Old bo‘lak andozasining shabloni kiritilgan yangi chiziq buylab qirqiladi-da, ko‘krak vitochkasi yopiladigan qilib suriladi. Vitochka tomonlarini bir-biriga to‘g‘rilab to‘g‘nag‘ich bilan to‘g‘naladi. Qirqilgan chiziq bo‘ylab xuddi asosiy vitochka kengligiga teng yangi vitochka hosil bo‘ladi. Bu vitochka birmuncha kalta yoki uzun bo‘lishi mumkin, lekin bu vitochka xuddi asosiy vitochka hosil kilganidek, hajm hosil qiladi.

5.1.1. Ko‘krak vitochkasini yon qirqim chizig‘iga ko‘chirish

Yon qirqim chizig‘ida nuqta belgalab olinadi. Nuqtaning o‘rni yon chiziqning belgacha bo‘lgan uzunligining taxminan 1/3 qismida belgilanadi. Bu nuqtani ko‘krak vitochka uchi bilan birlashtirib, yangi vitochka chizig‘i o‘tkaziladi (43-rasm). Shu belgilangan chiziq bo‘ylab qirqiladi. Ko‘krak vitochkasini, uning tomonlarini bir-biriga to‘g‘ri keltirib berkitiladi va yelim surtiladi yoki to‘g‘nag‘ich bilan to‘g‘nab qo‘yiladi. Yangi vitochkaning uchi markazdan 3-5 sm yon tomon suriladi. Bu yangi vitochkaning uchi bo‘ladi. Bu uchini vitochkaning qirqimlari bilan tekis qilib tutashtiriladi (43-rasm, a).

5.1.2. Ko‘krak vitochkasini bel chizig‘iga ko‘chirish

Asos chizmasidagi bel vitochkasi qirqib olinadi. Bel vitochkaning uchi ko‘krak vitochkasining uchi bilan tutashtiriladi. Shu tutashtirilgan chiziq bo‘ylab qirqma hosil qilinadi. Ko‘krak vitochkasini, uning tomonlarini bir-biriga to‘g‘rilab berkitiladi. Model bo‘yicha bel vitochkasi tikiladigan bo‘lsa, vitochkaning uchi 3-5 smga qisqartiriladi (43-rasm, b).

5.1.3. Ko'krak vitochkasini old bo'lak bo'yin o'mizi chizig'iga ko'chirish

Vitochka bo'yin o'mizi chizig'ining istalgan joyiga ko'chirilishi mumkin. Buning uchun old bo'lak bo'yin o'mizi chizig'ida nuqta belgilab olamiz. Shu nuqta bilan ko'krak vitochkasi uchi tutashtiriladi va chiziq bo'ylab qirqliladi (43-rasm, v). Ko'krak vitochkasi berkitiladi va yangi vitochka holati ochiladi. Ko'krak vitochkani old bo'lak yoqa o'miziga ikki qismga bo'lib ko'chirsa ham bo'ladi. Bunda vitochkani ko'chirish uchun chizmaga ikkita chiziq o'tkaziladi. Vitochkani tikmay old bo'lak bo'yin o'mizi bo'ylab ochiq mayda taxlama hosil qilish ham mumkin.

5.1.4. Ko'krak vitochkasini yeng o'mizi chizig'iga ko'chirish

Vitochkani boshlanish nuqtasi (43-rasm, g) chizmada ko'rsatilgandek topiladi. yeng o'mizi chizig'ida belgilangan nuqta ko'krak vitochkasi uchi bilan birlashtiriladi. Shu chiziq bo'ylab qirqliladi. Ko'krak vitochkasi berkitiladi va yangi vitochka holati ochiladi.

5.1. 5. Ko'krak vitochkasini old bo'lak o'rta chizig'iga ko'chirish


Ko'chiriladigan vitochka chiziqlari belgilanadi (43-rasm, d). Birinchi chiziq ko'krak vitochka uchidan, ikkinchisi beldagi vitochka uchidan o'tadi. Ikkala chiziq ham o'rta chiziqliqa perpendikulyar o'tkaziladi. Belgilangan chiziqlar bo'ylab qirqma hosil qilib, ko'krak va beldagi vitochkalar berkitiladi, yangi vitochka ochiladi. Hosil qilingan vitochkalar ko'p hollarda tikilmaydi. Yangi vitochkalarning kengligi o'rta chiziq bo'ylab burma hosil qilishga yoki mayda taxlamalar hosil qilishga ketadi.

Ko'krak vitochkasini istalgan chiziqlarga ko'chirib modellar hosil qilinadi. Lekin kiyim detallarini parallel va konussimon shakllarda kengaytirish hisobiga ham yangi model hosil qilinishi mumkin.

5.1.6. Detallarni parallel va konussimon kengaytirish

Detallarni parallel kengaytirishni buyumning butun uzunasi bo'ylab taxlamalar bo'lgan vaqtida amalga oshirish mumkin. Buning

uchun asos chizmasiga taxlama o'tadigan chiziqlar belgilanadi. Bu chiziqlar qirqilib, taxlama sarfiga suriladi. Agar taxlama bir tomonlama bo'lsa, ikkita taxlama miqdoriga, ro'para taxlama bo'lsa, to'rtta taxlama miqdoriga suriladi (43-rasm, a).



43-rasm. Ko'krak vitochkasini ko'chirish yo'llari

Detallarni konussimon kengaytirishni kiyim razmerlarini o'zgartirishda ishlatilishi mumkin. Yoki burmalar bo'lsa, bunday kengaytirish usulidan foydalanish mumkin (43-rasm, b).

Detallami murakkab usulda ham kengaytirish mumkin. Bunda detallar uzunasiga hamda ko'ndalangiga kengaytirilishi mumkin (43-rasm, v).

5.2. Yenglarni texnik modellash

Turli shakldagi yenglarning loyihasi xuddi shunday bichimdagি yeng loyihasi asosini texnik modellash usuli bilan hosil qilinadi. Yuqoriga va etagiga kengaygan (fonarik) yengni modellash quyidagicha bajariladi. Asos yeng chizmasi qog'ozga tushirib olinadi. Unda o'rta chiziq o'tkaziladi. Shu o'rta chiziq bo'ylib 20-35 sm yeng uzunligi o'lchab


qo'yiladi. Shu o'rtal chiziq bo'ylab qirqma hosil qilinadi. Yeng ikki bo'lakka ajratilib, model bo'yicha 10-12 smga kengaytiriladi. Yengning bosh qismi egriligi o'rtasidan 1, 5-2, 5 sm ko'tarilib to'g'rlanadi. Yengning etak qismi ham huddi shunday miqdorga tushiriladi va yeng etak egri chizig'i yaxshilab o'tkaziladi (44-rasm, a).

Etagiga kengaygan yengni texnik modellashtirishda yeng asosini qog'ozga tushirib olinadi. Yeng o'rtal chizig'i o'tkaziladi. Bu o'rtal chiziqa yeng uzunligi 20-45 sm qo'yiladi (44-rasm, b) va o'rtal chiziqa parallel qilib 3-7 ta qirqim chiziqlari o'tkaziladi. O'tkazilgan chiziqlardan qirqma hosil qilinadi, bu qirqma yeng boshi egriligiga 0,3-0,5 sm yetmasdan to'xtatiladi. Hosil bo'lgan bo'laklar 3-6 smga ochiladi. Yengning etak qismi egriligi tekis ravon egri chiziq qilib tutashtiriladi. Bunday yengning bo'y ipi o'rtal chiziqa yoki unga nisbatan 45° burchak ostida tushishi kerak.

Yuqoriga kengaygan yengni modellash uchun yeng asosini va o'rtal chiziqni qog'ozga tushirib olinadi. O'rtal chiziqa yeng uzunligi

20-45 sm qo'yiladi. Shu o'rtal chiziqa parallel qilib 2-6 ta chiziq o'tkaziladi va yeng boshi egri chizig'idan boshlab yeng etagiga 0,3-0,5 sm yetkuncha qirqib boriladi. Yeng bo'laklari 3-6 smga ochiladi. Yengning yuqori egriligi ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi (44-rasm, v). Bunda yeng boshi chizig'i 0,5-2,5 smga ko'tariladi.

Yenglarning shakli, ko'rinishi, bezaklari kiyim fasoniga, gazlamaning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.




44-rasm. Detallarni parallel va konussimon kengaytirish

5.3. Yubkani texnik modellash

Zamonaviy yubkalarning shakli juda xilma-xildir. Ularni bir necha guruhga ajratish mumkin. Bulardan eng xarakterlisi: to‘g‘ri yubkalar, etak tomoni kengaytirilgan yubkalar, etak tomoni toraygan yubkalar. Shu yubka turlarining har qaysisi birqancha fason variantlaridan iborat bo‘lishi mumkin.

To‘g‘ri yubka alalarning bichimi to‘g‘ri burchakni eslatishi bilan xarakterlanadi. Bunday yubkalar kesmali, taxlamali simmetrik va assimetrik, koketkali, burmali bo‘lishi, ya‘ni yubkaning ham old, xam ort bo‘laklarida vertikal va gorizontal bo‘ylab turli bo‘laklarga bo‘linishi mumkin.



45-rasm. Yenglarni modellashtirish

Odatda to‘g‘ri bichimli yubka va uning turli variantlari gavda tuzilishi kelishgan baland bo‘yli yoki bo‘ksasi tor ayollarga tavsiya etiladi.

Etak tomoni kengaytirilgan yubkalar turli vertikal bo‘laklarga bo‘linishi bilan (to‘rt, olti va sakkiz bo‘lakli, gode, quyosh va boshqalar) xarakterlanadi. Bunday yubkalar gorizontal bo‘laklarga bo‘linishi ham mumkin. Etak tomoni kengaytirilgan yubkalar beli ingichka gavdada juda yaxshi turadi.

E t a k t o m o n i t o r a y t i r i l g a n “bochkasimon” yubkalarning bel chizig'i bo'ylab vitochka o'miga burma qilingan bo'ladi.

Yubkalarning bunday guruhlarga bo'linishi shartli bo'lib, ular hamma turlarni qamrab ololmaydi. Yubkalarning deyarli hamma shakli taxlamalar, choklar joylanishi, qo'yma bo'laklar, beykalar, qo'yma aylana burmalar, burmalar va boshqalar qandayligiga qarab o'zgarishi mumkin.

Hamma bichimdagи yubkalarning, ularning turlari va variantlarining loyihasi to'g'ri yubka loyihasi asosining bazasida texnik modellash usuli bilan ishlab chiqiladi.

Yubka ko'ylakning bir qismi bo'lsa, uning loyihasini ishlab chiqishda quyidagi shartlarni bajarish kerak: yubka bilan ko'ylak ko'krak qismining bel chizig'i bo'ylab uzunligi bir xil bo'lishi kerak, vitochkalar yubkada va ko'ylak ko'krak qismida bir xil joyda bo'lishi kerak: yubkaning yon qirqimlarini ko'ylak ko'krak qismining yon qirqimlariga to'g'ri kelishi kerak.

5.3.1. Etak tomoni kengaytirilgan yubka

Yubkalarni texnik modellashtirishda ham ko'ylakni yuqori qismini modellashtirishdagi qoidalariga rioya qilinadi. Yubkaning etak tomoni beldagi vitochkalarni etak chizig'iga ko'chirish, taxlamalar hosil qilish, gode singari juda ko'p usullar bilan kengaytiriladi. Vitochkani beldan etak chizig'iga ko'chirish yo'lli bilan yubkaning etak tomonini kengaytirish eng ko'p tarqalgan usullardan hisoblanadi.

To'g'ri yubkalarni etak qismiga kengaytirishning usullaridan yana biri uning old va ort bo'laklarida ayrim qismlarni ajratib olib, shu qismlarni etak tomoniga kengaytirishdir (46-rasm, a).

To'g'ri yubkaning loyiha asosi chizmasining old va ort bo'laklarida bo'ksa chizig'ida ovalsimon va etak tomoniga to'g'ri ketgan qism ajratib olib, unda shu qismning yuqorigi egriligidan yubka etagigacha qirqiladigan chiziq o'tkaziladi, keyin shu chiziq bo'ylab yuqori egri chizig'iga 0,3-0,5 sm qolguncha qirqib, yubkaning etak chizig'i bo'ylab surib kengaytiriladi. Hosil bo'lgan

detallarni qog'ozga to'g'nog'ich bilan to'g'nab bo'rланади, etak qismining kengayish o'rni belgilanadi, yangi andoza qirqib olinadi. Bunday modeldag'i yubka bo'ksa qismida gavdaga yopishib, etak qismi chiroyli burmalanadi. Bichishda yubkaning shu qismi old va ort bo'laklari simmetriya chiziqlarini gazlama asos i pi bo'ylab yoki asos i piga 45° burchak ostidajoylashtiriladi.

Etak tomoni kengaytirilgan yubkaning shunday yo'l bilan olingen loyihasi quyosh yubka, "yoysimon" yubka, beli burma yubka va etak tomoni bo'ylab kengaytirilgan yubkalar loyihasini tuzishga asos bo'ladi.


Bu yubkalarning loyihasini hosil qilish uchun, yuqorida aytib o'tilgan to'g'ri yubka asosi chizmasiga qo'shimcha qirqish chiziqlari o'tkaziladi. Shu belgi chiziq bo'ylab qirqib, har qaysi bo'lakni uning yon qirqimi simmetriya chizig'iga nisbatan turli burchak ostida bo'lib qolguncha soat mili yo'nalishida suriladi.

5.3.2. "Fantaziyalı" yubka

"Fantaziyalı" yubkalarda turli simmetrik, asimmetrik burmalar, qirqmalar, taxlamalar bo'ladi, shuningdek, ular ko'p qavatlari ham bo'lishi mumkin. Bunday yubkalarning loyihasi tegishli bichimli (to'g'ri, etak tomoni kengaytirilgan, gode, etak tomoni toraytirilgan va hokazo) yubka loyihasi asosida ishlab chiqiladi.

"Fantaziyalı" yubkaning ko'pgina variantlaridan birining texnik modellash tartibi 46-rasm, b da ko'rsatilgan.

Asos chizmasida murakkab shakldagi qirqma chiziqlari, ya'ni fason chiziqlarining joylanishi belgilab olinadi. Rasmdagi modelda yubkaning old bo'lagi o'rta chizig'iga burchak ostida o'tkazilgan koketka chizig'i va yon tomonagi cho'ntak o'rni chiziqlari, keyin burmalar o'rning belgi chiziqlari o'tkaziladi. So'ngra koketka va cho'ntak qismi qirqib olinadi (46-rasm, b da 2 va 3 detallar).



46-rasm. Yubkalarni modellashterish

Beldagi vitochkalarini bekitib, ularni qirqma yoki burma chizig'iga ko'chiriladi (46-rasm, b). Belgilangan burma chiziqlari bo'ylab yon chiziqda 0,3-0,5 sm qolguncha qirqiladi-da, yon qirqim chizig'ining uzunligini saqlab qolib, surib burma ochiladi. Hosil bo'lgan detallarni qog'ozga to'g'nog'ich bilan to'g'nab bo'rланади, burma o'rni belgilanadi, yangi andoza qirqib olinadi. Burma, taxlamalarning yo'nalishi hamda chuqurligi va boshqalar ixtiyoriy aniqlanadi.

Tayyor modeldagи burma va taxlama tashqi ko'rinishi va uning eskizining bir-biriga mosligining loyihasi tayyorlovchining tajribasiga bog'liq. Shuning uchun olingan andozani oldin maket gazlamada tekshirib ko'rib, keyin modelni asosiy gazlamadan bichishga o'tilgani ma'qul.

VI-BOB

O'ZBEK MILLIY KIYIMLAR TAVSIFI

6. 1. Milliy kiyimlar tarixidan ma'lumot

O'zbekcha kiyimning ko'p asrli boy tarixi bor. Unda xalqimizning o'tmishi, iqlim sharoiti turmush tarzi ko'zguda aks etgandek ifoda topgan. A. Makedonskiy yurishlari, mo'g'ullar bosqinchiligi, Temuriylar yurishlari va xukmronligi, nihoyat, mustabidlik davri – bularning hammasi kiyimda o'z aksini topdi.

Antik dunyo davrida (miloddan avvalgi IV asrdan milodning IV asrigacha) ayollar ko'y lagi yunoncha xitonga o'xhash bo'lib, old va ort bo'laklar etagining yon burchaklari o'zaro biriktirilib, muayyan drapirovka ko'rinishi hosil bo'lib turardi. Ayollarga u paytlarda lozim kiyish odat bo'lgan. Tillaqoshlar, shokilalar, jevaklar, bilakuzuklar taqilardi.

Ilk o'rta asrlar davrida (V-VIII asrlar) ayollar gavdaga juda yopishib turadigan tunukasimon bichimli ko'yak va yenglari uzun tunukasimon ust kiyimda yurishardi. Kiyimni yorqin gulli va sernaqsh shoyi gazlamalardan tikishar edi.

Markaziy Osiyo Uyg'onish davrida (IX-XIV asrlar) ayollar ikkita ko'yak kiyishardi: ich ko'yak gavdaga juda yopishib turadigan tunukasimon bichimli hamda uzun, tor yengli ust ko'yak gavdaga yopishib turadigan, beldan past qismi tugmasiz ochiq bo'lardi. Ko'yaklar ip gazlamadan va shoyi gazlamadan sernaqsh qilib tikilardi. U davr kiyimi haqidagi ma'lumotni bizgacha yetib kelgan ajoyib kitob miniatyurasidan olish mumkin. U vaqtarda ayollar yuzlarini bekitmay yoki yuzlarining pastki qisminigina doka ro'mol bilan bekitib yurardilar.

Paranji yopinish XVIII asrda odat bo'ldi. Bu turmushni biqiqlikka olib kelgan. Paranji arabcha "faroji", erkaklar ust kiyimi – to'n so'zidan kelib chiqqan. To'n asta-sekin boshga yopilib, gavdani ham yashirib turishga xizmat qiladigan, ort tomonidan pastki qismi bir-biriga chatilgan ikkita uzun soxta yengi (bandak) bor ayollar kiyimi bo'lib qolgan. Yuzga esa paranji ostidan chachvon – otning dum qilidan to'qilgan to'r pardalutilgan.

XIX asrdagi ayollar kiyimi hamma yoshdagilar uchun bichimi bir xilda tunukasimon, dekorativ yechimlari nihoyatda ko‘p xil bo‘lgani ko‘zga tashlanadi.

Ayollar ko‘ylaklari to‘piqqacha uzunlikda bo‘lib, uning etak qismi to‘g‘ri va ayrim hollarda kengaytirib tikilgan.

Qiz bolalar ko‘ylagining bo‘yin uyindisidagi taqilmalar gorizontal ravishda olinib, bitta tugmada qadab qo‘yilar yoki ko‘ylak gazlamasi rangidagi tasmalar bilan bog‘lab qo‘yilar edi.

Turmush qurgan ayollar ko‘ylaklari taqilmalari esa vertikal xolatda olinib, uning uzunligi old bo‘lak o‘rtasidan 25 sm gacha uzunlikda bo‘lgan taqilmaga tasmalar bilan ishlov berilgan, u bitta tugma yoki bezak to‘g‘nag‘ich bilan taqilgan.

Ko‘ylak yenglari keng va uzun bo‘lib, ular barmoqlarni ham berkitib turgan.

Markaziy Osiyoni Rossiyaga qo‘shilishi natijasida ayollar ko‘ylaklarida tik yoqalar urf bo‘la boshladi.

XIX asr oxirlarida ko‘ylakda koketkalar paydo bo‘ldi, ya‘ni ko‘krak burma ko‘ylaklar kiyish odad tusiga kirdi va hozirgi kungacha bunday ko‘ylaklar kiyiladi.

1920 yilda o‘zbek ayollar kiyimi yangi zamonga, yangicha turmush tarziga, zamonaviy modaga muvofiq rivojlanishida davom etdi.

Uzun yaxlit, koketkali an‘anaviy ko‘ylak xalq kiyimida iqlim xususiyatlariga, tevarak-atrofdagi tabiatga va turmush tarziga to‘g‘ri keladigan shakllar, bichimlar bir necha asrlardan beri saqlanib qoldi. Ayollar kuylagidagi yorqin ranglar mutanosibligi o‘lkamiz tabiatiga monand tushgan bo‘lib, shaklning gavdaga bermalol turishi jazirama quruq iqlim sharoitiga mos keladi (bunda kiyim tagi qatlamidagi havoning ventilyasiysi yaxshi).

Moda “shabadasi” ayollarning an‘anaviy ko‘ylagiga zamona o‘zgarishlarini kiritib boradi.

Koketkalarning uzunligi va shakli (oval, to‘g‘ri to‘rburchak, burchak), ko‘ylakdagi uzunlik, shakl (to‘g‘i to‘rburchak, trapesiyasimon) va shakl hosil qilish yo‘llari (burmalar, taxlamalar, plisse, gofre, qiya bichiq, quyosh, qiyiq bo‘laklar), yeng uzunligi, shakli va bichimi (o‘tqazma, reglan, yaxlit bichilgan) o‘zgarib

bormoqda; yoqa turlarining (tik, qaytarma, yaxlit bichilgan va hokazo) va yoqa o'mizining ("u" - simon, oval, kare, "qayiqcha" va boshqalar) nihoyatda ko'p xilma xilligi ko'zga tashlanadi. Ishlatiladigan dekorativ bezak turlari ham turli-tuman: kashta, qo'yma burma, kant va boshqalar. (47-rasm).

Ishlatiladigan gazlamalar turi, ulardagi rang boyligi va naqshlar yechimi butunlay moda yo'nalishiga qarab hal qilinadi. Lekin an'anaviy xonatlas hamisha bir xilda mashhur bo'lib keladi. Uning naqsh motivi ham zamon, voqelik, davr ta'sirida o'zgarib turadi.


Xonatlasdagi rapportning kattaligi, rasmlarining aniq-ravshanligi va qat'iyligi bu kiyimni ko'p bo'laklardan tikishga imkon bermaydi, uning shakli aniq, to'g'ri to'rtburchakka yaqin bo'lishi kerak. Rang tuslarining turlari va naqshgul yechimlari boy bo'lgani sababli ko'ylak kompozisiyasiga bezak tariqasida boshqa gazlamalar, kashta gullar aralashtirish tavsiya etilmaydi. Xonatlas ko'ylaklarni modellashga gazlama rasmidan qiziqarli qilib foydalanish, detallarning shakli aniqligi mutanosibligi va yoqaning xilma-xilligi hisobiga erishiladi.

6.2. Ayollar o'zbekcha ko'ylagini texnik modellash

An'anaviy milliy ko'ylak gavda qismi to'g'ri bichimli, koketka chizig'i bo'ylab burmali bo'ladi. Koketka asosan ko'ylakning gavda qismiga ulanadigan chizig'i bo'ylab dumaloq bo'ladi. Old tomonda koketka bo'laklari bir-birining ustiga o'tib turadi. Yoqasi qirqma, yoqa o'mizi bo'ylab o'tqazma, qaytarma xillari bo'ladi. Mazkur qo'llanmada milliy ko'ylak loyihasini beli qirqma bo'limgan ovropacha ko'ylak loyihasi asosining chizmasida tuzish varianti (48-rasm) taklif etilgan.

Old vaort bo'laklar chizmasida oldin vitochkani bekitib, tipik koketka chizig'i o'tkaziladi. Koketka chizig'i ort bo'lakda L_1 nuqtasidan, old bulakda esa L_2 nuqtasida o'tkazilgani ma'qul.

Old bo'lakda koketka chizig'i ko'krakning yuqori nuqtasidan 2,5-3 sm yuqoriroqdan o'tishi kerak, bu chiziq asta-sekin simmetriya chizig'iga tushib, undan 2,5-3 sm ga o'tadi (koketkaning bir-biri ustiga o'tish kengligi). Ko'krak vitochkani to'g'nag'ich bilan to'g'nab, belgilangan chiziqlar bo'ylab qirqiladi. L_1 nuqta surilib yangi holat L_1' ga o'tadi. Shunday qilib, ko'krak vitochkasi koketka chizig'iga ko'chiriladi.



47-rasm. O'zbekcha ko'yvak modellari


shakli olinadi.

Shunday qilib, old bo'lakdag'i koketka chizig'i - $L_1/1$, old bo'lakning gavda qismini koketkaga ulash chizig'i - $L_1/1$; ort bo'lakning koketka chizig'i - $L_2/2$, ort bo'lakning gavda qismini koketkaga ulash qismi L_2 bo'ladi. Koketkaga ulash chizig'i bo'ylab gazlamadan burma hosil qilishga mo'ljallab, ko'yvakning ham old, ham ort bo'lak gavda qismi kengaytirish qo'yimi istalgancha, ixtiyoriy olinadi. Buning uchun old va ort bo'laklar simmetriya chiziqlarini gavda qismini kengaytirmoqchi bo'lgan miqdorga suriladi:

$$22/ = KK/ = BIBI/ = EE/ = Bl_1Bl_1/ = Bk_1Bk_1/ = E_1E_1/ = 11^1 = 10 \text{ sm}$$

Ko'yvak gavda qismining minimal kengaytirilishi 10 sm ga teng bo'lib, uning qiymati modelga muvofiq olinadi.

Ort bo'lak yelka vitochkasini o'z o'rniда qoldirish mumkin. Lekin, ba'zan gazlama guli buzilmasligi uchun ort bo'lak koketka detalining yelka vitochkasini ham koketka chizig'iga ko'chirish mumkin. Buning uchun yelka vitochka uchidan koketka chizig'igacha vertikal chiziq o'tkaziladi. Shu belgi chiziq bo'ylab koketka qirqiladi. yelkadagi vitochka to'g'nag'ich bilan to'g'naladi-da, bu vitochka vertikal qirqilgan joyga ko'chiriladi. Hosil bo'lgan andoza konturlari bo'ylab, ort bo'lak koketkasining



48-rasm. O'zbekcha ko'yakning loyihasi

Ayollarning an'anaviy o'zbekcha ko'ylagida, hozirgi paytda ma'lum o'zgarishlar bo'lmoqda, ya'ni ko'yak gavda qismining bichimi, hajmi va uzunligi qisqarmoqda. Koketka, yoqa, yenglarning katta-kichikligiga va shakiiga ko'pgina omillar, shu jumladan moda ham ta'sir etmoqda.

Hozirgi o'zbekcha ko'yakda turli bezaklar, qo'yma burmalar,

aylana burmalar, plisse va hokazolar ishlataladi. Bu esa ko'ylaklarning gavda qismi bilan koketkaning loyihasi bir xil bo'lsa ham ularning tashqi ko'rinishini o'zgartiradi.

6. 3. Ayollar nimchasini texnik modellash


Ayollar nimchasini paxta, shoyi, jun va sun'iy tolali gazlamalardan tikilishi mumkin (49-rasm). Ular uzun — bo'ksa chizig'idan pastga tushgan yoki kalta — bel chizig'igacha bo'lishi, bo'yin o'yindisi V — shaklda yoki oval shaklda, yoqali yoki yoqasiz, bir yoki ikki yoqlamali taqilmali, qirqma yoki yopishtirma cho'ntakli hollarda uchrashi mumkin. Nimchalar astarli yoki astarsiz qilib tikiladi. Astarli nimchalarning astari nimcha andazasining ustki bo'laklariga mos holda bichiladi.



49-rasm. Ayollar nimchasi

50-rasmda ayollar nimchasini modellash usuli ko'rsatib berilgan. Buning uchun ovropacha ko'ylak asosi chizmasining old va ort bo'laklarini bo'ksa chizig'igacha, hamda hamrnha vertikal va gorizontal chiziqlari tushirib olinadi.

Bel chizig'idan 5-8 sm tushirib nimchaning uzunligi aniqlab olinadi. Ort bo'lakda quyidagicha o'zgarishlar bo'ladi: bo'yin o'yindisi



50-rasm. Ayollar nimchasini modellashtirish

2-3 sm kengaytiriladi va 1-2 sm chuqurlashtiriladi. Bu nuqtalar, ya'ni 2-3sm va 1-2sm nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi. Bo'yin o'yindisi chuqurligi nuqtasidan 6-10 sm koketka uzunligi o'rta chiziq bo'ylab qo'yiladi. Shu nuqtadan o'rta chiziqqa perpendikulyar o'tkazilib, yeng o'mizi bilan kesishguncha davom ettiriladi. Yelka vitochkasi to'g'nag'ich bilan yopiladi va koketka chizig'i qirqiladi. Bitarkaning yopilish qiymatini 1,5-2 smni yeng o'mizi bo'ylab pastga qo'yiladi. 1, 5-2 sm nuqtani koketka chizig'inining o'rta bilan ravon egri chiziq qilib tutashtiriladi. Ort bo'lak bel vitochkasi uchi koketka chizig'i bilan kesishguncha davom ettirilib, ort bo'lakni detallarga ajratiladi. Yeng o'mizini 2-4 sm ga chuqurlashtiriladi va 1,5-2sm nuqta bilan ravon egri chiziqda tutashtiriladi.

So'ngra ort bo'lak detallariga sonlar qo'yib chiqiladi:

I – ort bo'lak koketkasi;

II – ort bo'lakning o'rta qismi;

III – ort bo'lakning yon qismi.

Old bo'lak quyidagicha modellashtiriladi. Bo'yin o'yindisi 2-3 sm kengaytiriladi, 12-16 sm ga chuqurlashtiriladi. O'rta chiziq bo'yicha 2-3 sm qiymatda o'tim haqi qo'yiladi. Yelka chizig'idagi 2-3 sm nuqta 12-16 sm nuqta bilan tutashtirilib, o'tim haqi bilan kesishguncha davom ettiriladi. Bu chiziqning o'rtasidan perpendikulyarda 1-3 sm qo'yiladi. 2-3 sm, 1-3 sm, 2-3 sm nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

Yeng o'mizi chizig'ining yelka nuqtadan va bo'yin nuqtadan yelka chizig'iga parallel qilib 6-8 sm pastda koketka chizig'i belgilanadi. Yon chokda yeng o'mizini 2-4 sm ga chuqurlashtiriladi va 6-8sm nuqta bilan ravon egri chiziqda tutashtiriladi.

Old bo'lakda rellef chizig'i o'tkaziladi. Buning uchun ko'krak vitochkasi uchini 1-2 sm ga chap tomonga suriladi, hosil bo'lgan nuqtani bel vitochkasining uchi bilan tutashtiriladi va koketkaning o'rtasi topilgan nuqta bilan kesishguncha davom ettiriladi.

Bel chizig'dan 5-8 sm ga tushib, vitochka tomonlari bo'ylab esa 10-12 sm tushib, nimchaning etak qismi egri chizig'i chiziladi.

So'ngra old bo'lak detallariga sonlar qo'yib chiqiladi.

IV – old bo'lak koketkasi;

V – old bo'lakning o'rta qismi;

VI – old bo'lakning yon qismi.

6. 4. O'zbekcha milliy lozimni loyihalash

Lozim ayollar kiyimining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Ayollar kiyimining bu turi milod boshlaridagi xotin-qizlar tasvirida uchraydi. Lozimning ham o'z tarixi bor. U shakl, ishlatiladigan gazlamai, bezagi jihatidan o'zgarib turgan bo'lsa ham, asl xalq bichimini saqlab qo'lgan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, kengligini kamaytirish maqsadida lozim bichimini ayollar shimi loyihasiga yaqinlashtirish boshlangan. Lozimni ko'ylik bilan bir xilda modellash kerak, chunki ular gavdaning idrok etilishida bir butunni tashkil etadi. Bunda shakl jihatidan ham, rang, ishlatiladigan gazlamalar va bezagi jihatidan ham bir xillilik bo'lishi kerak. Shuning bilan birga gazlama tanlashda gigienik talablarni ham hisobga olish muhim hisoblanadi.

Lozim chizmasini tayyorlash uchun quyidagi o'chovlar kerak bo'ladi.

BIYaA = 38 sm


$$BkYaA = 52 \text{ sm}$$

$$LU = 90 \text{ sm}$$

$$PK = 20 \text{ sm.}$$

$$QBk = 4-6 \text{ sm.}$$

1. To'g'ri chiziqning o'rta qo'yiladi (51-rasm).



51-rasm. Lozim chizmasi

$$2. BIP = LU = 90 \text{ sm} \text{ (lozim uzunligi).}$$

$$3. BIQ = BkYaA : 2 + (10 - 11) = 52 : 2 + (10 - 11) = 36 \text{ sm} \text{ (qadam chizig'i oralig'i).}$$

4. Bl, Q, P nuqtalardan gorizontal chiziqlar o'tkaziladi.

$$5. BIBI_1 = BIBI = BkYaA : 2 + QBk = 52 : 2 + (4-6) = 30 \text{ sm} \text{ (lozim kengligi).}$$

$$6. QQ_1 = BIBI_1 = QQ_1^1 = BIBI_1^1 = 30 \text{ sm} \text{ (qadam chizig'idagi kenglik).}$$

$$7. Q_1^1 Q_2^1 = Q_1^1 Q_2^1 = BkYaA : 4 - 2 = 52 : 4 - 2 = 11 \text{ sm} \text{ (og' qismi kengligi).}$$

$$8. Q_1^1 Q_3^1 = Q_1^1 Q_3^1 = Q_1^1 Q_2^1 = 11 \text{ sm} \text{ (yordamchi nuqta).}$$

9. $Q_1 Q_4 = Q^1 Q^4 = 4-8 \text{ sm}$ ($Q_3 Q_1 Q_2$ burchak bissektrissasi).

10. Q_3, Q_4, Q_2^1 nuqtalar ravon egri chiziq bilan Bl_1, Q_3 nuqtalar to‘g‘ri chiziq bilan tutashtiriladi va yuqoriga davom ettiriladi.

11. $PP_1 = PP_1^1 = PK = 20 \text{ sm}$.

12. P_1 nuqta Q_2^1 nuqta bilan P_1^1 nuqta esa Q^1 nuqta bilan chizg‘ich yordamida tutashtiriladi, o‘rtasidan o‘tkazilgan perpendikulyarda 1,5 sm qo‘yiladi.

13. $PP_2 = 1,5 \text{ sm}$ (pocha qismining ko‘tarilishi).

14. $Q_2, 1,5-2 \text{ sm}, P_1$ nuqtalar va P_2, P_1^1 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi (xuddi shunday ikkinchi tomoni ham bajariladi).

15. $Bl_1, Bl_2 = BkYaA:10-1 = 52:10-1 = 4,2 \text{ sm}$ (orqa bo‘lak chizig‘ining ko‘tarilish nuqtasi).

16. $Bl_1 Bl_2$ nuqtalarni chizg‘ich yordamida tutashtiriladi, yarmining o‘rtasini topib perpendikulyarda yoqoriga 1,5 sm qo‘yiladi va 2-chi perpendikulyarda pastga 1,0 sm qo‘yiladi.

17. $Bl_1, 1,0 \text{ sm}, 1,5 \text{ sm}, Bl_2$ nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

VII-BOB BOLALAR KIYIMI

Bolalar kiyimining asosiy talabları: oddiylik va go'zallik hisoblanadi. Kiyimni loyihalash jarayonida bolaning yoshi, kiyimni kiyish shartsharoitlari, gazlamaning xususiyatlarini e'tiborga olish kerak. Bolalar gavdasining mutanosibligi kattalar gavdasi mutanosibligidan farq qiladi, shuning uchun bolalar kiyimining fasonlari kattalarnikini takrorlamasligi kerak. Yasli va bog'cha yoshidagi qiz bolalar ko'yylaklari asosan yelkadan boshlanadigan oddiyroq ko'yylak, sarafanlar hisoblanadi. Ularda burmalar, koketkalar, koketka ostidan mayda taxlama yoki burmalar bo'lishi mumkin. Maktab yoshidagi qizlar ko'yylaklari esa ko'p hollarda bel qismidan ajralgan, etak qismiga kengaygan bo'ladi.

Bolaning yoshiga qarab gazlama tanlanadi. Yasli va bog'cha yoshidagi qizlar uchun, ya'ni ko'proq turli o'yinlar bilan mashg'ul bo'ladigan qizlar uchun, yengil, qimmat bo'limgan, yorqin rangli gazlamalar ishlatib, ularning gullari har xil, ya'ni mayda gulli, mayda kataklar, hayvonchalar rasmlari bo'lgan gazlamalar bo'lishi mumkin. Ularda kant, sutaj vyunchik, tasmalardan bezak sifatida foydalaniadi.

Maktab yoshidagi qizlarning kiyimlarida yirik katak, yo'l-yo'lli, yirik va mayda gulli, noaniq gulli gazlamalar ishlatiladi. Kiyimning bezagi gazlama rangiga, kiyim vazifasiga qarab tanlanadi. To'r, volan, ryush, burmalar, kashta taxlama, mayda chimdib olish, yoqalar, cho'ntaklar, tugma, kamar, manjetlardan foydalaniib kiyimni bezash mumkin.

O'g'il bolalar kiyimlari ham qulay va chiroqli bo'lishi kerak. Yasli va bog'cha yoshidagi bolalarga ko'pincha oddiy bichimdagি kostyumchiklar, shimplar, shortiklar, kombinizonlar tikish mumkin.

Paxta, shoyi tolali, paxmoq, chiy duxoba, arzon jun tolali gazlamalar tavsiya qilinadi.

Maktab yoshidagi bolalar uchun shim, turli fasondagi ko'yylaklar: koketkali, koketkasiz, yoqali, plankali kiyimlar kiyish tavsiya qilinadi. Bolalar gavdasining tuzilishi va yoshiga qarab 5 guruhga bo'linishi mumkin (3-jadval).


Bolalar kiyimlarining sinflanishi

K/k	Guruh	Bolaning yoshi	Buyum razmeri
1.	Yasli yoshidagilar	0,5-2,5	22, 24, 26
2.	Bog‘cha yoshidagilar	2,5-5,5	28-30
3.	Kichik maktab yoshidagilar	5,5-11,5	32-36
4.	Katta maktab yoshidagilar	11,5-14	38-42
5.	O’smirlar	14-17,5	44-46

7.1. Chaqaloqlar kiyimi

Chaqaloqlar kiyimi (kunduzi va kechasi kiyadigan ko‘ylak – raspashonka, paypoq-ishton – polzunki, qalpoqcha – chepchik va boshqalar) yengil, qulay, havoni yaxshi o’tkazadigan, issiq tutadigan, gigroskopik bo‘lishi kerak. Ichki kiyim bolaning erkin nafas olishiga, badanda qonning harakatlanishiga xalaqit bermaydigan bo‘lishi lozim. Chaqaloqlar kiyimlarini mumkin qadar kamroq chok solib tikish kerak. Ularning kunduzgi raspashonkasining yo oldi, yo orqasi ochiq bo‘ladi. Bu raspashonkalarga mutlaqo tugma qadalmaydi, uning old bo‘laklari bir-biri bilan tasma yoki lentalar bilan bog‘lanadi (52-rasm).

Bolalar kiyimi kunduzgi yoki kechasi kiyilishiga, mavsumga hamda bolaning yoshiga qarab turli gazlamalardan (batist, paxmoq gazlama, bumazeya, surp va shu kabi mayin gazlamalardan) tikiladi. Bunday gazlamalarning rangi asosan ochiq (ko‘p hollarda oq rangda), gullari mayda bo‘lgani ma’qul.



52-rasm. Chaqaloqlar kiyimi

7.1.1. Chaqaloqlar ko'ylakchasi – raspashonkani loyihalash (53-rasm, a)

4-jadval

Bo'laning yoshi	Raspashonka uzunligi	Raspashonka kengligi
1-2-oylik	24	26
2-6-oylik	26	28
6 oydan 1 yoshgacha	28	30

Chizmani loyihalash vaqtida quyidagi 4-jadvaldan foydalanish kerak.

Raspashonkaning taxminiy o'lchovlari (sm).

Chizmani loyihalash uchun quyidagi o'lchovlar olinadi:

1. Raspashonkaning uzunligi – 26 sm – KU.
2. Raspashonkaning kengligi – 28 sm – KK.

Ko'ylak chizmasi

1. To'g'ri burchak chizilib, burchagiga B_n nuqta qo'yiladi.
2. B_nB_n₁ = KK:2 = 28:2 = 14 sm (ko'ylak kengligi).
3. B_nE = KU = 26 sm (ko'ylakning etak chizig'ini belgilash).
4. B_n, B_n₁, E, E₁ nuqtalardan o'tqazib to'g'ri to'rtburchak chiziladi.
5. B_nB_n₂ = 4 sm (bo'yin o'mizi kengligi, barcha razmerlar uchun doimiy qiymat).
6. B_nB_n₃ = 1 sm (orqa bo'yin o'mizi chuqurligi, barcha razmerlar uchun doimiy qiymat).
7. B_n₃, B_n₂ nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi va orqa bo'yin o'mizi egriligi hosil bo'ladi.
8. B_nB_n₄ = 5 sm (old bo'yin o'mizi chuqurligi, barcha razmerlar uchun doimiy qiymat).
9. B_n₄, B_n₂ nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi va old bo'yin o'mizi egriligi hosil bo'ladi.
10. B_n₁B_n₅ = 8-10 sm (yeng uzunligi).
11. B_n₅K = 10-12 sm (yeng kengligi).
12. K nuqtadan o'ng tomonga gorizontal chiziq o'tkaziladi va B_n₁E₁ chiziq bilan kesishgan nuqtaga K₁ nuqta qo'yiladi.
13. KK₂ = 1 sm (yordamchi nuqta, yuqoriga qo'yiladi).

14. $K_1 K_3 = 2$ sm (yordamchi nuqta, o'ngga qo'yiladi).
15. $K_1 K_4 = 3$ sm (yordamchi nuqta, pastga qo'yiladi).
16. $E_1 E_2 = 2$ sm (yon etak qismining kengayishi, doimiy qiymat).
17. K_2, K_3 va K_4 , E_2 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.
18. K_3, K_4 nuqtalar esa ravon egri chiziqlar bilan tutashtiriladi.

7.1.2. Bolalar qalpoqchasini loyihalash (53-rasm, b)

Chizmani loyihalash uchun quyidagi o'lchovlar kerak bo'ladi:

1. QU = 20 sm, qalpoqcha uzunligi (peshananing o'rtaidan bo'yin umurtqasigacha bo'lgan oraliq o'lchanadi).
2. BshYaA = 18 sm, boshning peshana ustidan o'lchanadigan yarim aylanasi.


Qalpoqchani orqa qismini loyihalash

1. To'g'ri burchak chizilib, burchagiga A nuqta qo'yiladi.
2. AV = AG = BshYaA:2+3 = 12 sm (qalpoqcha tomonlari, 3 sm hamma razmerlar uchun bir xil).
3. A, V, G, S nuqtalardan kvadrat hosil qilib chiziladi.
4. Kvadratning hamma tomonlari ikkiga bo'linib, 1, 2, 3, 4 nuqtalar bilan belgilanadi, ya'ni AV:2 = 12:2 = 6 sm.
5. Burchak A va V nuqtalardan bissektrissa chiqazib, unga 2 sm qo'yiladi va mos ravishda 5, 6 nuqtalar bilan belgilanadi.
6. G7 = 2 sm (o'ng tomonga), S8 = 2 sm (chap tomonga) yordamchi nuqtalar belgilanadi, ya'ni ensa qismining kengligi hosil qilinadi.
7. 7, 4, 5, 1, 6, 2, 8 nuqtalar ravon aylana egri chiziq bilan tutashtiriladi.
8. $33'/= 0,5$ sm (ensa qismining ko'tarilishi, doimiy qiymat).
9. 7, 3/, 8 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.


Qalpoqchaning yon qismi

10. To'g'ri burchak chizilib, uning burchagi A nuqta bilan belgilanadi.
11. AV = 18 sm (qalpoqcha tepa qismining o'lchanagan uzunligi).
12. AG = BshYaA:2 = 9 sm (qalpoqcha kengligi).

13. AVGD to‘g‘ri to‘rtburchak chizib olinadi.
14. AA₁ = AV:2 = 18:2 = 9 sm (yordamchi nuqta).
15. A burchakdan bissektrissa chiqazilib unga 1 sm qo‘yiladi va 1 nuqta bilan belgilanadi.
16. G2 = 1 sm (yordamchi nuqta).
17. D, 2, 1, A₁ nuqtalar chizg‘ich yordamida tutashtiriladi.



A



B

53-rasm. Chaqalolqar ko‘ylakchasi va qalpoqchasi chizmasi

7.2. Maktabgacha yoshdagি qiz bolalar ko‘ylagini loyihalash

Ko‘ylakni loyihalash uchun gavdadan olingan quyidagi o‘lchovlar kerak bo‘ladi.

$$BnYaA = 14 \text{ sm}$$

$$KYaA = 30 \text{ sm}$$

$$YeU = 38 \text{ sm}$$

$$YelK = 8,5 \text{ sm}$$

$$YelA = 18 \text{ sm}$$

$$OrK = 12,5$$

$$Yeo‘Ch = 14,5 \text{ sm}$$

$$OIK = 11 \text{ sm}$$

$$YelQ = 20 \text{ sm}$$

$$KM = 6,5 \text{ sm}$$

$$OrbU = 28 \text{ sm}$$

$$KU = 50 \text{ sm}$$

$$OlbU = 27 \text{ sm}$$

Qo‘sishchalar:

QK = 6 sm, bu qo‘sishcha quyidagicha taqsimlanadi:

$QOrK = 1,5 \text{ sm}$
 $QOlK = 1 \text{ sm}$
 $Qyen.o'mizi = 3,5 \text{ cm}$
 $Qyeo'Ch = 1,5-2 \text{ sm}$
 $Qyel = 5-6 \text{ sm.}$

7.2.1. Ko'ylakning to'r qismi (54-rasm)

1. $To'g'ri burchak chizilib, burchagiga Bn nuqta qo'yiladi.$
 2. $BnBl = OrbU = 28 \text{ sm}$ (bel chizig'ini aniqlash).
 3. $BnK = Yeo'Ch + Qyeo'Ch = 14,5 + (1,5-2) = 16,5$ (ko'krak chizig'ini belgilash).
 4. $BnE = KU = 50 \text{ sm}$ (etak chizig'ini belgilash).
 5. Bn, K, Bl, E nuqtalardan o'ng tomonga gorizontal chiziq o'tkaziladi.
 6. $KK_1 = KYaA + QK = 30 + 6 = 36 \text{ sm}$ (ko'ylak kengligi).
 7. K_1 nuqtadan pastga vertikal chiziq o'tkaziladi va bel, etak chiziqlari bilan kesishgan nuqtalar Bl_1, E_1 bilan belgilanadi.
 8. $Bl_1 Bn_1 = OlbU = 27 \text{ sm}$ (old bo'lakda bo'yin chizig'ining o'mni).
 9. Bn_1 nuqtadan chap tomonga gorizontal chiziq chiziladi.
 10. $KK_2 = OrK + QOrK = 12,5 + 1,5 = 14 \text{ sm}$ (orqa kengligini belgilovchi chiziq)
 11. $K_2 K_3 = YelA : 3 + QyeO'mizi = 18 : 3 + 3,5 = 9 \text{ sm}$ (yeng o'mizi kengligi).
 12. K_2, K_3 nuqtalardan bo'yin chizig'i bilan kesishguncha davom ettiriladi va kesishgan nuqtalarni mos ravishda a, a, bilan belgilanadi.
 13. $K_3 K_1 = OIK + QOIK = 11 + 1,5 = 12,5 \text{ sm}$ (old kengligini belgilovchi chiziq).
 14. $K_2 K_4 = K_2 K_3 : 2 = 9 : 2 = 4,5 \text{ sm}$ (yon chiziq).
 15. K_4 nuqtadan pastga vertikal chiziq o'tkaziladi va bel, etak chiziqlari bilan kesishgan nuqtalarni mos ravishda Bl_2, E_2 bilan belgilanadi.
- ### 7.2.2. Ko'ylakning ort bo'lagi (54-rasm)
16. $BnBn_2 = BnYaA : 3 + 1 = 14 : 3 + 1 = 5,5 \text{ sm}$ (bo'yin o'mizi kengligi).

17. $BnBn_3 = BnBn_2 : 3 = 5,5 : 3 = 2$ sm (bo'yin o'mizi chuqurligi).


18. Bn_2, Bn_3 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

19. $BlYe = YeQ = 28$ sm (Yelka chizig'ini aniqlash nuqtasi).


20. Ye va Bn_2 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.

21. $Bn_2Ye_1 = YeK + 1,5 = 8,5 + 1,5 = 10$ sm (Yelka kengligi).

22. $Bn_2v = 3$ sm (vitochkagacha bo'lgan oraliq).



54-rasm. Qiz bolalar ko'ylagining chizmasi



55-rasm. O'tkazma yeng chizmasi

23. v nuqtadan o'rta chiziqqa 4-6 sm parallel chiziq o'tkaziladi va v_1 nuqta bilan belgilanadi. $vv_1 = 4-6$ sm (vitochka uzunligi).

24. $vv_2 = 1,5$ sm (vitochka chuqurligi).

25. $vv_1 = v_1v_2 = 4-6$ sm (vitochka tomonlari).

26. v_2, Ye_1 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.

27. $K_2b = K_2Ye_2 : 2$ (yordamchi nuqta, chizmadan olinadi).

28. $K_2O = 2,5$ sm (bK_2K_4 to'g'ri burchak bissektrissasi).

29. Ye_1, b, O, K_4 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

30. $Bl_2Bl_3 = 1$ sm (bel chizig'ining kengayishi).

31. K_4 , Bl_3 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtirilib, etak qismigacha davom ettiriladi va E_3 nuqta qo'yiladi.

32. $K_4 E_{31} = K_4 E_2$ (yon tomon uzunligi, chizmadan olinadi).

33. E_1 , E_2 , E_{31} nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

7.2.3. Ko'yakning old bo'lagi (54-rasm)

34. $Bn_1 Bn_4 = 1$ sm (Bn_1 nuqtadan chap tomonda belgilanadi).

35. Bn_4 , K_1 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi va etagidan 1 sm pastga tushguncha davom ettiriladi, E_4 nuqta qo'yiladi.

36. $Bn_4 Bn_5 = Bn_4 Bn_6 = Bn_5 Bn_2 = 5,5$ sm (bo'yin o'mizi kengligi va chuqurligi).

37. Bn_5 , Bn_6 nuqtalar tutashtirilib, o'rtasidan chap tomonga perpendikulyar o'tkazilib, unda 1,5 - 2 sm qo'yiladi.

38. Bn_5 , 1,5-2 sm, Bn_6 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

39. $a_1 Ye_2 = 2-4$ sm (yelka chizig'ini aniqlash nuqtasi).

40. Ye_2 , Bn_5 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.

41. $Bn_5 Ye_3 = YelK = 8,5$ sm (yelka kengligi).

42. $K_3 b_1 = K_3 a_1 : 4$ (yordamchi nuqta).

43. b_1 , Ye_3 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtirilib, o'rtasidan yuqoriga o'tkazilgan perpendikulyarda 0,5-1 sm qo'yiladi.

44. $K_3 O_1 = 2$ sm (b_1 , K_3 , K_4 burchak bissektrissasi).

45. Ye_3 , 0,5-1 sm, b_1 , O_1 , K_4 nuqtalar ravon egri bilan tutashtiriladi.

46. $Bl_2 Bl_4 = 1$ sm (chap tomonga bel chizig'i kengayadi).

47. K_4 , Bl_4 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtirilib, etak chizig'igacha davom ettiriladi va kesishish nuqtasi E_5 bilan belgilanadi.

48. $K_4 E_{51} = K_4 E_2$ (yon tomon uzunligi chizmadan olinadi).

49. E_{51} , E_2 , E_4 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

7.2.4. O'tkazma yeng chizmasi (55-rasm)

$YeU = 38$ sm

$YelA = 18$ sm

$TU = 19,5$ sm

$QYeA = 5-6$ sm.

1. To‘g‘ri burchak chizilib, burchakni A nuqta bilan belgilanadi.
2. AE = YeU = 38 sm (yeng uzunligi).
3. 54-rasmdagi old va ort bo‘lak yelka nuqtalari, ya’ni Ye₁ va Ye₃ nuqtalar o‘zaro tutashtiriladi, ikkiga bo‘linib, X nuqta bilan belgilanadi, uni yon chiziqdagi K₄ bilan tutashtiriladi.
4. AO = K₄X-(1,5-2) = 12,5-(1,5-2) = 10,5 sm (yeng boshi balandligi).
5. AT = TU = 19,5 sm (tirsakkacha bo‘lgan uzunlik).
6. A, O, T, E nuqtalardan gorizontal chiziqlar o‘tkaziladi.
7. AA₁ = Yela+QYela = 18+(5-6) = 24 sm.
8. A₁ nuqtadan pastga vertikal chiziq o‘tkaziladi va yeng boshi balandligi bilan kesishgan nuqta O₁, tirsak chizig‘i bilan kesishgan nuqta T₁ etagi bilan kesishgan nuqtalar E₁ bilan belgilanadi.
9. Aa = AA₁:2 = 24:2 = 12 sm (yeng o‘rtasi).
10. Aa₁ = A₁a₂ = Aa:2 = 12:2 = 6 sm (yordamchi nuqtalar).
11. a₁, a, a₂ nuqtalardan pastga etak qismi bilan kesishguncha vertikal chiziqlar o‘tkaziladi va E₂, E₃, E₄ nuqtalar bilan belgilanadi.
12. O, O₁ nuqtalar a nuqta bilan tutashtiriladi, O₂, O₃ nuqtalar hosil bo‘ladi.
13. O₂O₁ chiziqning o‘rtasidan perpendikulyar pastga tushirilib, unda 1,5 sm qo‘yiladi.
14. aO₂ chiziqning o‘rtasidan yuqoriga perpendikulyar o‘tkazilib, unda 1,5 sm qo‘yiladi.
15. aO₃ chiziqning o‘rtasidan yuqoriga perpendikulyar o‘tkazilib, unda 1,5 sm qo‘yiladi.
16. OO₃ chiziq uch bo‘lakka bo‘linib, pastki birinchi qismida pastga perpendikulyar o‘tkazilib, unda 0,5 sm qo‘yiladi.
17. O₃ nuqtadan yuqoriga 1 sm qiymat qo‘yiladi.
18. O, 0,5 sm, II, 1 sm, 1,5 sm, a, 1,5 sm, O₂, 1,5 sm, O nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi, ya’ni yeng boshi egri chizig‘i hosil bo‘ladi.
19. E₄E₅ = 1 sm (old etak qismining ko‘tarilishi).
20. E₂E₆ = 1 sm (orqa etak qismining tushishi).
21. E, E₆, E₃, E₅, E₁ nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

7.3. Maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagini modellashtirish

Maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagi turli-tuman bo'ladi(56-rasm).



56-rasm. Qiz bolalar ko'ylaklari


57-rasmda ko'rsatilgan ko'ylak etak qismiga kengaygan, yengi fonarik, bo'yin o'mizi bo'ylab yotadigan yoqa va taqilmasi ko'ylakning orqa bo'lagida joylashgan. Ko'ylakda aylana shaklda koketkalar bor bo'lib, uni paxta tolali gazlamalardan tikish tavsiya qilinadi (57-rasm, a)

Model chiziqlari quyidagicha kiritiladi. Ko'ylak old va ort asosi qog'ozga tushirib olinadi. Old va ort bo'lak o'rta chiziqlaridan koketkaning uzunligi (8-9 sm) belgilab olinadi. Uning uzunligini ko'p hollarda yelka uzunligiga tenglashtiriladi. Yelka nuqtalaridan pastga yeng o'mizi bo'ylab 3-4 sm qo'yiladi va koketkaning pastki qirqimi ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi. Old va ort bo'lakdagi koketkaning pastki chiziqlari 4 bo'lakka bo'linadi. Bu nuqtalar orqali ko'ylakning etak chizig'i bilan kesishguncha chiziqlar o'tkaziladi. Bu kesish chizig'i hisoblanadi. Koketka qismi qirqib olinadi. Shu chiziqlar orqali etak qismi koketka chizig'iga 0,1-0,3 sm yetmasdan qirqiladi va har bir bo'lak orasi 4-6 sm ga kengaytiriladi (57-rasm, b).

Yengni va yoqalarni hosil qilish avvalgi mavzularda ko'rib chiqilgan (4.8 va 5.2 mavzularga qarang).

Modellashtirish natijasida quyidagi detallar hosil bo'ldi (57-rasm,v):

- 1 – ort etak qismi;
- 2 – old etak qismi;
- 3 – ko'yakning yengi;
- 4 – old bo'lak koketkasi;
- 5 – ort bo'lak koketkasi;
- 6 – ko'yak yoqasi.



57-rasm. Qiz bolalar ko'ylagini modellashtirish

VIII-BOB

KIYIMDA BEZAK ELEMENTLARINI MODELLASHTIRISH

Bezaklar kiyimni bezash uchun ishlatiladi. Bezaklarning turli tuman xillari mavjud. Bezak sifatida ko‘proq furnituralardan (tugmalar, piston, zamok, ilgak va hokazolar), hamda bezak gazlamalardan (tasma, to‘r, lenta va hokazo) foydalaniladi. Bezakning chiroyli turlaridan biri kashta, applikasiya hisoblanadi. Ayrim bezaklarni asosiy yoki bezak gazlamalardan foydalanib ham ishlanadi. Bularga: burmalar, ryush, volanlar, adiplar, mayda taxlamalar, cho‘ntaklar, yelkabandlar kiradi.

Gazlama rangida yoki kontrast rangda berilgan bezak banya qator ham kiyimni bezatadi.

8.1.Ryush

Ryush lentasimon gazlama bezagi bo‘lib, uning o‘rtasidan yig‘iladi va modelning mo‘ljallangan joyiga tikiladi. Ryush 45° burchak ostida bichiladi. Ryush gazlama rangida yoki boshqa ranglarda bo‘lishi mumkin.

Ryush sifatida lentalar va to‘rlardan ham foydalanish mumkin. Ryushning uzunligi ryush tikiladigan joy uzunligidan 1,5-2 baravar uzun bo‘ladi. Ryushning kengligi 3,5-4 sm bo‘ladi. Ryushning ikkala qirqimiga ishlov beriladi (58-rasm, a).

8.2.Burmalar

Burmalar lentasimon gazlama bezagi bo‘lib, uning bir chetidan yig‘iladi va modelning mo‘ljallangan joyiga ulab tikiladi. Burmaning bir tomoni buyumga tikilsa, ikkinchi tomoniga ishlov beriladi. Burmalar kengligi 15 mm dan – 30 sm gacha bo‘ladi. Burmaning uzunligi tikiladigan joy uzunligidan 1,5-2 baravar uzun bo‘ladi (58-rasm, b).

8.3.Volanlar


Volanlar burmalarga o‘xshab ketadi, lekin ular bitta chiziq bo‘ylab bichilmaydi, balki aylana bo‘ylab bichiladi. Volanning bir tomoni bo‘ylab buyumga tikilsa, ikkinchi tomoniga ishlov beriladi.

Volanni bichish ketma-ketligi quyidagicha:

1. Volan tikiladigan joyning uzunligi o'lchanadi.
2. Aylana radiusi topiladi.

$$R = \frac{\text{tikiladigan joy uzunlig}}{6 (\text{doimiy qiyymat})}$$

3. Topilgan radiusda aylana chiziladi.
4. Radiusni volan kengligiga oshirib, ikkinchi marta aylana chiziladi. Volan qirqiladi (58-rasm, v).



58-rasm. Bezak elementlarini modellashtirish


Volanni spiral shaklda ham bichish mumkin. U quyidagi tartibda bajariladi:

1. 2-3 sm teng bo'lgan radiusda aylana chiziladi.
2. Aylanaga volan kengligidagi perpendikulyar o'tkaziladi (masalan 5 sm).
3. Perpendikulyar uchini aylana bilan tutashtiriladi.
4. Aylana atrofida volan kengligida gir aylantirib kerakli uzunlikgacha qo'yib chiqiladi.
5. Volan qirqiladi (58-rasm, g).

IX-BOB

MAKTABGACHA YOSHDAGI O'G'IL BOLALAR KO'YLAGINI LOYIHALASH

O'g'il bolalar ko'yaklari turli fasonlarda bo'lishi mumkin (59-rasm).



59-rasm. O'g'il bolalar ko'yaklari

O'g'il bolalar ko'ylagini loyihalash uchun quyidagi asosiy o'lchovlar va qo'shimchalar kerak bo'ladi.

$$BnYaA = 14,5 \text{ sm}$$

$$YeO'Ch = 15,3 \text{ sm}$$

$$KYaA = 32 \text{ sm}$$

$$YeK = 10 \text{ sm}$$

$$OrbU = 31 \text{ sm}$$

$$OlbU = 29 \text{ sm}$$

$$YelA = 19 \text{ sm}$$

$$KU = 45 \text{ sm}$$

$$OrK = 13,5 \text{ sm}$$

$$YeU = 39 \text{ sm}$$

$$OlK = 11,7 \text{ sm}$$

$$TU = 22 \text{ sm}$$

Qo'shimchalar:

$$QK = 6-8 \text{ sm} \quad \text{bundan}$$

$$QOrK = 1,5 \text{ sm}$$

$$QYelA = 6-8 \text{ sm}$$

$$QOlK = 1 \text{ sm}$$


$$QYeO'Ch = 1,5-2 \text{ sm.}$$

$$QYeO' = 3,5 \text{ sm}$$

9.1. Ko'yakning to'r qismi (60-rasm)

1. To'g'ri burchak chizilib, burchakka Bn nuqta qo'yiladi.
2. BnBl = OrbU = 31 sm (ort bo'lakdagi bel chizig'i).

3. $BnK = Yeo'Ch + QYeo'Ch = 15,3 + (1,5 - 2) = 17,3$ sm.
 4. $BnE = KU = 45$ sm (ko'yak uzunligi).
 5. Bn, K, Bl, E nuqtalardan gorizontal chiziqlar o'tkaziladi.
 6. $KK_1 = KYaA + QK = 32 + (6 - 8) = 38$ sm.
 7. K_1 nuqtadan pastga etak qismi bilan kesishguncha vertikal chiziq o'tkaziladi va mos ravishda $Bl_1 E_1$ nuqtalar bilan belgilanadi.
 8. $Bl_1 Bn_1 = OlbU = 29$ sm (old bo'lakdag'i bel chizig'i).
 9. Bn_1 nuqtadan chap tomonga gorizontal chiziq o'tkaziladi.
 10. $KK_2 = OrK + QOrK = 13,5 + 1,5 = 15$ sm (orqa kenglikni aniqlovchi chiziq holati).
 11. K_2 nuqtadan bo'yin chizig'i bilan kesishguncha vertikal chiziq o'tkaziladi va kesishish nuqtasi a bilan belgilanadi.
 12. $K_2 K_3 = Ye_1 A : 3 + QYe_1 A = 19 : 3 + 3,5 = 9,8$ sm (yeng o'mizi kengligi).
 13. $K_1 K_3 = OrK + QOrK = 11,7 + 1 = 12,7$ sm (old bo'lak kengligini aniqlovchi chiziq).
 14. K_3 nuqtadan bo'yin chizig'i bilan kesishguncha vertikal chiziq o'tkaziladi va kesishish nuqtasi a₁ bilan belgilanadi.



60-rasm. O'g'il bolalar ko'ylagining chizmasi

15. $K_2 K_4 = K_2 K_3 : 2 = 9,8 : 2 = 4,9$ sm (yon chiziq).
16. K_4 nuqtadan pastga etak bilan kesishguncha vertikal chiziq o'tkaziladi va B_1 , E_2 nuqta bilan belgilanadi.

9.2. Ort bo'lak chizmasi

1. $BnBn_2 = BnYaA : 3 + 1 = 14,5 : 3 + 1 = 5,8$ sm (bo'yin o'mizi kengligi).
2. $BnBn_3 = BnBn_2 : 3 = 5,8 : 3 = 1,9$ sm (bo'yin o'mizi chuqurligi).
3. Bn_3 , Bn_2 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
4. $BlYe = OrbU = 31$ sm (yelka chizig'ini aniqlovchi nuqta).
5. Bn_2 va Ye nuqtalar tutashtirilib, o'ng tomonga davom ettiriladi.
6. $Bn_2 Ye_1 = YelK + 1,5 = 10 + 1,5 = 11,5$ sm (Yelka uzunligi).
7. $Bn_2 v = 3$ sm (vitochkagacha bo'lgan oraliq).
8. v nuqtadan pastga o'rta chiziqqa parallel qilib vertikal chiziq o'tkaziladi.
9. $vv_1 = 6$ sm (vitochka uzunligi).
10. $vv_2 = 1,5$ sm (vitochka kengligi).
11. $v_1 v_2 = 6$ sm (vitochka ikkinchi tomon uzunligi).
12. v_2 nuqtani Ye_1 nuqta bilan tutashtiriladi.
13. $K_2 b = K_2 Ye : 2$ (chizmadan olinadigan yordamchi nuqta).
14. $K_2 O = 2$ sm ($bK_2 K_4$ burchak bissektrissasi).
15. E_1 , b , O , K_4 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi..
16. $E_2 E_3 = 1$ sm (etak qismining kengayishi).
17. K_4 , E_3 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.


9.3. Old bo'lak chizmasi

18. $Bn_1 Bn_4 = 1$ sm (yordamchi nuqta, o'rta chiziq holatini o'zgartirish).
19. Bn_4 va K_1 nuqtalar tutashtirilib, etak qismi bilan kesishguncha davom ettiriladi.
20. $Bn_4 Bn_5 = BnBn_2 = 5,8$ sm (bo'yin o'mizi kengligi).
21. $Bn_4 Bn_6 = BnBn_2 = 5,8$ sm (bo'yin o'mizi chuqurligi).
22. Bn_5 , Bn_6 nuqtalar tutashtirilib, o'rtasidan pastga o'tkazilgan perpendikulyarda 1,5-2 sm qo'yiladi.
23. Bn_5 , 1,5-2 sm, Bn_6 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
24. $a_1 Ye_2 = 1,5-2$ sm (yelka chizig'i o'tadigan nuqta).
25. Ye_2 nuqta bilan Bn_5 nuqta tutashtiriladi va chap tomonga dav

26. $Bn_5 Ye_3 = YelK = 10 \text{ sm}$ (yelka kengligi).
27. $K_3 b_1 = K_3 a_1 \cdot 4$ (yordamchi nuqta).
28. $K_3 O_1 = 1,5 \text{ sm}$ ($b_1 K_3 K_4$ burchak bissektrissasi).
29. E_3, b_1, O_1, K_4 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
30. $E_2 E_4 = 1 \text{ sm}$ (etak qismining kengayishi).
31. K_4, E_4 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.

9.4. O'tkazma yeng chizmasi (61-rasm, a)

1. To'g'ri burchak chizib, burchagiga A nuqta qo'yiladi.
2. $AE = YeU = 39 \text{ sm}$ (yeng uzunligi).
3. Asos chizmasidagi Ye_1, Ye_3 nuqtalar tutashtiriladi, o'rtasini topib X bilan belgilanadi va K_4 nuqta bilan birlashtiriladi (60-rasm).
4. $AO = K_4 X - 3,5 = 12,5 - 3,5 = 9 \text{ sm}$ (yeng boshi balandligi, 3,5 sm – hamma razmerlar uchun).
5. A, O, E nuqtalardan gorizontal chiziqlar o'tkaziladi.
6. $AA_1 = YelA + QYelA = 19 + (6 \cdot 8) = 26 \text{ sm}$ (yeng kengligi).



61-rasm. O'tkazma yeng va yoqlar chizmasi

7. A_1 nuqtadan pastga vertikal chiziq o'tkazilib, yeng boshi balandligi chizig'i va etak chizig'i bilan kesishgan nuqtalar O_1, E_1 bilan belgilanadi.
8. $Aa = AA_1 : 2 = 26 : 2 = 13 \text{ sm}$ (yeng o'rtasi).
9. a nuqtadan pastga vertikal chiziq o'tkaziladi va E_2 nuqta aniqlanadi.
10. O_1 va O nuqtalar a nuqta bilan birlashtiriladi.

11. aO_1 chiziq o'rtasini O_2 nuqta bilan belgilanadi.

12. O_1O_2 chiziq o'rtasidan pastga perpendikulyar o'tkazilib, unda 1 sm qo'yiladi.

13. O_2a chiziq o'rtasidan yuqoriga perpendikulyar o'tkazilib, unda 1 sm qo'yiladi.

14. Oa chiziq o'rtasidan yuqoriga perpendikulyar o'tkazilib, unda 1,5 sm qo'yiladi.

15. $O, 1,5 \text{ sm}, a, 1 \text{ sm}, O_2, 1 \text{ sm}, O_1$ nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

16. EE_2 chiziq o'rtasidan perpendikulyarda pastga, E_2E_1 chiziq o'rtasidan perpendikulyarda yuqoriga 1 smdan qo'yiladi.

17. $E, 1 \text{ sm}, E_2, 1 \text{ sm}, E_1$ nuqtalar ravon egri chiziq bilan birlashtiriladi.

18. $EE_3 = EE_2 : 2$ (taqilma o'rni).

19. $E_3E_4 = 6 - 8 \text{ sm}$ (taqilma uzunligi).

9.5. Bolalar ko'ylagida uchraydigan yoqalar

9.5.1. Yaxlit qaytarmali tik yoqa (61-rasm, b)

1. To'g'ri burchak chizilib, burchakka A nuqta qo'yiladi.

2. $AA_1 = BnYaA + (0,5 - 1) = 14,5 + (0,5 - 1) = 15 \text{ sm}$ (yoqa uzunligi).

3. $Aa = 1 - 2 \text{ sm}$ (o'tkazma nuqtasi).

4. a nuqta A_1 nuqta bilan birlashtiriladi va 3 bo'lakka bo'linadi, hamda I, II nuqtalar bilan belgilanadi.

5. I nuqtadan yuqoriga 0,3 sm qo'yiladi.

6. A_1 va II nuqtalar orasiga 2 ga bo'linib, pastga 0,2 sm qo'yiladi.

7. a, 0,3 sm, II, 0,2 sm, A_1 nuqtalar ravon egri chiziq bilan birlashtiriladi (o'tkazma chizig'i).

8. A_1 nuqtadan yuqoriga vertikal chiziq o'tkaziladi.

9. $aa_1 = 7 - 8 \text{ sm}$ (yoqa kengligi).

10. a_1 nuqtadan gorizontal chiziq o'tkazilib, A_1 nuqtadan o'tkazilgan vertikal bilan kesishgan nuqta V bilan belgilanadi.

11. $VV_1 = 3 - 5 \text{ sm}$ (yoqaning uchi).

12. $A_1A_2 = 2 - 2,5 \text{ sm}$ (o'tim haqi).

13. $A_2A_3 = 0,5 - 1 \text{ sm}$ (yordamchi nuqta).

14. $A_1A_4 = 2 - 2,5 \text{ sm}$ (yoqaning tik qismi).

15. $A_2 A_4$ chiziq o'tkazma, ya'ni A_1 chizig'iga parallel qilib o'tkaziladi.
16. A_4 nuqta V_1 nuqta chizg'ich bilan birlashtiriladi.
17. A_4 nuqta A_3 nuqta bilan ravon egri chiziq bilan birlashtiriladi.

9.5.2. Ochiq bortli qaytarma yoqa (61-rasm, v)

1. To'g'ri burchak chizilib, burchakka A nuqta qo'yiladi.
2. $AA_1 = BnYaA + 1 = 14,5 + 1 = 15,5$ sm (yoqa uzunligi).
3. A_1 nuqtadan yuqoriga vertikal chiziq o'tkaziladi.
4. $A_1 A_2 = 1$ sm (yordamchi nuqta).
5. $AA_3 = AA_1 \cdot 2$ (yoqaning o'rtasi).
6. A, A_3, A_2 nuqtalar ravon egri chiziq yordamida tutashtiriladi.
7. $AV = A_1 V_1 = 7-8$ sm (yoqa kengligi).
8. $V_1 V_2 = 3-5$ sm (yoqa uchi).
9. V_2 nuqta A_2 nuqta bilan birlashtiriladi.
10. $VV_3 = 1$ sm (yoqa kengligini to'g'rilash).
11. V_3 nuqta V_1 nuqta bilan birlashtiriladi.

X-BOB

ERKAKLAR KO'YLAGINI LOYIHALASH

Ko'yakni loyihalash uchun gavdadan kerakli o'lchovlar olinadi.

$$BnYaA = 20,5 \text{ sm}$$

$$YelK = 15,5 \text{ sm}$$

$$KYaA = 50,0 \text{ sm}$$

$$OrbU = 45,5 \text{ sm}$$

$$OrK = 20,4 \text{ sm}$$

$$YelQ = 48,5 \text{ sm}$$

$$OlK = 19,2 \text{ sm}$$

$$KU = 75,0 \text{ sm}$$

$$YelA = 32,2 \text{ sm}$$

$$YeU = 62 \text{ sm}$$

$$YeO'Ch = 21,4 \text{ sm}$$

$$BA = 18,4 \text{ sm}$$

$$YelQ (\text{old bo'lak}) = 45,4 \text{ sm}$$

Quyidagi qo'shimchalar kerak bo'ladi:

$$QK = 7,5 \text{ sm}$$

$$QYeO'Ch = 3,5-4,5 \text{ sm}$$

$$QBn = 1,5 \text{ sm}$$

$$QYelA = 8-9 \text{ sm}$$

$QK = 7,5 \text{ sm}$ - ko'krak uchun qo'shimcha quyidagicha taqsimlanadi:

$$\text{- orqa bo'lak uchun} - 30\% = 2,25 \text{ sm}$$

$$\text{- old bo'lak uchun} - 30\% = 2,25 \text{ sm}$$

$$\text{- yeng o'mizi uchun} - 40\% = 3 \text{ sm}.$$

So'ngra quyidagi 5-jadval to'ldiriladi:

5-jadval

Bo'laklar	Belgilanishi	O'lchamni bo'laklar bo'yicha bo'linishi	Ko'krak qo'shimcha-sidni bo'linishi	Bo'laklar-dagi kenglik
Orqa bo'lak	KK_2	20,4	2,25	22,65
Yeng o'mizi	K_2K_3	10,4	3	13,40
Old bo'lak	K_3K_1	19,2	2,25	21,45
Jami		50,0	7,5	57,5

10.1. Ko'yakning to'r qismi (62-rasm)

1. To'g'ri burchak chizilib, burchakni Bn bilan belgilaymiz.
2. $BnE = KU = 75 \text{ sm}$ (ko'yak uzunligi).

3. $BnK = YeO'Ch + QYeO'ch = 21,4 + 3,5 = 24,9$ sm (ko'krak chizig'i oralig'i).

4. $BnBl = OrbU = 45,5$ sm (bel chizig'i oralig'i).

5. $BlBk = OrbU : 2 = 45,5 : 2 = 22,7$ sm (bo'ksa chizig'i oralig'i).

6. $KK_1 = KYaA + QK = 50 + 7,5 = 57,5$ sm (ko'ylak kengligi).

7. K_1 nuqtadan yuqoriga va pastga vertikal chiziq o'tkaziladi – old bo'lak o'rta chizig'i.

8. Bn, K, Bl, Bk, E nuqtalardan o'ng tomonga gorizontal chiziq o'tkaziladi va old bo'lak o'rta chizig'i bilan kesishgan nuqtalarni mos ravishda $Bn_1, K_1, Bl_1, Bk_1, E_1$ bilan belgilanadi.

9. $KK_2 = OrK + QorK = 20,4 + 2,25 = 22,65$ sm (orqa kenglik).

10. $K_2K_3 = YeO'K + QYeO'K = 10,4 + 3 = 13,4$ sm (yeng o'mizi kengligi).

11. $K_3K_1 = OIK + QoIK = 19,2 + 2,25 = 21,45$ sm (old kenglik).

12. K_2K_3 nuqtadan yuqoriga bo'yin chizig'i bilan kesishguncha vertikal chiziq o'tkaziladi.

13. $K_2K_4 = K_2K_3 : 2 = 13,4 : 2 = 6,7$ sm (yon chiziq).

14. K_4 nuqtadan pastga etak qismi bilan kesishguncha vertikal chiziq o'tkaziladi va bel, bo'ksa, etak qismi bilan kesishgan nuqtalarni mos ravishda Bl_2, Bk_2, E_2 bilan belgilanadi.

10.2. Orqa bo'lakni loyihalash (62-rasm)

15. $BnBn_2 = BnYaA : 3 + QBn = 20,5 : 3 + 1,5 = 8,2$ sm (bo'yin o'mizi kengligi).

16. Bn_2 nuqtadan yuqoriga vertikal chiziq o'tkaziladi va unda bo'yin o'mizi balandligi qiymati qo'yiladi.

$Bn_2Bn_3 = BnBn_2 : 2 = 8,2 : 2 = 4,1$ sm.

17. Bn, Bn_3 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

18. Yelka nuqtani topish uchun ikkita yoyning kesishish nuqtasi aniqlanadi.

19. $R_1 = BlYe = YelQ + 2,5 = 48,5 + 2,5 = 51,4$ sm (Yelka nuqtasi, bu yerda 2,5 sm vitochka miqdori).

20. $R_2 = YelK + 0,9 = 15,5 + 0,9 = 16,4$ sm (yelka nuqtasi).

21. Bn_3 va Ye nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.

22. $K_4K_5 = K_2K_4 = 6,7$ sm (markaz nuqtasi)

23. K_5 nuqtadan orqa kenglik chizig'iga perpendikulyar tushiramiz va b nuqta bilan belgilaymiz.

24. K_5 nuqtadan sirkul yordamida b, K_4 nuqtalar tutashtiriladi.


25. b, Ye nuqtalar esa ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

26. $BnT = 5,5$ sm (koketka uzunligi modelga qarab olinadi).

27. T nuqtadan yeng o'mizi egriligi chizig'i bilan kesishguncha gorizontal chiziq o'tkaziladi va T_1 bilan belgilanadi.

28. $T_1 T_2 = 2,5$ sm (vitochka chuqurligi).

29. T_2 , T nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.



62-rasm. Eraklar ko'ylagining chizmasi

10.3. Old bo'lakni loyihalash (62-rasm)

30. $Bn_1 Bn_4 = 1,5-2,5$ sm (bo'yin o'mizi nuqtasini aniqlash).

31. Bn_4 nuqtadan chap tomonga gorizontal chiziq o'tkaziladi va unda bo'yin o'mizi kengligi belgilanadi.

$Bn_4 Bn_5 = Bn Bn_2 - 1,7 = 8,2 - 1,7 = 6,5$ sm (bo'yin o'mizi kengligi).

32. $Bn_4 Bn_6 = Bn_4 Bn_5 + 0,5 = 6,5 + 0,5 = 7,0$ sm (bo'yin o'mizi chuqurligi).

33. Bn_5 , Bn_6 nuqtalar tutashtirilib, o'rtasidan pastga o'tkazilgan perpendikulyarda 1,5 sm qo'yiladi.

34. Bn_5 , 1,5 sm, Bn_6 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
35. Yelka nuqtasini topish uchun ikki yoyni kesishish nuqtasi topiladi.
36. $R_3 = YeQ(\text{old bo'lak}) = 45,4 \text{ sm}$ (yelka nuqtasi).
37. $R_4 = YeK + 0,9 = 15,5 + 0,9 = 16,4 \text{ sm}$ (yelka nuqtasi).
38. Bn_5 , Ye_1 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.
39. K_5 nuqtadan old kengligi chizig'iga perpendikulyar tushirilib b_1 bilan belgilanadi.
40. K_5 nuqtadan sirkul yordamida b_1 , K_4 nuqtadan tutashtiriladi.
41. b_1, Ye_1 nuqta esa ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
42. $E_1 E_3 = 2-2,5 \text{ sm}$ (o'tim haqi).
43. $E_3 E_4 = 4-4,5 \text{ sm}$ (bort adipi).
44. E_3, E_4 nuqtalaridan yuqoriga bo'yin o'yindisi chizig'inining davomi bilan kesishguncha vertikal chiziqlar o'tkaziladi.
45. $E_4 E_5 = 1-1,5 \text{ sm}$ (etak qismining tushishi).
46. E_5, E_2 nuqtalar ravon egri bilan tutashtiriladi.

10.4. O'tkazma yeng chizmasi (63-rasm, a)

1. To'g'ri burchak chizilib, burchak A nuqta bilan belgilanadi.
2. $AE = YeU - (5-6) = 62 - (5-6) = 57 \text{ sm}$ (yeng uzunligi, bu yerda 5-6 manjet kengligi).
3. $AO = 0,15 KYaA + QYeO'Ch + 1,5 = 0,15 \times 50 + 3,5 + 1,5 = 12,5 \text{ sm}$ (yeng boshi balandligi).
4. A, O, E nuqtalardan gorizontal chiziqlar o'tkaziladi.
5. $AA_1 = YeA + QYeA = 32,2 + 9 = 41,2 \text{ sm}$ (yeng kengligi).
6. A_1 nuqtadan pastga vertikal tushiriladi va yeng boshi balandligi chizig'i bilan kesishgan nuqta O_1 , etak qismi bilan kesishgan nuqta E_1 bilan belgilanadi.
7. $Aa = AA_1 : 2 = 41,2 : 2 = 20,6 \text{ sm}$ (yeng o'rtasi).
8. a nuqtadan pastga, vertikal chiziq o'tkaziladi va etak chizig'i bilan kesishgan nuqta E_2 bilan belgilanadi.
9. O, O_1 nuqtalar a nuqta bilan chizg'ich yordamida tutashtiriladi.
10. Oava aO₁ chiziqlar 4 bo'lakka bo'linadi va ular I, II, III bilan belgilanadi.
11. Yengning orqa qismidagi bu bo'laklarda mos ravishda 0,5 sm, 2,0 sm, 2,2 sm yuqoriga perpendikulyarda qo'yiladi.

12. Orqa bo'lak yeng boshi egriligi O, 0,5 sm, 2,0 sm, 2,2 sm, a nuqtalar orqali ravon egri chiziq bilan birlashtiriladi.

13. Yengning old bo'lagida har bir bo'lakda mos ravishda 1,0 sm pastga, 0,6 sm, 1,8 sm yuqoriga perpendikulyarda qo'yildi.

14. Old bo'lak yeng boshi egriligi a, 1,8 sm, 0,6 sm, 1 sm, O nuqtalar orqali ravon egri chiziq bilan birlashtiriladi.

15. $E_2E_3 = E_2E_4 = (BA+QBI+2):2 = (18,4+10+2):2 = 15,2$ sm (etak qismi kengligi).

16. E_3 nuqta O nuqta bilan, E_4 nuqta O₁ nuqta bilan chizg'ich yordamida tutashtiriladi.


17. $E_3E_5 = 4$ sm (taqilma o'mni).

18. $E_5E_6 = 10$ sm (taqilma uzunligi).

19. $E_5E_7 = 4$ sm (taxlama o'rni).

20. $E_7E_8 = 2$ sm (taxlama miqdori).

10.5. Manjet chizmasi (63-rasm, b)



63-rasm. O'tkazma yeng, manjet va tik yoka chizmasi

Buning uchun tomonlari quyidagilarga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chiziladi.

$$1. AV = 0,25 KYaA + 14 = 0,25 \times 50 + 14 = 26,5 \text{ sm} \text{ (manjet uzunligi)}.$$

2. $AA_1 = VV_1 = 5-6$ sm (manjet kengligi).

3. Agar manjet 2 qavatli bo'lsa: $AA_1 = VV_1 = 10-12$ sm.

10.6. Tik yoqa chizmasi (63-rasm, v)

1. To'g'ri burchak chizilib, burchak A nuqta bilan belgilanadi.

2. $AA_1 = 2,5-3,5$ sm (yoqa tikligi).

3. $AA_2 = BnYaA + (2-2,5) + 0,5 = 23$ sm (yoqa uzunligi, bu yerda 2-2,5 o'tim haqi, 0,5 sm erkin turishi uchun).

4. $AO = AA_2 : 2 = 23 : 2 = 11,5$ sm (yarim yoqanining o'rtasi).

5. O nuqtadan yuqoriga perpendikulyar chiqarib, kesishgan nuqtasini O₁ bilan belgilanadi.

6. $A_2A_3 = 2-2,5$ sm (yordamchi nuqtalar).

7. A₃ nuqtadan gorizontal chiziq davom ettiriladi.

A₃A₄ = 1,8-2 sm (bo'yin chuqurchasi nuqtasi).

8. A₄ nuqta O nuqta bilan chizg'ich yordamida tutashtiriladi.

9. A₄O chiziqli A₄ nuqtadan perpendikulyar chiqariladi.

10. A₄A₅ = 2,5-3,5 sm (yoqa tikligi).

11. A₅ nuqta O₁ nuqta bilan chizg'ich yordamida tutashtiriladi.

12. A₅O₁ va A₄O chiziqlar o'rtasidan pastga tushirilgan perpendikulyarda 0,5 sm qo'yiladi.

13. Yoqanining yuqori qismi A₁, O₁, 0,5 sm, A₄ nuqtalar orqali ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

14. Yoqanining buyumga o'tkaziladigan qismi A, O, 05 sm, A₄ nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

XI-BOB

YOSHRDAMCHI DETALLARNI CHIZISH, ANDOZA TAYYORLASH, UNI KO'PAYTIRISH VA GAZLAMAGA JOYLASHTIRISH

11.1. Andozalar loyihasini tuzish

Kiyim detallari andoza bo'yicha bichiladi. Andoza tayyorlashdan oldin kiyim detallarining chizmasida vitochkalar, yon chiziqlar, yeng, shim va boshqa detallar chiziqlarining barcha o'tmas burchaklari ularning uchiga mumkin qadar yaqinroqdan dumaloqlanadi. So'ngra kiyim orqasi va oldi detallarining, yengning ustki va ostki yarmining, shimning old yarmi bilan orqa yarmi juftlashtirilib bir-biriga ulanadigan zihlarining o'zaro mos kelishi tekshiriladi; bunda konstruksiya chiziqlaridan arzimagan darajadagina chetga chiqishga yo'l qo'yiladi. Shu tarzda aniqlangan chizmalarda choklarga hamda kiyim etagini, yeng uchi va shim pochasini, yubka etaklarini bukish uchun qabul qilingan texnologik va texnik shartlarga muvofiq chok haqi belgilanadi.

Andozalar tayyorlash usuliga qarab, asosiy andoza, ikkilamchi (hosila) andoza va yordamchi andoza kabi turlarga ajratiladi, bajaradigan vazifasiga qarab esa, etalon-andoza (originallar), ish andozasi va yordamchi andoza kabi xillarga ajratiladi.

E t a l o n - a n d o z a l a r i s h andazalarini tekshirish uchun kontrol vosita sifatida xizmat qiladi. Ular tajriba sexlarda saqlanadi va original-chizmalar yoki o'lchovlar tabeli bo'yicha kamida kvartalda bir marta tekshirib ko'riladi.

I sh a n d o z a l a r i d a n bevosita texnologik jarayonlarda (kiyim bichish, bichiqlarni tekshirish va hokazolar vaqtida) foydalilanadi. Bu andozalar oyiga kamida bir marta etalon andozalar bo'yicha tekshiriladi. Kesilgan joylardagi chetga chiqishlar normativ-texnik hujjatlarga muvofiq belgilanadi.

Odatda ish andozalari 3-5 komplekt qilib tayyorlanadi.

Yo r d a m c h i a n d o z a l a r i kiyimning qayirib bukish chiziqlari, kesib tashlanadigan joylari, cho'ntaklar, izmalar, tugmalar va hokazolar o'rnini qo'shimcha ravishda belgilash uchun xizmat qiladi.

A s o s i y a n d o z a l a r kiyim loyihasining chizmasi bo'yicha tayyorlanadi; bu andozalarda chok haqi, kiyim etaklarini qayirib bukish, ortiqcha joylarni kesib tashlash haqlari albatta hisobga olingen bo'ladi. Kiyimning orqasi, oldi, yenglari, yon chiziqlariga, yubkaning, shimaning old va orqa yarmiga qo'shib beriladigan chok haqi "Tikilgan kiyimlar, qaviqlar, baxyalar va choklar" davlat standartiga muvofiq belgilanadi.

Aholining shaxsiy buyurtmasiga muvofiq kiyim tikishda asosiy loyiha andozalardan foydalaniladi. Asosiy loyiha andozasini tayyorlagan vaqtida chok haqi berilmaydi. Kiyimni bichganda tegishli joylarda chok haqi tashlab ketiladi, bu esa kiyim balansini yaxshilash maqsadida unga birmuncha o'zgartirish kiritishga va kompozision yechimlarga imkon tug'diradi.

Kiyim detallarining chetlarini to'g'ri va aniq ulash mumkin bo'lishi uchun, andozalarni tayyorlagan vaqtida kertiklar qilinadi.

Asosiy andozalar ishlab chiqilgandan keyin detallarining juftlashtiriladigan konturlari tekshirib ko'rildi.

I k k i l a m c h i (hosila) andozalar asosiy andozalar bo'yicha tayyorlanadi. Ikkilamchi andozalarga quyidagilar kiradi: asosiy gazlamadan tikiladigan detallarning (adip, yoqa) andozalari; astarbop gazlamadan tikiladigan detallarning (kiyimning oldi va orqasi, yengning ustki va ostki qismlari, jiletka astari, yubka astari, shim old yarmining astari) andozalari; oraliq gazlamadan tayyorlanadigan detallar (kiyimning ko'krak qismiga, yelkaga va yoqa oralig'iga qo'yiladigan flezilin yoki dublirin)ning andozalari.

Y o r d a m c h i a n d o z a l a r kiyim detallarining asosiy va ikkilamchi andozalaridan foydalaniib tayyorlanadi.

Yordamchi andozalarda cho'ntaklar, vitochkalar, burmalar, izmalar, tugmalar va hokazolar o'rni ko'rsatiladi.

Asosiy, ikkilamchi va yordamchi etalon-andozalarning hamda ish andozalarining barcha komplektlarida kesiladigan joylardagi chiziqlar bo'yicha (andozaning chetidan 1 mm qochirib) 8-10 sm oralatib tamg'a bosiladi yoki chiziq chiziladi; tamg'a va chiziqlar andazaning eskirish darajasini tekshirib turish uchun kerak.

Andozaning birida, odatda kiyim oldining detalida, barcha detallar va andozalarning vazifasi bo'yicha ro'yhati tuziladi. Tarmoq

standartiga muvofiq ruxsat etiladigan detallar andozalariga (ostki yoqa, bord adipni, yenglar astari vahokazolarga) yo'l qo'yiladigan uloqlar chiziladi.

Ish andozalarida kesish aniqligidan yo'l qo'yiladigan chetga chiqishlarni ko'rsatib qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Kiyimning niyoyat darajada aniq bichilishi talab qilinadigan joylarida (yoqa o'mizi, yelka zihlari, yeng o'mizi, yeng boshi) yo'l qo'yiladigan chetga chiqishlar $+0,1$ sm ga teng; ustki detallarning boshqa joylaridagi yo'l qo'yiladigan chetga chiqishlar $\pm 0,25$ sm, astar va oraliq gazlamadan tayyorlanadigan detallarda $\pm 0,4$ sm ni tashkil etadi.

11.2. Andozalarni texnik ko'paytirish

Andozalarni texnik ko'paytirishdan maqsad mazkur model uchun loyihamanadigan kiyimning barcha razmerlari hamda rostlari uchun andozalar hosil qilishdir.

Andozalarni texnik ko'paytirish ishi bilan model tuzuvchi tashkilotlar, tikuvchilik korxonalarining laboratoriyalari hamda loyihamachilik byurolari shug'ullanadi.

Andozalarni ko'paytirishning qo'lida bajariladigan bir necha usullari bor; shuningdek, ularni EHMlardan foydalanib avtomatlashtirilgan rejimda ko'paytirish ham mumkin.

Andozalarni ko'paytirishning n u r u s u l i shundan iboratki (64-rasm, a), markaz (fokus) sifatida qabul qilingan nuqtadan nur (chiziq)lar chiqariladi; bu nurlar fokusni konstruktiv nuqtalarga tutashtiradi; nurlar (chiziqlar)ning uzunligi hisoblash jadvallaridan olingan orttirish qiymatlari uzunligicha davom ettiriladi.

Bu usul sodda bo'lishi bilan birga, u kamchilikka ham ega; bu kamchilik fokus tanlashga taalluqlidir: konstruktiv nuqtalar soni qancha ko'p bo'lsa, ularni aniqlash shuncha qiyinlashadi. Bu usuldan asosan bosh kiyimlari hamda korsetli kiyimlar ayrim detallarining andozalarini ko'paytirishda foydalaniladi.


G u r u h l a sh u s u l i detallar (asosiy detal va chetki katta yoki kichik detal yoki ikkita chetki detal) andozalarining ikki komplektini gorizontal va vertikal asosiy chiziqlar bo'yicha juftlashdan iborat (64-rasm, b). Bir nom bilan yuritiladigan konstruktiv nuqtalar

to'g'ri chiziqlar yordamida tutashtiriladi va oraliq rostlar sonidan bir raqami (ya'ni birlik) chegirib tashlangandan keyin ($n-1$) qolgan songa bo'linadi.

Bu eng aniq usul bo'lib, har qanday shakldagi detallar andozalarini ko'paytirishda qo'llaniladi. Mazkur usulning asosiy kamchiligi shuki, bunda mehnat va gazlama ko'p sarf bo'ladi. Shunga ko'ra undan nur usuli va proporsional-hisoblash usuli uchun orttirish hisoblash jadvallarini tuzish vaqtidagina foydalaniadi.

P r o p o r s i o n a l - h i s o b l a s h u s u l i gavdaning o'Ichov belgilari o'zgarishiga qarab, har bir konstruktiv nuqtani vertikal va gorizontal yo'nalishlarda (bo'yiga va eniga) siljitimshga asoslangan (64-rasm,v).

Har bir nuqtaning siljitimishi 6-jadvalda plus (+) va minus (-) belgilari bilan ko'rsatilgan.



64-rasm. Andazalarni ko'paytirishning texnik usullari

Andozalarni texnik ko'paytirish jarayoni sermehnat ish bo'lib, ko'p vaqt sarflashni hamda diqqatlikni talab qiladi. Bunda vaqtning tejash uchun andozani ko'paytirish ishini osonlashtiradigan turli moslamalar qo'llaniladi; ularning eng sodda turi orttirish nuqtalari oralig'i ignalar vositasida ko'rsatib qo'yilgan va uglomerli moslamalar yig'indisidan iborat.

Konstruktiv nuqtalarni siljitim belgilari tizimi

Belgilar	Gorizontal yo'nalishda		Vertikal yo'nalishda	
	Razmer yoki rost kattalashtiril-ganda	Razmer yoki rost kichraytiril-ganda	Razmer yoki rost kattalashtiril-ganda	Razmer yoki rost kichraytiril-ganda
+ (plus)	O'ngga	Chapga	Yuqoriga	Pastga
- (minus)	Chapga	O'ngga	Pastga	Yuqoriga

Andozalarni ko'paytirishda "grademaster", "multi grader" variatori kabi juda soddalardan ham foydalaniadi.

Hozirgi vaqtida andozalar mashina usulida, ya'ni EHMLar, grafopostroitelar hamda qirquvchi asboblar yordamida ko'paytiriladi.

11.3. Andozalarni gazlama ustiga qo'yish va bichish

Andozalarni gazlama ustiga qo'yish hamda kiyimni bichish texnik talablarga muvofiq bajarilishi lozim.

Tukli gazlamalar, shuningdek, har xil tusdagi gazlamalardan kiyim bichish vaqtida asosiy gazlamadan tikiladigan detallarning barcha andozalari (adip va ostki yoqalar bundan mustasno) bir tomonqa qaratilishi kerak. Kiyim duxoba, baxmal, nimbauxmal, chiyduxobadan bichilayotganda andozani gazlama tuki pastdan yuqoriga qarab turadigan qilib joylash kerak. Shunda tayyor kiyimning gazlamasi yaltirab turmaydi. Gullari har tomonqa qaratilgan gazlamalarda andozalarni gazlama gullari pastdan yuqoriga yoki, aksincha, yuqoridan pastga qarab turadigan qilib joylash tavsiya etiladi.

Bayka, flanel, movut (drap, sukno) kabi tukli gazlamalar, paxta ipi, melanj ipdan to'qilgan gazlamalardan, zamsha va chiyduxobadan kiyim bichishda andozalarni tuklar pastdan yuqoriga qarab turadigan qilib joylash kerak, shunda kiyimning gazlamasi ortiqcha paxmoqlanmaydi. Umuman, andozaning joylanishi gazlama tukining uzun-qisqaligi va mayin-dag'alligiga bog'liq. Xullas, uzun tukli gazlamada tuklar yuqoridan pastga,

qisqa tukli gazlamalarda pastdan yuqoriga yo'nalgan bo'ladi.

Tuklari ko'zga arang chalinadigan gazlamadan tikiladigan kiyimni bichganda hamma detallarda gazlama tuklarining bir yo'nalishda joylashgan bo'lishiga e'tibor berish kerak. Agar gazlama ustiga ikkita kiyimning andozalarini bir yo'la joylashtirishga to'g'ri kelsa, u holda bir kiyimning jami detallarida gazlama tuklari bir tomona, ikkinchi komplektda esa boshqa tomona qaratilishi lozim.

Sidirg'a rang, yo'l-yo'l yoki katak (tuksiz) gazlamadan kiyim bichishda (agar kataklar, gullar simmetrik joylashgan bo'lsa) detallarning andazalarini qarama-qarshi yo'nalishda joylashga yo'l qo'yiladi. Gullari nosimmetrik, shuningdek, ma'lum yo'nalishda joylashgan gazlamada bir kiyimning hamma detallari andozasi bir tomona qaratib qo'yiladi.

Xol-xol gulli (xollar yirik bo'lsa) yoki yo'l-yo'l gazlamadan kiyim bichishda va tikishda kiyim orqasi va oldining o'rta chizig'i gulning qoq o'rtasiga to'g'ri keltirilishi lozim.

Yo'l-yo'l va katak gazlama ustiga andozalarni joylayotganda ayrim detallarning chetlaridagi, chunonchi: kiyimning oldida – bortlar chetidagi, kiyim orqasida – o'rta chiziqdagi, bort adi plarida – yoqa qaytarmalarining tashqi zihlaridagi, cho'ntaklar, cho'ntak qopqoqlari, yoqa, old va orqa koketkalardagi (taxlama yoki vitachkagacha) yo'llarning yoxud kataklarning bir-biriga mos holda to'g'ri keltirilishiga alohida e'tibor berish kerak.

Kiyimning mazkur detallarini bichayotganda gazlamaning gullarini bir-biriga to'g'ri keltirish uchun undagi takrorlanadigan gulning kattaligida yoki to'la kattaligida chok haqi tashlab ketiladi. Kiyimning orqasi (chokli bo'lgan hollarda) va bort adi plarini bichayotganda chok haqi tashlab ketilmaydi, balki bu detallar gazlamaning chetiga yaqinroq joylashtiriladi. Gazlamaning takrorlanadigan gullari yirik bo'lganda ham shunday talablar qo'yiladi.

Andozalarni gazlama ustiga joylashning bir necha varianti mavjud. Lekin asosiy qoida quyidagidan iborat. Yirik detallarning

andozalarini joylashda ularning to‘g‘ri chiziqli (yoki shunga yaqin) chetlari joylash ramkasining chetiga taqab qo‘yiladi, egri chiziqli chetlari esa maydonchaning o‘rtasiga to‘g‘ri keltiriladi. Yirik andozalar orasiga maydaroqlari joylanadi, bunda yondosh andozalar chetlari bir-biriga tegib turishi lozim.

Yirik va o‘rtacha kattalikdagi andozalarning chetlarini shunday juftlashtirish kerakki, ularning o‘yiqlaridan hosil bo‘lgan ochiq joylarga mayda andazalar sig‘adigan bo‘lsin.

Gazlamaning qiymati tayyor kiyim tannarxining 80-90% ni tashkil etadi; shunga ko‘ra kiyim bichishda gazlamani tejab-tergashning katta ahamiyati bor.

Gazlama ustiga andozalarni joylashdagi tejamkorlik qiyqim chiqishiga qarab belgilanadi. Shu narsa ma’lumki, kiyimning asosiy detallari birin-ketin bo‘yiga joylashtirilsa yoki qiya zihlari bo‘yicha juftlashtirilsa, andozalar oralig‘idan juda oz qiyqim chiqadi.

XII-BOB

KIYIMLARNI MODELLASHTIRISH VA BADIY BEZASH ASOSLARI

12.1. Modellashtirishning maqsadi va bosqichlari

Kiyim insonning ijtimoiy hayotida eng zaruriy ehtiyoji hisoblanadi. Kiyimni modellashtirish tikuvchilik sanoatining eng muhim va murakkab bosqichidir. Modellashtirishning vazifasi keng xalq ommani kiyim-kechakka bo‘lgan ehtiyojini qondirishdan iboratdir. Modellashtirish keng assortimentda maqsadga muvofiq qulay zamonaviy kiyimlar yaratishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi.

Modellashtirishning maqsadi – o‘z san’ati, qudrati bilan jamiyatni estetik tarbiyalash, madaniyatni yuqori pog‘onalarga ko‘tarishdir. Shuningdek, o‘z zamonasining turmush tarzi, fan va texnika yutuqlari, milliy urf-odatlari, iqlimi, sharoitini aks ettirishdir.

Yangi modelarni ijod etish bilan modalar uyi, ishlab chiqarish korxonalari, yakka buyurtma korxonalari va yakka tartibda ishlaydigan rassom modelerlar, muxandis loyihachilar shug‘ullanadilar.

Modellashtirish ikki xil yo‘nalishda olib boriladi:

1. Ijodiy – istiqbol uchun model.
2. Ishlab chiqish korxonalari uchun model.

Ijodiy model. Rassom modelerlar istiqbol uchun bir qancha modellar to‘plamini mavsumiy kiyinish o‘rniga qarab, eskizlarni tayyorlaydilar, bu eskizlar to‘plami avval modalar uyi kengashida ko‘rib tanlanadi va tasdiqlanadi. Modalar uyi kengashining a’zolari:

- a) modalar uyi bosh muhandisi;
- b) bosh loyihachi muhandisi;
- v) bosh muhandis texnologi;
- g) xom ashyo bilan ta’minlovchi korxona vakili;
- ye) savdo xodimlaridan vakil qatnashadi.

Tasdiqlangan eskizlar bo‘yicha modeler, loyihachi, texnolog ishtirokida namuna modellar standart gavdalar uchun tayyorланади. Tayyorланган modellar modalar uyi kengashining yangi hal qiluvchi kengashida tasdiqlanadi va ularni modalar uyining kichik seriyali ishlab chiqarishiga yoki kichik korxonalarga beriladi.

Modalar uyi yoki kichik korxonalarda ishlab chiqarishi kiyimni mehnat taqsimotiga asoslangan bo'lib, 100 dan 300 gacha aholi talabini o'rganish uchun kiyim tayyorlanadi va bu yangi modeldag'i kiyimlar modalar uyi qoshidagi "yangilik" nomli do'konda savdoga qo'yib, aholi talabi o'rganiladi. Har bir model uchun savdo xodimi iste'molchilarning taklif muloxazalarini yozib boradi.

Bundan tashqari, tasdiqlangan modellar namunalari modalar uyi qoshidagi teatrлари namoyishi zalida namoyish qilinadi va moda jurnallari orqali fotosur'atlari targ'ib qilinadi. Shuningdek, savdo markazlarida, televizorda modellarning mavsumi namoyish etib targ'ib qilinadi.

Ishlab chiqarish uchun model shu ishlab chiqarish korxonasi buyurtmasi asosida eskizlar to'plami chizib tayyorlanadi. Bunda shu korxonaning hohishi, xom ashyosi, jihozlari va shart-sharoitlari hisobga olinadi. Bu eskiz va modellarni tasdiqlash vaqtida shu korxonaning ma'sul vakili qatnashadi. So'ng kichik seriyada ishlab chiqarish korxonaning o'zida ishlab chiqarilib, o'ziga tegishli savdo do'konida aholi talabi o'rganiladi.

Bu ikki xil yo'nalishda olib boriladigan ishlar 3 xil bosqichda bajariladi:

1. Badiiy modellash bosqichi.
2. Loyihalash bosqichi.
3. Texnik modellash bosqichi.

Har qanday buyumni tikishga, ya'ni uni bichishga, unga texnologik ishlov berishga kirishishdan oldin birinchidan, uning badiiy loyihasini, sodda qilib aytilganda, eskizini yaratish kerak – bu bosqichga badiiy modellash deyiladi. Ikkinchidan, asosiy konstruksiyani, ya'ni asosini hisoblash va chizish kerak, buni konstruksiyalash deyiladi. Uchinchidan, hisoblashlar va maket yasash yo'li bilan tahlamalarni, burmalar, koketkalar, cho'ntaklar, qirqmalarni va hokazolarni ishlab chiqish kerak – bunga texnik modellash deyiladi.

Bu ishlarning birinchi qismini odatda rassom-modelerlar bajaradilar. Ular modelning rangli eskizini gazlamaganing xususiyati, gavda turi, faslga, kishining yoshiga, kiyimning bezaklariga e'tibor berib chizadilar.

Shuningdek, kerakli ma'lumotlar eskiz tagiga yozib qo'yiladi.

So'nggi ikkitasini esa loyihachilar bajaradilar (ularni ko'pincha loyihachi-rassomlar deyishadi). Ular bir-birlarining ishini yaxshi bilishlari va tushunishlari kerak, chunki modelerlar, loyihachilar va texnologlarning mehnati o'zaro bog'liq va umumiy ishning pirovard natijasi uchun birdek muhim.

Ateleda bichiqchining o'zi modeler-rassom bilan loyihachining ishini bajaraveradi, u texnologik jarayonning hammasini ham biladi, lekin texnologik jarayonni ko'klovchi, qo'l ishlarini bajaruvchi, motorchi, dazmolchi degan maxsus ustalar bajaradilar. Uy sharoitida rassom ham loyihachi ham, texnolog ham bir odamning o'zi bo'ladi. Shuning uchun ishning barcha bosqichlariga — model tanlash va yaratishga, hisoblashga, bichishga va ishlov berishga — to'la ma'lumot bilan qarash kerak.

12.2. Uslub va moda

Kiyimning tarixiy rivojlanishiga, uning o'zgarishiga uslub va moda sabab bo'ladi.

Uslub — bu jamiyat moddiy va ma'naviy madaniyatidagi muhim va xarakterli belgilari obrazli tizimi ijodiy tamoillarining tarixan tarkib topgan bir qadar barqaror mushtarakligidir.

Uslub — bu davning badiiy tili, uning badiiy tavsifidir. Uslub katta tarixiy davrga bog'liq bo'lib, u san'at sohasidagi badiiy didning birligini ko'rsatadi: ya'ni arxitektura, haykaltaroshlik, rassomlik, muzika, adabiyot va dekorativ amaliy san'at orasidagi birlikni ko'rsatadi.

Har bir davning o'ziga xos badiiy uslubi bo'ladi. U jamiyat hayotidagi muhim omillarni aks ettiradi. Har qaysi tarixiy davr o'zi uchun xarakterli shakllarni tanlagan, inson ma'lum darajada kostyumda o'z ifodasini topgan muayyan estetik idealini o'ziga bo'ysundirar edi.


Har qanday tarixiy davrdagi kostyum shaklining zaminida odamning muayyan darajada obrazi va gavdasi (qad-qomati) yotadi. Muayyan ijtimoiy-iqtisodiy formasiya tikuvg'chi rassomlarining qanchalik me'yor, estetik ideal bilan yondoshganligini, moddiy muhit predmetlari

uslubining, ko'p turlilikdagi birligining xarakterini belgilab beradi.

Qadimiy yunon kostyuming uslubi (eramizgacha bo'lgan VII-IV asrlar) gazlama bilan inson shakli va tabiiy mutanosibligining garmonik birga qo'shilganligi bo'lib, bu yelkadan pastga tomon bermalol osilib turadigan kiyimdagisi behisob xilma-xil taxlamalarda, burmalarda o'z ifodasini topgan edi (65-rasm, a). Kiyim to'g'ri to'rburchak gazlamadan iborat bo'lib, uni yelka ustidan bog'lab yoki yelkaga tashlab qo'yib, gavdaning tabiiy go'zalligi va harakat bermalolligini ko'rsatadigan hamda unga halaqit bermaydigan nafis taxlamalar tushirilib burma qilib qo'yilgan.

Romantika uslubi Ovropada X-XII asrlarga tug'ri keladi. Inson moddiy va ma'naviy madaniyatining hamma sohalarida cherkov xukmronlik qilgan, Ovropa mamlakatlari feodalizm mustahkam qaror topgan o'rta asrlar davrida maxsus estetik ideal va shunga mos kostyum xarakteri tarkib topdi (65-rasm, b). Odamzot gavdasining go'zalligidan zavqlanish nomunosib va gunoh ish hisoblanar, shuning uchun gavdani qo'poldan-qo'pol, og'ir kiyimlarga o'rab tashlar edilar.

Gotika uslubi XI-XIII asrlarga to'g'ri kelib, kiyimda cho'ziq shakllarga intilish ko'zga tashlanib turardi. Tor, yuqori qismi qator-qator murakkab taxlamalardan iborat (65-rasm, v), orqa etagi juda uzun ko'ylak, juda baland konussimon bosh kiyim va nihoyatda cho'ziq poyabzal bilan birga qo'shilib qomat ko'rinishini o'zgartirib yuborgan. Ayol kishining ideal obraziga, ya'ni ona madonna obraziga o'xshatilgan edi. Kostyumning yon tomondan ko'rinishida homilador ayol gavdasiga taqlid qilingan edi. Kostyumning murakkab bichim chiziqlari gavdaning egri chiziq plastikasiga muvosiq kelardi. Kostyumda bir tomondan nazokatni, onalikni ta'kidlashga intilish aks etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan cherkov ko'rsatmalariga binoan gavdani yashirishga, uni taxlamalarga ko'mib tashlashga intilish aks etgan edi. Bu davrda erkak va ayollar kiyimlari o'rtasida farq bo'la boshladи, shuningdek tor lif, o'tkazma yeng, quyosh yubkalar paydo bo'ldi.



65-rasm. Kiyim uslublari

kostyuming yelkasi, qorin qismi tagiga har xil tagliklar qo'yadilar. Ayollar kiyimi qimmatbaho gazlamalardan (parcha, atlas, duxobadan) ko'p qavatli qilib tikilib, naqsh jimjimalari, bantlar va to'qilgan to'rlar bilan bezatiladi (66-rasm, b). Erkaklar modasida bant boylangan, to'r tikilgan, qimmatbaho toshlar taqilgan harbiy kostyum (mushketyorlar kostumi) xukmronlik qiladi. Parik modaga kiradi.

Uyg'onish davri uslubida (XIV-XVI asrlar) estetik dunyoqarashlarni qayta baholash yuz beradi. Bu davrda savdosotiq keng rivojlanadi. Ovropaga katta boyliklar barcha mamlakatlardan oqib kela boshlaydi. Odam gavdasining go'zalligidan bahramand bo'lishga e'tibor qaratiladi. Bu davrda parcha, barxat, atlas, duxoba gazlamalardan kiyimlar tikish boshlanadi (66-rasm, a).

Uyg'onish davridagi vazmin garmonik shakllarning aksi tariqasida absolyutizm, dvoryanlar madaniyati va dunyoni bo'lib olish maqsadidagi urushlar ta'sirida tarkib topgan Barokko uslubidagi (XVI-XVIII asr) san'at kelib chiqadi. Gavdaning harakati o'zgaradi, chunki podsho saroylarda oyoq uchida yurish lozim bo'lib, bu poshnali poyabzal paydo bo'lishiga olib keladi. Gavdani munosib qilib ko'rsatish uchun



66-rasm. Kiyim uslublari


XVIII asrda Barokko uslubi o‘rniga nozik, nafis Rokoko uslubi yuzaga keladi (67-rasm, a). Bu uslub o‘zidan oldingi uslubning bevosita davomi bo‘lib, undan shakllarining nazokatliligi, murakkabligi bilan va g‘aroyib jimjimadorligi bilan farq qiladi. Bu uslub uchun mavjud voqelikdan kechib, orzu-umidlar, sevgi-muxabbat olamiga intilish xarakterlidir. Bu uslub ta’sirida manfaatdorlik vazifasiga aloqador bo‘Imagan kostyum qaror topadi. Bunday kostyumda gavdaning bel qismi, ko‘krak, bo‘ksa ko‘zga tashlanib turadi. Kostyum yengil, nozik bo‘lib, boshdan-oyoq gul tikilgan, tyuldan, “gazsimon” gazlamadan, to‘qima to‘rdan “ko‘pchitib” qo‘ygandek tikib bezatiladi. Kostyumda va arxitekturada xashamatlilik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayollar kiyimida juda keng yubkalarga karkaslarda shakl berib turilsa, XVIII asrning oxirgi XIX ast boshlariida Ampir uslubida bu karkaslar yechib tashlanadi. XIX asrdagi ovropacha kostyum tarixi 1789 yildagi fransuz burjua revolyusiyasining bo‘ronli voqealaridan boshlandi.

Yangi davrda kapitalizmning, fan va texnikaning gurkirab taraqqiy etadi, yangi-yangi gazlamalar, tikuv mashinasi paydo bo‘ladi. Bu cheksiz izlanishlar asri, bir-biridan keskin farq qiladigan ikki yo‘nalish: hunarmandlarning ter to‘kib qilgan mehnati yaratgan eski an“anaviy san’at bilan yangi san’atning to‘qnashuv asri edi.

Kostyumda qator-qator shakllar, bichimlar, karkaslardan xalos

bo'lish, ayrim gazlamalarni, bezaklarni va kostyumni manzarali tikishni afzal ko'rish (67-rasm, b) ko'zga tashlanadi. Kiyimdag'i erkinlik va soddalik bu uslubning asosiy elementi hisoblanadi. Ayollar kiyimida yeng va bo'yin qismlarini ochish urf bo'lgan bo'lsa, erkaklar kostyumi ishchanlikka, amaliy faoliyatga moslanib uzil-kesil va batamom ayollar modasiga birinchilikni berib qo'yadi.

XX asr shakl va gazlamalar tanlashda qat'yan xizmatboplikni, soddalikni, bemalollikni o'z prinsipi deb e'lon qiladi. Bu asr – fan-texnika taraqqiyoti asri, sanoat ishlab chiqarishning gurkirab o'sish asri, ayol kishining mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida va ijtimoiy ishlab chiqarishda faol qatnashuvi asri, kosmos asridir.



67-rasm. Kiyim uslublari

Kostyum korset, krinolin va shunga o'xshash sun'iy narsalardan batamom halos qiladi, ayol gavdasini ozod etadi, bashanglik haqidagi eskicha tasavvur o'zgaradi. Kostyuming asosiy intilishi odam harakatlariga maksimal darajada mos bo'lishidan odamni ezmashlik, uni o'ziga bo'ysundirmaslikdan, balki uning hayotiy manfaatlari izidan borishdan, yakkalikni ro'yobga chiqarishdan iborat bo'ladi (67-rasm, v).

XX asr kostyumlarining rivojlanishi natijasida kiyimda bir necha uslublarni tashkil toptirdi: klassik, sport va fantaziya.

Klassik uslubdagi kiyimlar si poligi, formasining ixchamligi,

detallari juda kamligi, kiyim mutanosibliklari kishi gavdasining tabiiy mutanosibliklariga mosligi bilan ajralib turadi. Bunday kiyimning asosiy qismlari gavdaning tegishli qismlari ustiga aniq to'g'ri keladi. Klassik uslubda tikilgan kiyimda bezaklar deyarli uchramaydi.

S p o r t uslubida tikilgan kiyim shaklining erkinligi, yeng bichimining har xilligi, ustidan qoplangan cho'ntaklari, cho'ntak qopqoqlari, belbandlar, koketkalar, baxyalar, to'qa, ilgak, piston, tugma kabi furnituralar mavjudligi bilan ajralib turadi.

F a n t a z i ya uslubida tikilgan kiyim detallar shaklining har xilligi va savatliligi bilan farq qiladi. Uning qismlari g'ayri oddiy, konstruktiv chiziqlari e'tiborni jalb qilmaydi, ko'pincha xalq motivlaridan foydalanilgan bo'ladi.

Kiyimning uslubini birinchi navbatda uning bichimi belgilaydi. Bichim, birinchidan, yelka chizig'i bilan yengning shakli o'rtasidagi nisbat bilan va, ikkinchidan, kiyimning belgacha uzunligi, yubkaning shakli hamda uzunligi bilan ifodalanadi.

Hamma buyumlarning uslub jihatdan yagonaligini saqlash juda muhim. Bir kiyimning o'zida har xil uslubning aralash-quralash bo'lib ketishi ko'zga yaqqol tashlanadi, bunda puxta o'ylab yaratilgan kompozisiyalar ham buziladi.

Moda turmushning tashqi ko'rinishida, ko'proq kiyimda namoyon bo'lagan biron didning muayyan ijtimoiy muhitda ozroq vaqt xukmron bo'lib turishidir (V.Dal).

Moda kiyim paydo bo'lgan davrdan boshlab qaror topmoqda, ko'paymoqda, takomillashmoqda va o'zgarmoqda. Parij, London va Rimdagi mashhur kiyim modellar uylarida va boshqa mamlakatlarda paydo bo'lgan modellar yaratuvchi firmalarda istiqboldagi yangi modellar namoyish qilinmoqda. Eng istiqbolli modellar mashhur moda jurnallarida e'lon qilinadi.

Moda jurnallari birinchi bo'lib XVII asrda Fransiyaning Lion shahrida bosib chiqarilgan bo'lib, unda yangi kiyimlar, ularni kiyish yo'llari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuning uchun ham Fransiyani modalar vatani deb atashadi. Moda jurnallari kishining va kiyimning yangi estetik qiyofasi va ko'rinishini tashviqot qiladigan, iste'molchilar talab-ehtiyojini qondiradigan va kuchaytiradigan vosita hisoblanadi.

Hozirgi kundagi loyihachilar o'zlarining kundalik ishlarida duch kelinadigan ko'p sonli moda jurnallari, kataloglar, moda albomlaridan ishning ko'zini bilib foydalana olishlari lozim.

Moda bilan uslub o'rtasidagi farq zamirida ularning ijtimoiy vazifalari yotadi. Uslubda jamiyatning o'tmishiga va tevarak-atrofdagi dunyoga munosabati umuman ifoda topsa, modada ana shu jamiyat ichidagi zamondoshlarning o'zaro bog'liqligi aks etadi.

"Umuman modaga hayratlanib va xayrihohlik bilan qaraydilar. Undan zavqlanadilar, unga ergashadilar. Lekin hamma emas. Modani yoqtirmaydiganlar ham bo'lib, ular o'zining yetuk bo'limgan yoki ochiqdan-ochiq konservativ didlarini boshqalarga o'tkazish mumkin deb hisoblaydilar. Modelerlarning har bir yangi taklifiga ashaddiy qarshilik ko'rsatadilar. Ular zamonaviy kiyangan kishi ketidan hayriqib kulgi ko'taradilar. Biroq hali hech kim vaqt ni to'xtata olgan emas!". (V.Zaysev. Takaya izmenchevaya moda).

Almashib turish modaning eng muhim xususiyati hisoblanadi. Moda vaqtinchalik va o'tib ketadigan tushuncha-ku, lekin unda go'zallik tushunchasi sifatida saqlanib qoladigan estetik topilmalar ham bo'ladi.

Moda – bu zamonaviy degani. Moda insonning yangilanib turishdek tabiiy intilishiga mos bo'ladi. Moda insonning tur mush madaniyati va estetikasini olg'a tomon yetaklab boradi. U zamonaviylik nuqtai nazaridan eng ma'qul yechimlarni tanlab oladi. "Moda – bu yangilanish! Bu tabiat rioxasi qiladigan prinsip! Daraxt eski bargini, odam esa jonga tekkan kiyimini tashlaydi. Narsalar haddan tashqari o'r ganish bo'lib ketsa, odam ulardan tez charchaydigan bo'lib qoladi. Moda zerikarli bir xillikdan xalos qiladi. Odamlar bir-biriga yoqishni xohlaydi: chiroyli kiyinsam, yaxshi kiyinsam, deydi – bu tabiiy extiyoj" (Per Karden).

Yangi modali kiyimlarni rassom – modelerlar yaratadilar va targ'ibot qiladilar. Bunday kiyimlarni baholovchisi esa aholi hisoblanadi. Modali kiyimlar sekin-asta kirib keladi, ko'payadi va so'nadi, ya'ni sikl yuzaga keladi. Bunday sikllar 6-10 yilgacha cho'zilishi mumkin. 3, 6 yillik sikllarga ko'zga ko'proq tashlanib, unda kostyumning tashqi ko'rinishi o'zgaradi, ya'ni gazlamaning

rangi va sirti, kiyimdagи chiziqlari, bezaklari o'z ko'rinishini o'zgartiradi.

Moda jamiyat bilan birgalikda o'sadi va taraqqiy topadi, u - zamona farzandi-yu, lekin o'zining qat'iyatli xarakteri bor. U o'sib, semirib boradi-da, nihoyat, chegarasiga yetganda buzilib ketadi. Shuning uchun ham modali kiyim 3 bosqichda yashaydi:

1-bosqich. Modaning kirib kelishi.

2-bosqich. Modaning rivojlanishi.

3-bosqich. Modaning so'nishi.

Modaning kelib chiqishida yoshlar modasi avangard bo'lib hisoblanadi. Yoshshlar moda ijodkorlari bo'ladi. Kattalar modasi bir muncha konservativ bo'lib, yoshlar modasidan tasdiqlangan, isbotlangan elementlarni qabul qilib oladi va bir oz oddiy, bosiq, vazmin tarzda o'zida qo'llaydi. Bolalar modasi esa yoshlar modasidan ancha sho'x, quvnoq, ko'zga tashlangan elementlarni olib, oddiylashtirib, yanada jo'shqin ranglardan foydalaniб, quvnoq qilib o'zida aks ettiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy formasiya, iqlim, tevarak atrofdagi tabiat xalq an'analari, turmush tarzi, yirik ijtimoiy-siyosiy voqealar, fan, texnika, sportga ommaviy qiziqishi, yangi gazlamalar paydo bo'lishi, kosmik davr kabi turli tuman omillar modani shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

12.3. Kiyim kompozisiyasi asoslari

K o m p o z i s i y a - badiiy asar shaklining barcha elementlarini mazkur asarning obrazli g'oyaviy-badiiy mazmunini ifoda etuvchi uzviy bir butunlikka birlashtirish.

Kiyim kompozisiyasi – kiyim shakli barcha elementlarini uning mazmunini ifoda etadigan birlikni barpo etish vositalari yordamida tuzib chiqish. Kiyimning mazmuni uning nimaga mo'ljallanganiga qarab belgilanadi. Kiyim shaklining kompozisiyasi uning mazmunini ochib berishga olib kelishi kerak.

Har qanday yaratilgan modelda uni tashkil etgan barcha elementlar o'rinli bo'lishi kerak. Ortiqcha yoki muallif fikrini yetarlichcha yaxshi ifoda etmaydigan nimaiki bo'lsa, hammasi olib tashlanishi kerak. Kompozisiya maxsus badiiy tildan iborat bo'lib, uning yordamida san'atkori borliqni aks ettiruvchi g'oya va tuyg'ularni

tasvirlab beradi. San'atkor yaratgan har bir modelning ko'rinishi insonga ta'sir etishga qodir emosional va ta'sirchan bo'lishi kerak. Kiyim har yerda va hamma vaqt odam bilan birga bo'lib, unga ishonch, qadr-qimmat, yaratuvchanlik tuyg'ularini baxsh etishi yoki aksincha, uni tushkunlik va xafalik holatiga duchor qilishi mumkin.

Shunday qilib, kiyimning ko'rinishinii ifodaviyligiga kompozisiya san'ati vositasida, ya'ni kiyimni tashkil etuvchi hajmlar, ranglar, chiziqlar, detallar va bezak elementlarini yagona uzviy bir butun qilib birlashtirish vositasida erishiladi.

Biroq modelarning kiyim va butun kostyum ko'rinishi ustidagi ishi eng muhim jihatga, ya'ni vazifa nuqtai nazaridan qulay, hayotda o'rinali kiyim yaratishga bo'ysundirilgan bo'libgina qolmay, balki ifodali bo'lishi ham kerak.

Kompozisiya san'ati san'atkorning qiziq va muhim jihatlarni ko'ra bilish va alohida tarqoq komponentlarni bir butunlikka uyuştira bilish mahoratidan iborat.

Modeler-rassom o'z ishida uning tasavvuri va fantaziyasini ozuqa berib boyitadigan turli ijodiy manbalarga murojaat etadi. Xalqning tarixiy o'tmishi va hozirgi jamiyat hayoti, atrof-tabiatning xilmayilligi, tarixiy kiyimlar va xalq kiyimlarining boyligi, badiiy adabiyot, musiqa, kino, teatr va hokazolar hozirgi zamon rassomi ijodining manbalari bo'lib xizmat qiladi. Rassom o'ylarini yetishtirishga va aniqlashtirishga yordam beradigan ayrim motivlardan foydalaniib, ana shu manbalardan o'z g'oyalari va obrazlarini to'plab boradi.

Demak, kiyim kompozisiyasi — kiyimning tuzilishi hamda bichimini hosil qiluvchi detallarning birlashmasi bo'lib, uning mazmunini ifodalaydi. Kompozisiyadan maqsad - funksional, texnik va texnologik jihatdan takomillashtirilgan zamonaviy forma hosil qilish bilan birga, chiroqli, uyg'un, hamma qismlari o'zaro mutanosib, majoziy, atrof-muhitga uslubiy jihatdan bog'liq bichim hosil qilishdir.

Kiyimning kompozisiyasi ustida ishlovchi mutaxassisning asosiy vazifasi kompozisiya elementlarini kompozision vositalar yordamida uyg'unlashtirib, kiyimning aniq vazifasi va maqsadini ifodalaydigan birikma hosil qilishdir.

Kiyim kompozisiyasining asosiy belgilari: mutanosiblik, bichim, chiziqlar, ritm, gazlama va bezak, rang, illyuziya, simmetriya va asimmetriya.

Mutanosiblik – bu kiyim qismlarining o'lchamlariga binoan bir-biriga va odam gavdasiga taqqoslangan nisbatlari. Kiyimning bo'yi, eni ko'krak qismi bilan yubkasining, yenglarining, yoqasining, bosh kiyimining, detallarining hajmi, uzunligi, kiyim kiyilgan qad-qomatni ko'rib idrok etishga, uning o'lchamlari monandligini fikran baholashga ta'sir ko'rsatadi. Inson gavdasining tabiiy mutanosibligiga yaqin bo'lgan nisbatlar eng chiroyli, mukammal, «to'g'ri» ko'rindi. Ma'lumki, boshning uzunligi kishi bo'yining uzunligiga 8 martacha joylashadi, bel chizig'i esa tanani taxminan 3:5 nisbatda ikkiga bo'ladi. Turli yo'llar bilan tabiatdagi, san'atdagi monandlikni izlagan qadimgi rassomlar, arxitektorlar, olimlarning tadqiqotlarida, chizmalarida, hisoblashlarida «oltin kesim» tushunchasini uchratamiz; bu tushuncha matematik yo'lda 3:5, 5:8, 8:13, 13:21 va hokazo sonlar nisbati tarzida ifoda etiladi. Bunda kichik qism katta qismga xuddi katta qism butun qismga nisbati kabi bo'ladi. «Oltin kesim» mutanosibliklari eng yaxshi arxitektura asarlarida takrorlanadi, jonli tabiatda ko'p marta uchraydi – ya`ni qonuniy, doimiy hisoblanadi. Odam figurasi orasida ham mana shu mutanosibliklar takrorlangani eng mutanosib hisoblanadi. Kostyumda ham xuddi shunday (68-rasm).

Kostyumda tabiiy mutanosibliklarni ham, ataylab buzilgan mutanosibliklarni ham ishlatish mumkin. Bu yerda turli variantlarni batafsil ko'rib chiqishning iloji yo'q, chunki buning uchun kompozisiya qonunlarini jiddiy o'rganish kerak. Tabiiy mutanosibliklar, odatda, har qanday figura uchun "foyDALI" ekanini yodda saqlash kerak; ayni vaqtda kiydirib ko'rish vaqtida biron chiziqli sal nari-beri surib, "izlab ko'rib" (masalan, bel chizig'ini ozroq ko'tarish yoki tushirish, yelkalarni toraytirish yoki kengaytirish, ko'ylak, yeng uzunligini, yoqa, cho'ntaklar, belbog' o'lchamini sal o'zgartirish mumkin) gavda tuzilishi kamchiliklarini tuzatish mumkin.




68-rasm. Odam gavdasi va kostyum mutanosibligi

Xuddi shu yerda, mutanosiblik haqida gapirilayotganda, Qadimgi Rossiyadagi va antik Yunonistondagi bir-biriga o'xshamaydigan, ammo monandligi, mutanosibliklari, chiziqlari, bezaklari genial badiiy hisoblanganligi, tabiatga qo'shilib ketishining tabiiylici jihatidan yaqin arxitektura obidalarining o'lmas go'zalligini eslatib o'tish joiz bo'ladi. Kiyim yaratish ko'p jihatdan me'morlikka o'xshab ketadi – bu ikkala san'at ham odamlarga bevosita tegishli, odamning tabiiy mutanosibliklaridan kelib chiqqan: nihoyat, kiyim odam bilan birga deyarli hamma vaqt binolar orasida, ichki xonalarda bo'ladi. Binolar ham o'z navbatida tabiiy muhitda, shahar arxitekturasi orasida bo'ladi. Shuning uchun turli zamonlarda arxitektura va kiyim o'z davrining badiiy uslubini aks ettirgan: xalq kiyimi esa eng yaxshi, eng mukammal, eng «mangu» nima bo'lsa, hammasini o'ziga singdirib asrlar mobaynida saqlaydi.

Moda jurnallaridagi maqolalarni, rasmlar izohini ko'rayotganda, avvalo “siluet” (**bichim**) tushunchasiga duch kelamiz. Kiyim shaklining tekislikka tushirilgan eng ifodali proeksiyasi kostyumning silueti (**bichimi**) deb ataladi (69-rasm). Bu fransuzcha so'z bo'lib, har qanday predmetning tashqi chiziqlari, uning soyasi shunday ataladi. Old yoki yon tomondan qaragandagi bichim ko'rinishidan o'tgan asrlardagi va

asrimizning o'tgan yillardagi kostyumlarni qynalmay farq qilamiz. O'ziga xosligi va betakrorligiga qaramay, ularni, shuningdek hozirgi kostyumlarni ham, bo'yи va eni odam qomatining mutanosibliklariga yaqin oddiy geometrik shakklardan biri - to'rtburchakli, trapesiya, uchburchak,



69 – rasm. Kiyimda bichimlar

oval ichiga “sig‘dirsa” bo‘ladi. Bunda, masalan, to‘g‘ri bichim deyilganda, to‘g‘ri burchaklikning xuddi o‘ziga o‘xshashlik - chiziqlari, burchaklari to‘ppa-to‘g‘ri bo‘lishi nazarda tutilmaydi. Odam kostyum kiyganda hosil bo‘ladigan umumiy taassurotgina nazarda tutiladi.

T o‘ g‘ r i b i ch i m – eng “universal” bichim, buni, shuningdek trapesiya shaklidagi pastga tomon sal kengaya borgan bichimni har qanday yoshli va har qanday qomatli odamlarga tavsija etsa bo‘ladi. Kiyimning pastki tomon yoki, aksincha, yelkalari tomon anchagini kengaya borganligi uchburchak tasavvurini hosil qiladi va bunday kiyim, odatda, qotma gavdalilarga ko‘proq yarashadi.

B y e l i q i s i q b i ch i m n i qisqaroq tomoni bir-biriga qaratib qo‘yilgan ikkita trapesiyaga yoki uchma-uch qo‘yilgan ikkita uchburchakka o‘xshatsa bo‘ladi. Bunday bichim kiyimning yuqori tomoni va etagining yengilgina, bemalol formasi yoki haykaldagidek aniq formasi bilan ingichka beli o‘rtasida kontrast bo‘lgandagina ko‘zga yaxshi ko‘rinadi.

O v a l b i ch i m n i moda kamdan kam taklif etadi va u ko‘p umr ko‘rmaydi, chunki gavda tuzilishining tabiiy mutanosibliklariga zid bo‘lib, ko‘zga yaxshi tashlanmaydi.

Kiyimning ayrim qismlari va detallarining konturlariga **chiziq** deb qarash mumkin. Kiyim kompozisiyasi to‘g‘ri, egri va siniq chiziqlardan tuziladi.

a quyidagi asosiy chiziq guruhlari bo‘ladi:

a) B i ch i m ch i z i q l a r i - shaklning tashqi konturlarini chegaralovchi chiziqlar (70-rasm, a).



70-rasm.
Kiyimdagи chiziq turlari

b) K o n s t r u k t i v ch i z i q l a r - kiyim shaklini hosil qilishdagina qatnashadigan chiziqlar: yelka choklari, yon choklar, vitochkalar, yeng o'tkazish choklari va hokazo (70-rasm, a).

v) K o n s t r u k t i v – d y e k o r a t i v ch i z i q l a r ham shakl hosil qiluvchi, ham dekorativ vazifalarni bajaruvchi chiziqlar: bo'rtmalar, koketkalarni ulash choklari, qirqmalar, mayda taxlamalar, taxlamalar, bo'rtma burmalar, chet el choklari, burmalar va hokazo (70-rasm, b).

g) D y e k o r a t i v ch i z i q l a r - dekorativ vazifalarnigina bajaruvchi chiziqlar: qo'yma burmalar, ikki tomonlama qo'yma burmalar, tasmalar, to'rlar, bezak detallar, furnitura, kashtalar, bantlar va hokazo (70-rasm, v, g).

Aytib o'tilgan chiziqlar kostyum kiygan qad-qomatni ko'rib idrok qilinishini o'zgartirish xususiyatiga ega. Masalan, bo'ylama tushgan choklar gavdaning ortiqcha kengligini o'g'irlab, "bo'lib tashlab", uni uzaytiradi (71-rasm, a). Gorizontal qirqimlar, koketkalar, qo'yma burmalar massivroq, vazminroq ko'rinish taassurotini beradi, ular bochkadagi gardish singari, o'z turgan joyni "kengaytirganday"



71-rasm. Kiyimdagи chiziqlarning joylashishi

bo'ladi (71-rasm, b). Diagonal, qiya chiziqlar, ayniqsa assimetrik bo'lsa, harakat hissini hosil qiladi (71-rasm, v). Bunda odamni ko'z qarashi chiziqlarning yaqinlashuvi va uzoqlashuviga ergashib, ularning yo'nalishiga itoat eta borishi natijasida shunday bo'lib chiqadi.

o'rib chiqilgandan shunday hulosa kelib chiqadi – yo'l-yo'l gazlamani to'la gavdalilar uchun “uzunasiga”, qotma gavdalilar uchun esa “ko'ndalangiga” bichish tavsiya qilinadi.

Chiziqlar kiyimda katta rol o'ynaydi, chunki ular nazarimizning shaklning konstruktiv yuzasi bo'ylab yetaklab, harakat hosil qiladi, bu kishi gavdasini ma'lum ko'rinishda idrok etilishiga ta'sir qiladi (gavdani uzaytirib yoki pasaytirib, gavda hajmini kengaytirib yoki kichraytirib ko'rsatadi). Bundan tashqari nazarimiz harakatini chiziqlar yordamida gavdaning ma'lum qismida (belda, bo'ksada, ko'krakda) to'xtatib turish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Ritm tushunchasi umumiyo ko'rinishda bu shakl elementlarining navbatma-navbat qonuniy almashinib turishi.

Kostyum kompozisiyasidagi ritm kostyumin tashkil etgan shaklning hamma qismlarini bir-biriga bog'lovchi vositalardan biri hisoblanadi. Ritm har qanday asarga musiqiylik baxsh etadi, uni harakatga soladi. Ritm sababli bosh kompozision g'oyaning jarangdorligi ortadi, muayyan tartib va raxonlik kiritiladi.

Shakl elementlarining va ular o'rtasidagi intervalning takroriyligi ritmnинг xarakterli alomati hisoblanadi.

Shakllarning va ular o'rtasidagi intervallarning birin-ketin qonuniy o'zgara borishi (kattalashishi yoki kichraya borishi) shakllar joylanishining ritmik tarkibini deyiladi. Ritmik tartiblar quyidagi sxemalarda bo'lishi mumkin:

a) teng elementlar takrorlanib turadi-yu, ular o'rtasidagi intervallar o'zgara boradi;

b) shakl elementlari kattalashib yoki kichkinalashib boradi-yu, interval o'zgarmaydi;

v) shakl elementlari ham, ular o'rtasidagi intervallar ham kattalasha yoki kichraya boradi.

Ritm kamaya boradigan yoki orta boradigan bo'ladi. Bundagi sur'at sekin, o'rtacha, tez bo'lishi mumkin.

Kostyum kompozisiyasida ritmik tuzilishning birgina turidan foydalanish kamdan kam uchraydi.

Shaklning hamma elementlari – hajm, chiziqlar, faktura, detallar, bezak va hokazolar ritmik tuzilishi mumkin.

Kostyum elementlarining birlashish sxemasiga binoan ritmik tuzilish vertikal, gorizontal, diogonal, spiral, nursimon, radial, bir tomonli, qarama-qarshi va aralash yo‘nalishli bo‘ladi (72-rasm).



72-rasm. Kiyimdagি ritmik tartib

Elementlarning rivojlana borishida o‘z qonuniyat borligi kompozisiyani ritmik hal qilishning xarakterli xususiyatidir.

Simmetriya va assimetriya. Simmetriya – kompozisiyaning eng yorqin va ko‘zga tashlanib turadigan xususiyatlaridan biri.

Kiyim kompozisiyasida simmetriya masalalari muhim rol o‘ynaydi. Bu ikki jihatda: gazlamadagi rasm kompozisiyasida va kostyumning o‘zini shakllantirishda o‘z aksini topadi. Kostyumlarda kiyimning alohida qismlari, uning detallari, rangi, bezagi, furniturasи va shu kabilarni simmetrik joylashtirilishi mumkin (73-rasm).

Tabiatda absolyut simmetriya bo‘lmaydi. Kostyumda ham ko‘pincha simmetriyadan chetga chiqishlar bo‘lib, bu uning nimaga mo‘ljallanganiga, ishlatish sharoitining xarakteriga, ishlab chiqarishdagi texnologik sharoitiga, badiiy obrazlilik vazifalariga bog‘liq bo‘ladi.

Asimmetrik kompozisiya ham simmetrik kompozisiya singari funksional vazifani hal etishning ob‘ektiv natijasi bo‘ladi. Lekin asimmetrik shakl ustida ishlash murakkabroq, lekin kompozision

muvozanatni nozik his etishni, badiiy butunlikni ta'minlash darajasida taraqqiy topgan intuisiyani talab qiladi.

Asimmetriyaning kundalik kostyum kompozisiyasida yorqin ko'zga tashlanadigan emasligi undan shakl xususiyatlarining ozgina qismida foydalanishni bildiradi. Amalda bunday kompozisiyalar simmetriya ichida asimmetriyanı ko'rsatish maqsadida hal qilinadi (74-rasm).. Bashang kiyimdagı yorqin ifoda etilgan asimetriya kiyimni odatdagidan boshqacha, yorqin ko'rinishli dinamik qilib turadi (75-rasm).



73-rasm. Kiyim simmetriyası



74-rasm. Simmetriya ichidagi asimetrik yechim.



75-rasm. Kiyim asimetriyası

Kiyim gazlamasi. Kiyimga hajmiy forma deb qarab, uni qanday gazlamadan (gazlama, trikotaj, charm, sun'iy va tabiiy mo'yna, to'qilmay tayyorlangan gazlama va hokazolardan) tikish maqsadga muvofiqligini bilish kerak. Har bir gazlamaning faqat o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi: gigienik xususiyatlar (nam va havo o'tkazuvchanlik, gigroskopiklik, issiqdan himoyalash va boshqalar) va fizik-mexanik xususiyatlar (dag'allik, qoli planuvchanlik, g'ijimlanish, elastiklik, kirishish, cho'ziluvchanlik va boshqalar) shular jumlasidandir. Bu xususiyatlar mazkur gazlamadan qanday maqsadlarga mo'ljallangan va qanday formadagi kiyimlar tikish mumkinligini aniqlab beradi.

Modellashtirish vaqtida gazlamaning struktura xossalardan foydalilanadi. Gazlama strukturasining xilma-xilligiga iplarni turlicha

o‘rilishda to‘qish, har xil iplar (ipak, paxtaipi, jun ip, sintetik va sun’iy tola)dan foydalanish yo‘li bilan erishiladi; shunday iplardan to‘qilgan gazlamadagi xususiyatlar trikotajda hamda noto‘qima gazlamalarda bo‘lmaydi.

Krep to‘qilishidagi yupqa mayin shoyi va jun gazlamalar har xil yuzali hajmiy formalar hosil qilishga imkon beradi. Cho‘ziladigan mayin gazlamalardan ko‘ndalang va qiya yo‘nalishda chiroyli burmalar hosil qilib bo‘ladi. Qattiq va hurpaygan yupqa gazlamalar faqat qiya yo‘nalishda burmalanadi. Gazlamadagi tanda va arqoq iplarining bir-biriga nisbatan siljish hamda elastik cho‘zilish xossasidan kiyim dettallarini qiya bichishda foydalaniladi.

Gazlamaning fakturasi uning muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, kiyimning tashqi ko‘rinishini belgilab beradi. Faktura gazlama sirti (yuzasi)ning ishlanish sifati (turi)dir. Gazlamani sirti tekis va g‘adir-budir, xira va yaltiroq, shaffof va xira va hokazo fakturali bo‘lishi mumkin. Gazlamaning fakturasi uning yuza birligiga to‘g‘ri keladigan tuklar, tugunchalar, bo‘rtma yo‘llar va hokazolarning ko‘p-ozligiga bog‘liq. Kiyimning hajmiyligi, zichligi, massasini belgilashda gazlamaning fakturasi muhim rol o‘ynaydi. Gazlamaning fakturasi kuchayishi (ya’ni, gazlama sirtining g‘adir-budirligi, tukliliqi ortishi) bilan kiyimning hajmi, zichligi va vazni oshadi. Sirti tekis gazlamadan tikilgan kiyim, aksincha, yengil va ko‘rinishidan ixcham bo‘ladi.

Gazlamaning gullari deganda, uni to‘qigan vaqtida hosil qilingan yoki gazlamani pardozlash jarayonida bosilgan naqshlar, yoxud kiyimni tikish vaqtida solingen gul va bezaklar tushuniladi.

Gullarni tashkil etuvchi elementlar abstrakt, geometrik shaklda bo‘lishi, shuningdek, hayvonot yoki o‘simgiliklar dunyosiga xos bo‘lishi mumkin.

Kostyumdagagi dekorativ bezak. Bezak kompozisiyaning mustaqil elementi emas – bu qo‘srimcha ziynat bo‘lib, kiyimda u yo‘q bo‘lishi ham mumkin.

Kiyim tarixining har qaysi bosqichiga o‘z bezak turlari va ularni ishlatish usullari xos bo‘lgan.

Kiyimni modellash tajribasida ishlatiladigan bezak turlari xilm-xil bo‘lib, ular kompozisiyadagi asosiy g‘oya bo‘lishi yoki kostyumdagagi mo‘ljallangan badiiy-obrazli niyatni kuchaytiradigan va boyitadigan

bo'lishi mumkin. Bezakdan kiyim shaklini yoki uning bir qismini bo'rttirib, shaklini bo'laklarga ajratib ko'rsatish uchun foydalaniadi. Dekorativ bezakning dekorativ va konstruktiv ahamiyati (burma, bo'rtma burma, mayda taxlama, gofre, plisse va hokazo), dekorativ va utilitar ahamiyati (belbog'lar, qoplama cho'ntaklar, tugmalar, furnitura va shu kabilar) va faqat dekorativ ahamiyati (kashtalar, qo'yma burmalar, applikasiya va boshqalar) bo'lishi mumkin.

Hozirgi son-sanoqsiz bezaklarni gazlamai va shakliga binoan quyidagi guruhlarga ajratsa bo'ladi:

1. Barcha turdag'i bo'rtirma choklarni, taxlamalar, bo'rtma burmalar, burmalar, plisse, gofre, bezak baxyaqatorlarni tikish natijasida hosil bo'ladigan bezaklar.

2. Kiyimni o'z gazlamaidan yoki bezak gazlamadan yasalgan detallar yordamida bezash (qo'yma burmalar, ikki tomonlama qo'yma burmalar, aylana burmalar, beykalar, mag'izlar, bo'rtma mag'izlar, bantlar, galstuklar, xlyastiklar, fatalar, pagonlar va hokazo).

3. Maxsus bezakli gazlamalar (to'r, tasma, popuk, lentalar, gullar va boshqalar) yordamida bezash.

4. Furnitura (tugmalar, to'qilar, dekorativ pistonlar, blokcha-pistonlar, «molniyalar» va boshqalar).

5. Kashta, qoplama bezak, emblemalar.

6. Boshqa gazlamalar (mo'yna, teri, trikotaj, zamsha, to'r polotno va hokazolar) yordamida bezash.

Kiyim detallarini bosma gul solib bezash.


Bezash turini, uning joyini tanlash kiyimning turi va nimaga mo'ljallanganiga, kiyim shakliga, gazlamaning fakturasiga, jins-yosh omiliga, odam gavdasining turiga, gavdaning shaxsiy xususiyatlariiga, xarakteriga bog'liq.

Kiyimning kompozision yechimiga putur yetkazmaslik uchun bir yo'la ishlataladigan bir necha xil bezakning bir-biriga mos tushishiga alohida e'tibor berish kerak.

Kiyimda ranglarning roli. Rang kompozisiyaning eng jonli, ifodali elementlaridan biridir. Ranglar yoshdagi farqni bildiradigan vosita bo'lib ham hisoblanadi. Ranglar his-tuyg'uga juda katta va har xil ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi ranglar kishiga taskin beradi (tinchlantiradi),

ko'ngilni ko'taradi, ko'zni quvontiradi; boshqalari - hayajonlantiradi, ma'yuslantiradi va tashvishlantiradi. To'q yoki nafis ranglar, yoqimli va xira ranglar farq qilinadi.

Jami ranglar x r o m a t i k (bo'yalgan) va n o x r o m a t i k (bo'yalmagan, ya'ni tussiz) ranglarga ajratiladi (oq, kul rang va qora rang noxromatik rang hisoblanadi).



76-rasm. Ranglar doirasi

Asosiy xromatik ranglar to'rtta: sariq, ko'k (zangori), qizil va yashil. Ular boshqa ranglarning hammasidan shunisi bilan ajraladiki, ko'zimizga toza, juda «sof» bo'lib ko'rindi; boshqacha aytganda, ranglarga bo'lingan doiradagi qo'shni ranglarga oid tuslar go'yo sariq, ko'k, qizil va yashil ranglar tarkibida yo'qdek tuyuladi. Boshqa ranglar ana shu to'rtta asosiy rangning araliash uviidan hosil bo'ladi va oraliq ranglar deb yuritiladi.

Kiyimni loyihalashda ikki-uch (kamdan-kam hollarda to'rt) rangga murojaat qilinadi, chunki ranglar ko'payib ketsa, ularning uyg'unligi va birligi buziladi. Ranglar birligiga bo'yoqlar tusining xilma-xilligi, yorqinligi va to'yinganligi xosdir.

To'rtta asosiy rang yordamida ranglar doirasini tuzish mumkin, modellashtirish jarayonida bu doiradan osonlikcha foydalanish mumkin (76-rasm, a). Ranglar doirasida ranglarni yaqin (bir-biriga xil tushadigan, o'xshash), yaqin-kontrast va kontrast (bir-biriga xil tushmaydigan) turlarga ajratish mumkin.

Yaqin ranglar bir-biriga yaqin joylashib, doiraning chorak qismini egallaydi. Asosiy ranglardan biri ularni o'zaro bog'laydi; bu ranglar tarkibida qo'shimcha ranglarga xos tuslar bo'lmaydi (76-rasm, b). Yaqin ranglar birligi garmonik bo'lsa-da, ta'sirchan bo'lmaydi.

Ya q i n-k o n t r a s t ranglar doiraning yon tarafdag'i chorak qismini egallaydi: ko'kimtir-qizil va ko'kimtir-yashil, sarg'ish-qizil va sarg'ish-yashil; sarg'ish-qizil va ko'kimtir-qizil, sarg'ish-yashil va ko'kimtir-yashil (76-rasm, v). Yaqin-kontrast ranglar yaqin ranglarga nisbatan aktivroq va ko'r kamroqdir.

Kontrast ranglar doiraning qarama-qarshi tomondagi chorak qismini egallaydi (sarg'ish-qizil va ko'kimtir-yashil, sarg'ish-yashil va ko'kimtir-qizil); ularning bir-biriga hech qanday o'xshashligi yo'q, ya'ni bir-biriga xil kelmaydi (76-rasm,g). Kontrast qo'shimcha ranglar – toza sariq bilan toza ko'k ranglar, toza qizil bilan toza yashil ranglar. Kontrast va qo'shimcha ranglardan ancha yorqin va his-tuyg'uga aktivroq ta'sir etadigan qo'shimcha ranglar hosil etish mumkin.

Barcha ranglar o'zaro bog'liq bo'lib, bir-biriga ta'sir etadi. Qora fonda barcha ranglar ochilib, ravshan ko'rindi; yorug' fonda, aksincha, odmilashadi (ravshanlik kontrasti).

Biror rangga qandaydir xromatik rang qo'shilgandagina emas, balki unga qora yoki oq rang aralashtirilganda ham uning xarakteri o'zgaradi.

Ko'zning aldanishi (illyuziya) deganda, buyumni ko'rishdan hosil bo'lgan taassurot tushuniladi; lekin bu taassurot buyumning boshqa sezgi organlari orqali idrok qilinishidan boshqacha bo'ladi va mazkur buyum to'g'risidagi bilimimizga mos kelmaydi.

Ko'z bilan chamlashdagi normal aldanish ham ba'zan ko'zning aldanishi deb ataladi. Biz haqiqatan ham to'g'ri chiziq o'rniga egri chiziqni, past bo'yli odam o'rniga novcha odamni ko'ramiz va hokazo. Ko'zning aldanishi fizik, fiziologik va psixologik sabablarga bog'liq.

Gavdaning tuzilishidagi nuqsonlarni niqoblash (ko'zga chalinmaydigan qilish): bo'yli pastroq yoki balandroq, jussasi semizroq yoki ozg'inroq, tananing ayrim qismlarini yo'g'onroq yoki ingichkaror qilib ko'rsatish maqsadida kiyimda ayni ko'zning aldanish xususiyatidan foydalilaniladi (77-rasm).

Ranglarni, chiziqlar va burchaklar yo'nalishini, o'lchov, shakl, sath, masofa, oraliq va hokazolarni idrok qilishda ko'zning aldanishidan ham kiyimda foydalilaniladi. Idrok qilishdagi aldanish quyidagi turlarga ajratiladi: shaklni ikki o'lchovda idrok qilishdagi

aldanish, uchinchi o'Ichovni idrok qilishdagi aldanish va rangni idrok qilishdagi aldanish (bu holda shakl o'zgaradi) va hokazo.



77-rasm. Kostyumdagagi yirik yo'llar: a – gorizontal; b – vertikal.

Kiyimni loyihalashda ko'zning yuqorida aytib o'tilgan aldanishlaridan, ya'ni illyuziyalar guruhidan turlicha foydalaniadi.

Demak, odam gavdasidagi ayrim nuqsonlarni: to'lalikni, ozg'inlikni, novcha bo'ylikni, past bo'ylikni va hokazolarni kiyimni ko'rish illyuziyalari orqali chalg'itish mumkin, ya'ni kiyimdagи mutanosiblik, chiziqlar, gazlama rangi, fakturasi, gullari orqali gavda ko'rinishini o'zgartirib ko'rsatish mumkin.

XIII-BOB

HOZIRGI KIYIM ASSORTIMENTINING UMUMIY TAVSIFI

Hozirgi kiyimning asosiy xususiyati qulaylik va funksionallikka intilish bo'lib, bu loyihani soddalashtirishda, kiyimning har qanday gavdaga moslanishini oson, yopishmay, bermalol turuvchi shaklida ifoda topadi. Hozirgi kiyimning xususiyatlari quyidagilar:

- a) kiyim ansambilining yorqin obrazliligi;
- b) nimaga mo'ljallanganiga qarab qo'shimchalar tanlanishi;
- v) yakka kiyim turlaridagi gazlamalarning ixtiyoriy kompozisiysi;
- g) ko'p vazifalilik, mavsumiga qaramaslik, turlanuvchanlik, kiyimning ishbopliligini va universalligini bildirish.



78-rasm.

13.1. Uy kiyimi

Uy kiyimi umuman xonadonning ichki ko‘rinishiga muvofiq keladigan, odam atrofidiagi narsalarga mos tushgan, monand bo‘lishi kerak.

Uy kiyimi ham moda ta’sirida bo‘ladi va kiyimning aynan shu vaqtga xarakterli bo‘lgan bichimi, uzunligi, bezagi, assortimenti uy kiyimida ham aks etadi.

Aniq shakllarni, gazlamalar, dekorativ bezaklar, uslub yechimlarini tanlashda odam shaxsiyati namoyon bo‘lishi uchun uy kiyimi katta imkoniyatlar beradi.

Uy kiyimi nimaga mo‘ljallanganligiga, yil fasliga va sutka vaqtiga qarab quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Uxlash kiyimi, ertalabki va kechki yuvinish-taranish kiyimi.
2. Uyda ishslash kiyimi.
3. Mehmon kutish kiyimi.

Uxlash kiyimiga – tungi ko‘ylaklar, pijamalarni kiritish mumkin. Ulatni harir, ochiq rang, yumshoq gazlamalardan tikish, to‘rlar, kashtalar, qo‘yma burmalar bilan bezash mumkin. Bichimi sodda, choklari minimal darajada kam, odatda bo‘yi uzun, shakllari aniq bu kiyimlar gavdani ancha ixcham qilib ko‘rsatadi. Kiyim assortimenti, bo‘yining uzunligi odamning yoshiga, gavda tuzilishi xususiyatlari, turmush tarzi va sharoitiga qarab tanlanadi.

Uxlash kiyimi o‘simplik yoki geometrik xarakterdagи siyrak, mayda gullari bor ochiq mayin tusli bo‘lishi kerak. Bezaklar - kashta, qo‘yma burmalar, ikki tomonlama qo‘yma burmalar, to‘rlar, mag‘izlar, beykalar, tasmalar, bantlar, tikma to‘rlar, tasmalar va boshqalar asosan kiyim rangida bo‘lib, bularning hammasi uyqu kiyimini chiroyli va qulay qiladi.

Taqilma minimal miqdorda tugmalar yoki bog‘ichlar chatib, yechimi qulay qilib hal etiladi. Yoqalar kichik o‘lchamli bo‘ladi.

Ertalabki va kechki yuvinish-taranish kiyimi – bu tungi kiyim ustidan kiyiladigan xalat. Bu kiyim tungi ko‘ylak yoki pijama bilan komplektda hal etiladi, shuning uchun ularning hajmi, uzunligi, yenglarining bichig‘i, yoqa o‘mizining o‘yig‘i va yoqasining xarakteri, bezaklari, rangi bir-biriga mosiangan bo‘lishi kerak. Taqilmasi bir

bortli yoki ikki bortli, minimal miqdorda tugma chatilgan yoki belbog‘li bo‘ladi. Xalatlar turli shakldagi yoqali yoki yoqasiz, cho‘ntaklari chokda yoki qoplama bo‘lishi mumkin. Bu kiyim tungi kiyim gazlamasidan yoki shunga monand gazlamadan tikilishi mumkin.

Uyda ishlash kiyimi asosan shim, yubka, bluzka, sarafan, peshband kabilardan iborat komplektda hal qilinadi. Uyda ishlash kiyimi komplektlari nihoyatda bemalol harakat qilishga xalaqit bermaydigan bo‘lishi kerak. Buning uchun trikotaj maykalar, sviterlar bilan shim kiyiladi yoki gavdaga yopishib turmasligi uchun keng bluzkalar va turli ko‘ylaklar kiyiladi.

Peshband uy kiyimining timsoli hisoblanadi. U muhofaza vazifasini ham, estetik vazifani ham o‘taydi, bezak bo‘lib xizmat qiladi, ozodalik va saranjom-sarishtalik simvoli hisoblanadi.

Peshbandda bo‘yin bog‘ichli, yelka, ko‘krak, bel bog‘ichli bo‘lishi mumkin. Bog‘ichning turi peshbandning shakli va nimaga mo‘ljallanganiga, shuningdek, uy ishi kiyimining shakliga bog‘liq bo‘ladi.

Shakl, rang, gazlama va dekorativ bezakning monandligi hisobiga uy kiyimi bilan peshbandning komplekt bo‘lishiga erishiladi. Peshband vositasida gavdaning ko‘ngildagidek idrok etilishiga erishsa bo‘ladi. Masalan, yelka bog‘larini bo‘yinga yaqin bog‘lab, yelkalarni toraytirib ko‘rsatsa bo‘ladi, burmalar bo‘ksani kengroq, taxlamalar esa torroq qilib ko‘rsatadi, ko‘krakpechning kengi ko‘kraklar hajmini kattalashtirsa, ensiz, cho‘zig‘i kichiklashtiradi.

Mehmon kutish kiyimi gavdaning afzalliklarini ko‘zga ko‘rsatadigan fon bo‘lib xizmat qilishi kerak. Shakli si po, gazlamasi mayin, osoyishta rang gammalari yarashadigan qilib tanlangan kostyum shunday xizmat qiladi.

13.2. Kundalik kiyim

Kundalik kiyim – bu ham ish, ham xizmat kostyumi. Bir qancha kasbdagi kishilar ish xususiyatlari yoki ishlab chiqarish sharoiti sababli maxsus kiyim kiyadi (metallurqlar, o‘t o‘chiruvchilar, baliqchilar va boshqalar) yoxud boshqalardan farq qilish vositasi sifatida forma kiyim kiyadi (harbiylar va mahkamalar formasi). Ayni

vaqtida maxsus kiyim talab qilmaydigan ko‘p kasblardagi kishilar oddiy kundalik kostyum kiyib yuradilar.

Hozirgi turmush tarzi amaliy ish kiyimiga uning qulayligini, ishbopligrini ko‘rsatadigan qator talablar qo‘yadi. Bu quyidagilardan iborat:

- hajmi o‘rtachaligi, bichimi oddiyligi;
- mutanosibliklarning aniq, qat“iyligi;
- ranglarining bosiqligi, yorqinmasligi;
- dekorativ vositalarning minimum darajaligi;
- modaning aks etgani me’yordan oshmaganligi.

Kiyimning turi, shakli, bichimi, mutanosibliklari, bo‘linishlari, cho‘ntaklarining qanday joylanishi, ularning turi, taqilmaning turi kasb belgilab beradigan ergonomic talablarga muvofiq tanlanadi.

Shuning bilan birga kundalik kostyum yechimi kasblar farqiga binoangina emas, balki odamlarning bir-biriga munosabatlarni ham hisobga olib hal etilishi kerak. Bu turli kasb-hunar kishilari o‘rtasidagi, masalan, o‘qituvchi bilan o‘quvchi, injener bilan ishchi, ofisantka bilan xo‘randa, sotuvchi bilan xaridor va boshqalar o‘rtasidagi munosabat bo‘lishi mumkin. Bu munosabatlar kostyuming ishbop (masalan, injenerda), bashang (televidenie diktorida), ommadan ajratib turadigan (sotuvchida), rasmiy (direktorda) va hokazolar bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Kundalik kostyuming rang yechimi uning nimaga mo‘ljallanganiga va uni qanday ishlatilishi xarakteriga qarab tanlanadi.

Gazlamani kiyim nimaga mo‘ljallanganiga, estetika talablariga (plastik xususiyatlar, rang, rasmga) qarabgina emas, balki mehnatning xususiyati belgilab beradigan gigienik talablarga ham qarab tanlanadi.

Dekorativ bezaklar, kompozision markaz qaerda bo‘lishi kiyimning funksional vazifasiga bog‘lab hal etiladi.

Qo‘srimchalar xarakterining qandayligi shu qo‘srimchalar nimaga mo‘ljallanganiga qarab belgilanib, u ham ishbop kostyuming umumiy xarakteriga bo‘ysundirilgan bo‘ladi.

13.3. Bashang kiyim

Modadagi yangi yo‘nalish odatda bashang kiyimda sinovdan o‘tkazib ma‘qullanadi. Bashang kiyim odamga yarashadigan, uning eng yaxshi xususiyatlarini ko‘zga ko‘rintiradigan bo‘lishi kerak.

Bashang kiyim nimaga mo‘ljallanganiga qarab quydagicha bo‘linadi: xonodon tantanalarida kiyiladigan, teatr va konsert zallariga borganda kiyiladigan, rasmiy tantanalarda kiyiladigan, bayramda kiyiladigan, mактабни bitiruvchilar ballarida kiyiladigan, to‘yda kiyiladigan va hokazo.

Bashang ko‘ylak odam uchun kiyimning boshqa turlaridan ko‘ra qo‘proq ziynat bo‘lib, odamning tashqi qiyofasi xususiyatlariga, uning tabiatiga juda monand bo‘lishi kerak.

Bashang kiyimni modellashning o‘ziga xos xususiyati shakldagi barcha qismlari o‘z konstruktiv mohiyatini yashirib, bu moxiyat dekorativ ko‘rinishda ifoda topishi kerak. Detallar ishbop xarakterda bo‘lmasligi kerak. Kiyimning funksional hususiyatlarini sezilmaydigan qilishga ko‘pincha sharflar, burmalar, turli xil bezaklar yordam beradi. Bashang kiyimlarda cho‘ntak bo‘limgani ma‘qul, yoqalar, taqilmalar dekorativ xarakterda bo‘lishi kerak.

Bashang kiyim shakli yechimining ikki turi bor:

1. Osoyishta, “biqiq”, neytral shakllar. Bunda kostyum odamning ko‘rinishini takrorlaydi va uning o‘ziga xos ramka, fon bo‘lib xizmat qiladi, uning tashqi qiyofasini takidlab turadi yoxud gazlamaning nafisligini, boy ko‘rinishi va boshqa xususiyatlarini (duxoba, tabiiy mo‘yna va boshqalarini) yoki qo‘shimchalar va ziynatlarni bo‘ttirib ko‘rsatadi. Bu tur kostyumlarning yechimi odatda klassik uslub yo‘lida bo‘ladi. Ular odam aktiv xarakatlar qilmaydigan rasmiy tantanalarda, teatrga borganda va hokazolarda kiyishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Bunday tur bashang ko‘ylaklarni olib qo‘yiladigan detallar (pelerinalar), qo‘shimchalar (belbog‘lar, sharflar) va turli ziynatlar yordamida har xil qilib, ularning ishlatalish diapazonini kengaytirsa bo‘ladi.

2. Aktiv hilpirab turadigan, “biqiq” shakllar bezaklarining dekorativligi hisobiga va butun o‘zining tuzilishi (o‘rama yubkalar, hilpirama detallari) yordamida odam bilan hamkorlikda bo‘ladi. Ular odam aktiv xarakatlar qiladigan tansa kechalarida, yangi yil ballarida, mактаб bitiruvchilari kechalarida kiyiladi.

Bashang kostyum nimaga mo'ljallanganiga qarab uning gazlamasi chitdan to duxobagacha, ziynatlari yog'ochdan to brilliantgacha, dekorativ bezagi oddiy merejkada to zardo'zi, buyumlargacha bo'lishi mumkin.

Bashang kiyim modellarini ishlab chiqishda ko'pincha gazlamalar birga qo'shib ishlatilib, bunda monandlikka erishish uchun albatta biron ta yetakchi atomat bo'lishi kerak. Gazlama rangi bir xil bo'lib, fakturalar kontrasti (atlas va duxoba) tamoilida, faktura bir xil bo'lib, ranglar kontrasti tamoillari va ayni vaqitda faktura bilan rang nisbatlari kontrasti tamoili pida birga qo'shilishi mumkin.

Bashang kostyum yechimining badiiy-obrazli hal etilishi uning barcha qismlari o'zaro bog'liq bo'lishini va odam shaxsiyati (gavdasi, yoshi, tabiatii) bilan, shuningdek kiyib yuriladigan muhiti bilan albatta aloqador bo'lishi talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Г.К.Хасанбаева. "Кийим моделини ишлаш ва конструкциясини тайёрлаш". Тошкент. Ўқитувчи. 1990 йил.
2. А.П.Рогова. "Эркаклар ва болалар устки кийимини конструкция-лаш асослари". Тошкент. Ўқитувчи. 1988 йил.
3. А.П.Шершнева. "Основы конструирования женской и детской одежды". Москва. Легпромбытиздат. 1982 г.
4. Г.В.Скачкова, Л.В.Мартопляс. Школа кройки и шитья на дому. Минск. "ХЭЛТОН" 2000 г.
5. Е.В.Киреева. "История костюма". Москва. "Просвещение". 1976 г.
6. Е.Б.Коблякова. "Основы конструирования одежды". Москва. "Легкая индустрия". 1980 г.
7. Т.А.Абдуллаев, С.А.Хасанова. "Одежда узбеков (XIX начало XX в.)". Издательство "Фан". Узбекской ССР. Ташкент. 1978 г.
8. Л.П.Чижикова. "Кружок конструирования и моделирования одежды". Москва "Просвещение". 1990 год.
9. Г.Г.Мозговая, Г.Б.Картушина. "Швейное дело". 7-8 класс. Москва. "Просвещение". 1990 год.
10. "Уй-рўзгор энциклопедияси". Ўзбек совет энциклопедияси бош редакцияси. Тошкент. 1982 йил.
11. Т.В.Козлова, Л.Б.Рытвинская, З.М.Тимашева. "Моделирование и художественное оформление женской и детской одежды". Москва. Легпромбытиздат. 1990 год.
12. Н.В.Ерзенкова. "Блузки". Минск. "Полымя". 1994 год.
13. Г.Н.Александрова. "100 моделей женских юбок". Минск. "Полымя". 1992 год.
14. Т.Н.Екшурская, Е.Н.Юдина, И.А.Белова. "Модное платье". Санкт-Петербург. Лениздат. 1992 год.
15. Р.И.Егорова, В.П.Монастырная "Бичиш-тикишни ўрганинг". Тошкент. Ўқитувчи. 1990 йил.
16. П.П.Кокеткина. "Справочник по конструированию одежды". Москва. "Легкая и пищевая промышленность". 1982 г.

MUNDARIJA

KIRISH	3
"TIKUV BUYUMLARINI LOYIHALASH VA MODELLASHTIRISH ASOSLARI" FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI	5
I-BOB. KIYIM HAQIDA MA'LUMOT	6
1.1. Kostyumdag'i ayrim terminlarga tushuncha	6
1.2. Kiyim tarixidan ma'lumot	8
1.3. Kiyimga qo'yiladigan talablar	14
1.4. Kiyimlarning sinflanishi	16
II-BOB. ODAM GAVDASI HAQIDA MA'LUMOT	18
2.1. Odam gavdasining tuzilishi va turlari	18
2.2. Bolalar gavdasining tuzilishi	23
2.3. Gavdaning antropometrik nuqtalari va chiziqlari	24
2.4. Gavdani modul bo'yicha chizish	27
III-BOB. KIYIMLARNI LOYIHALASH ASOSLARI	28
3.1. Kiyimni loyihalashda ishlataladigan o'Ichov turlari va ularni gavdadan olish yo'llari	28
3.2. Kiyimlarni loyihalash usullari	31
3.3. Kiyimni loyihalashda ishlataladigan qo'shimchalar	34
IV-BOB. AYOLLARNING KIYIMLARINI LOYIHALASH ASOSLARI	38
4.1. Ayollar kiyimlarining tavsifi	38
4.2. Ayollar tungi ko'ylagini loyihalash	39
4.3. Ayollar ovropacha ko'ylagini loyihalash	41
4.3.1. Ko'ylik asosining to'r qismi	42
4.3.2. Ort bo'lak chizmasi	43
4.3.3. Old bo'lak chizmasi	44
4.4. O'tkazma yengni loyihalash	46
4.4.1. Uzun tor yengning chizmasi	48
4.5. Ayollar bluzkasi	48
4.6. Yaxlit yengli ko'yaklarni loyihalash asoslari	49
4.6.1. Yaxlit kalta yengli lifti loyihalash	50
4.6.2. Old bo'lak chizmasi	51
4.6.3. Uzun yenglari old va ort bo'laklari bilan yaxlit bichiladigan ko'yaklarni loyihalash	51
4.6.4. Ort bo'lak chizmasi	52
4.6.5. Old bo'lak chizmasi	53
4.7. Reglan yengli kiyimlarni loyihalash	53
4.7.1. Ort bo'lak chizmasi	54
4.7.2. Old bo'lak chizmasi	55
4.7.3. Ort yeng chizmasi	56
4.7.4. Old yeng chizmasi	57
4.8. Yoshqalarni loyihalash	58

4.8.1. O'tkazma yoqalar chizmasi	58
4.8.2. Yarim qaytarma yoqa chizmasi	59
4.8.3. Tik yoqa	60
4.8.4. Tik qaytarma yoqa	60
4.8.5. Yassi yotadigan yoqa chizmasi	61
4.9. Yaxlit yoqalar chizmasi	61
4.9.1. Yaxlit tik va ort bo'lakdag'i yoqa chizmasi	61
4.9.2. Old bo'lakdag'i yoqa chizmasi	62
4.9.3. Yaxlit ko'tarmali qaytarma yoqa	63
4.10. Yubkalarni loyihalash asoslari	64
4.11. To'g'ri bichimli yubka chizmasi	64
4.11.1. Yubkaning to'r qismi	64
4.11.2. Yubkaning old va ort bo'laklari	65
4.12. Yubka-shimni loyihalash	66
4.12.1. Ort bo'lak chizmasi	67
4.12.2. Old bo'lak chizmasi	67
4.13. Bo'lakli yubkalarni loyihalash	68
4.13.1. Olti bo'lakli yubkani loyihalash	68
4.14. Quyosh yubkalarni loyihalash	69
4.14.1. "Yarim quyosh" yubkani loyihalash	70
4.14.2. "Quyosh" yubkani loyihalash	70
4.15. Shim asosini loyihalash	70
4.15.1. Old bo'laklar chizmasi	71
4.15.2. Ort bo'lak chizmasi	73
V-BOB.TEXNIK MODELLASH JARAYONI HAQIDA MA'LUMOT	75
5.1. Ayollar ko'ylagini texnik modellash	76
5.1.1. Ko'krak vitochkasini yon qirqim chizig'iga ko'chirish	76
5.1.2. Ko'krak vitochkasini bel chizig'iga ko'chirish	76
5.1.3. Ko'krak vitochkasini old bo'lak bo'yin o'mizi chizig'iga ko'chirish	77
5.1.4. Ko'krak vitochkasini yeng o'mizi chizig'iga ko'chirish	77
5.1.5. Ko'krak vitochkasini old bo'lak o'rt'a chizig'iga ko'chirish	77
5.1.6. Detallarni parallel va konusimon kengaytiripsh	77
5.2. Yenglarni texnik modellash	78
5.3. Yubkani texnik modellash	80
5.3.1. Etak tomoni kengaytirilgan yubka	81
5.3.2. "Fantaziyal" yubka	82
VI-BOB. O'ZBEK MILLIY KIYIMLAR TAVSIFI	84
6. 1. Milliy kiyimlar tarixidan ma'lumot	84
6.2. Ayollar o'zbekcha ko'ylagini texnik modellash	86
6.3. Ayollar nimchasini texnik modellash	89
6.4. O'zbekcha milliy lozimni loyihalash	91
VII-BOB.BOLALAR KIYIMI	94
7.1. Chaqaloqlar kiyimi	95

7.1.1. Chaqaloqlar ko'yakchasi – raspashonkani loyihalash	96
7.1.2. Bolalar qalpoqchasini loyihalash	97
7.2. Maktabgacha yoshdagи qiz bolalar ko'ylagini loyihalash	98
7.2.1. Ko'yakning to'r qismi	99
7.2.2. Ko'yakning ort bo'lagi	99
7.2.3. Ko'yakning old bo'lagi	101
7.2.4. O'tkazma yeng chizmasi	101
7.3. Maktabgacha yoshdagи qiz bolalar ko'ylagini modellashtirish	103
VIII-BOB. KIYIMDA BEZAK ELEMENTLARINI MODELLASHTIRISH...	105
8.1. Ryush	105
8.2. Burmalar	105
8.3. Volanlar	105
IX-BOB.MAKTABGACHA YOSHDAGI O'G'IL BOLALAR KO'YLAGINI LOYIHALASH...	107
9.1. Ko'yakning to'r qismi	107
9.2. Ort bo'lak chizmasi	109
9.3. Old bo'lak chizmasi	109
9.4. O'tkazma yeng chizmasi	110
9.5. Bolalar ko'ylagida uchraydigan yoqalar	111
9.5.1. Yaxlit qaytarmali tik yoqa	111
9.5.2. Ochiq bortli qaytarma yoqa	112
X-BOB. Erkaklar ko'ylagini loyihalash	113
10.1. Ko'yakning to'r qismi	113
10.2. Orqa bo'lakni loyihalash	114
10.3. Old bo'lakni loyihalash	115
10.4. O'tkazma yeng chizmasi	116
10.5. Manjet chizmasi	117
10.6. Tik yoqa chizmasi	118
XI-BOB.YORDAMCHI DETALLARNI CHIZISH, ANDOZA TAYYORLASH, UNI KO'PAYTIRISH VA GAZLAMAGA JOYLASHTIRISH...	119
11.1. Andozalar konstruksiyasini tuzish va ularni ko'paytirish	119
11.2. Andozalarni texnik ko'paytirish	121
11.3. Andozalarni gazlama ustiga qo'yish va bichish	123
XII-BOB.KIYIMLARNI MODELLASHTIRISH VA BADIY BEZASH ASOSLARI	126
12.1. Modellashtirishning maqsad va bosqichlari	126
12.2. Uslub va moda	128
12.3. Kiyim kompozisiysi asoslari	135
XIII-BOB.HOZIRGI KIYIM ASSORTIMENTINING UMUMIY TAVSIFI...	150
13.1. Uy kiyimi	151
13.2. Kundalik kiyim	152
13.3. Bashang kiyim	154
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	156

ABDULLAYEVA Qumri Madjidovna

TIKUVCHILIK BUYUMLARINI LOYIHALASH VA MODELLASHTIRISH ASOSLARI

O'quv qo'llanma

Nashr uchun mas'ul:

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

Adabiyot jamg'armasi direktori

Qurbanmurod Jumayev

Muharrir:

M. AZIZOVA

Musavvir va texnik muharrir:

Nodir Ortikov

Gulnoza Jumayeva

*Terishga berildi 04.10.2006 y. Bosishga ruxsat
etildi 20.10.2006 y. Qog'oz formati 60x84 1/₁₆.
Ofset bosma usulida bosildi. Hajmi 10,0 bosma
tobog. Nusxasi 500.
Buyurtma № 58*

*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot
jamg'armasi nashriyoti, 700000, Toshkent,
J-Neru ko'chasi, 1-uy.*

*«AVTO-NASHR» sho'ba korxonasi
bosmaxonasida chop qilindi.
700005, Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.*